

Destination **B1**

Vocabulary

Meanings & Example Sentences



Translator:
Zoir Akramov

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Muallifning Onlayn Ingliz Tili Kurslari.....	5
Unit 3. Fun and Games.....	6
Unit 6. Learning and Doing.....	12
Unit 9. Coming and Going.....	17
Unit 12. Friends and Relations.....	23
Unit 15. Buying and Selling.....	29
Unit 18. Inventions and Discoveries.....	34
Unit 21. Sending and Receiving.....	40
Unit 24. People and Daily Life.....	46
Unit 27. Working and Earning.....	52
Unit 30. Body and Lifestyle.....	58
Unit 33. Creating and Building.....	64
Unit 36. Nature and the Universe.....	69
Unit 39. Laughing and Crying.....	74
Unit 42. Problems and Solutions.....	80

KIRISH

Qadrli foydalanuvchi! Ushbu lug'at kitobi Malcolm Mann va Steve Taylore-Knowles tomonidan tuzilgan hamda pre-intermediate va intermediate darajalaridagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan "Destination B1" kitobining Vocabulary qismlaridagi barcha so'zlarning tarjimalarini o'z ichiga oladi.

Kitob Muallifi Haqida Qisqacha

Ushbu kitob muallifining to'liq ismi Zoir Akramov va 2002-yilda tavallud topgan. Kitob til o'rganuvchilariga taqdim etilgan vaqtda (2022-yil), muallif xalqaro darajada keng tarqalgan IELTS baholash tizimi bo'yicha 8.0 ball egasi bo'lgan. Shunday ekan, kitobdagi deyarli barcha ma'lumot, tarjimalar hamda namunalarga ishonsa bo'ladi.

Sizning Fikringiz Biz Uchun Muhim!

Agarda siz ushbu kitobdan foydalanish jarayonida, qandaydir kamchilik yoxud xatoga duch kelsangiz, quyidagi manzil orqali muallif bilan bog'lanishingizni va xato haqida muallifga xabar berishingizni so'raymiz. Bundan tashqari, kitob haqidagi boshqa har qanday (tanqidiy va ijobiy) fikrlaringizni ham ushbu manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning fikrlaringizni eshitishdan mamnun bo'lamiz va aynan sizning fikrlaringizga asoslangan holda kitob takomillashtirib boriladi.

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zoir@gmail.com

Kitobdan To'g'ri Foydalanish

Kitobda eng birinchi inglizcha so'z va uning tarjimasi berilgan. So'zlarning birdan ko'proq tarjimalari ham keltirilgan holatlar mavjud va buning sababi, ba'zi so'zlar bir nechta ma'noga ega va turli xil gaplarda turli xil tarjimada kelishi mumkin. Har bir so'z uchun bittadan namunaviy gap va gapning tarjimasi ham ta'minlangan. Chunki til o'rganishning pre-intermediate boshqichidan boshlab, so'zni shunchaki tarjimasinigina yodlash naf bermaydi. Har bir yangi so'zni namunaviy gaplar bilan o'rganish darkor. Shundagina, so'zning gapdagi o'rni haqida, va u boshqa qaysi so'zlar bilan birgalikda qo'llanila olishi haqida tasavvurga ega bo'lasiz. Aks holda, yodlagan so'zingiz tezda yoddan chiqib qoladi va uni speaking jarayonida qo'llay olmaysiz. So'zni yanada uzoqroq muddat davomida yodda tutib qolish va uni writing jarayonida qo'llay olish uchun, har bir namunaviy gapga asoslangan holda, o'zingiz boshqa bir gap yozishingiz tavsiya etiladi.

Muallifning Boshqa Rejalari

Til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan boshqa Destination seriyalari ham mavjud, xususan "Destination A1", "Destination A2", "Destination B2" hamda "Destination C1&C2". Til o'rganuvchilariga yordam berish hamda boshlagan ishimni yakunlab qo'yish maqsadida, ushbu kitoblarning ham Vocabulary qismlaridagi so'zlarni ishonchli tarzda tarjima qilishni oldimga maqsad qilganman. Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati jihatdan imkoniyati cheklangan do'stlarimiz uchun ushbu so'zlarning to'g'ri talaffuzlarini ham audio kitob

tarzida ishlab chiqish; Destination kitoblarining har bir grammatik mavzusiga video darslar tayyorlash kabi ulkan maqsadlarim ham bor. Albatta, bularning bari vaqt talab etadi, ammo bir kun kelib siz-u men kabi ingliz tili o'rganuvchilariga sezilarli darajada foydasi tegadigan material tayyor bo'ladi.

Agar bu borada, muallifga o'z yashirin yordamingizni berishni hamda jarayonni tezlashtirishni istasangiz, quyidagi plastik kartasiga ko'nglingizdan chiqarib istalgan summadagi yordam pulini o'tkazishingiz mumkin. Sizning behad ulkan ko'magingizdan boshimiz ko'kka yetadi va siz uchun xizmat qilishdan to'xtamaymiz!

Plastik kartasi raqami: 9860170105664412 (Akramova Ozoda nomida)

Kitob muallif (Zoir Akramov) mulki hisoblanadi va ushbu kitobni noqonuniy o'zlashtirib olish qonuniy javobgarlikka tortilishga olib keladi.

Kitobdan maroq bilan foydalanishingizni tilaymiz!

MUALLIFNING ONLAYN INGLIZ TILI KURSLARI

Muallif onlayn tarzda ingliz tilini o'rgatishga o'zini bag'ishlagan va ingliz tilini o'rganishning har qanday darajasi uchun o'z kursi mavjud: Beginner, Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate hamda IELTS kurslari. Shunday ekan, siz qulaygina uyingizni tark etmay, o'quv markaziga borish va kelish uchun hech qanday qimmatbaho vaqtingizni sarflagamagan holda, ingliz tilini o'zingizga mos darajada, IELTS natijasi 8.0 bo'lgan o'qituvchidan o'rganishingiz mumkin (kelajakda natija ko'tariladi). Har oyning boshida yangi kurslar ochiladi va birinchi 3 dars sinov tariqasida o'tkaziladi, ya'ni birinchi hafta haq to'lamay dastlabki 3 darsni ko'rishingiz mumkin. Ushbu muddat davomida, siz kurs qay tartibda tuzilgani, nimalarga e'tibor berilishi, kurs darajasi sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Har bir kursda grammar, vocabulary, pronunciation, reading, listening, writing va speakingga birdek e'tibor qaratiladi.

Darslar sifatini baholash uchun hamda kursda ishtirok etish uchun, quyidagi telegram manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin: @Zoir_Akramov

UNIT 3. FUN AND GAMES

Topic vocabulary

- ✓ **Beat** - yutmoq, mag'lub qilmoq
England needed to beat Germany to get to the final. – Angliya finalga chiqish uchun Germaniyani mag'lub etishi kerak edi.
- ✓ **Board game** - taxtachada o'ynaladigan o'yinlar, eg. manapoly; chess; backgammon
I think that Trivial Pursuit is my favourite board game. – Menimcha, Trivial Pursuit mening eng sevimli stol o'yinim.
- ✓ **Captain** - sardor, kapitan
She was captain of the Olympic swimming team. – U Olimpiada suzish guruhining sardori edi.
- ✓ **Challenge** - musobaqaga yoki urushga chorlamoq, da'vat etmoq
The girls challenged the boys to a cricket match. – Qizlar yigitlarni krikket o'ynashga da'vat etishdi.
- ✓ **Challenge** - sinov, mushkul ish
I felt I needed a new challenge at work. – Men ish joyimda o'zim uchun yangi sinov kerakligini his qildim.
- ✓ **Champion** - chempion
He finally became the world heavyweight boxing champion. – U vanixoyat og'ir vazn toifasida dunyo chempioni bo'ldi.
- ✓ **Cheat** - g'irromlik qilmoq
Kids have always found ways of cheating in school exams. – Bolalar har doim maktab imtihonlarida aldash (shpargalkalar ishlatish, do'stdan yordam olish...) usullarini topganlar.
- ✓ **Classical music** - mumtoz musiqa: pianino va skripkada ijro etiladigan musiqa
I love classical music, like Beethoven. – Menga mumtoz musiqa yoqadi, masalan Beethoven.
- ✓ **Club** - klub, to'garak
Why don't you join a chess club? – 1) Shaxmat klubiga qo'shilishingiz kerak (shuni maslahat beraman); 2) Nega shaxmat klubiga qo'shilmaysiz?
- ✓ **Coach** - murabbiy
After playing for ten years, Barry became a baseball coach. – 10 yil (beysbol) o'ynagandan keyin, Barri beysbol murabbiyi bo'ldi.
- ✓ **Competition** - musobaqa
He'd entered a competition in the local newspaper. – U mahalliy nashriyotdagi musobaqaga qo'shildi.
- ✓ **Concert** - konsert
Did you hear that the Rolling Stones did a concert in China? – Rolling Stones guruhi Xitoyda konsert berganini eshitdingizmi?
- ✓ **Defeat** - g'alaba qozonmoq, mag'lub qilmoq
France defeated Italy 3-1. – Fransiya Italiyani 3-1 hisobda mag'lubiyatga uchratdi.
- ✓ **Defeat** - mag'lubiyat
England suffered a 2-0 defeat. – Angliya 2-0 hisobida mag'lub bo'ldi.

- ✓ **Entertaining** - qiziqarli, maroqli
I saw a really entertaining programme on TV last night. – Men kecha tunda televizorda juda qiziqarli bir dastur ko'rdim.
- ✓ **Folk music** - milliy musiqa
What I like about folk music is the sound of the guitar. – Milliy musiqaning menga yoqadigan jihati bu gitara sadosi.
- ✓ **Group** - (musiqiy) guruh
My brother has got his own group and they play in our local area. – Akam o'z guruhiga ega va ular bizning mahalliy hududda ijro etishadi.
- ✓ **Gym** - workout zali, gimnastika zali
I'm thinking of joining a gym. – Men sport zaliga qo'shilish haqida o'ylayapman.
- ✓ **Have fun** - ko'ngil yozmoq, xursandchilik qilmoq
We haven't had such fun for years. – Ancha yildan beri, bunchalik xursandchilik qilmagandik.
- ✓ **Interest** - qiziqitirmoq
Photography has always interested me. – Fotograflik meni doim qiziqitirib kelgan.
- ✓ **Interest** - qiziqish, hobbi
Tell us about your interests and hobbies. – Qiziqishlaringiz va sevimli mashg'ulotlaringiz haqida bizga aytib bering.
- ✓ **Member** - a'zo
Are you a member of the golf club? – Siz golf klubi a'zosimisiz?
- ✓ **Opponent** - raqib
His opponent received only 36 per cent of the vote. – Uning raqibi ovozlarning bor yo'g'i 36 foizini oldi.
- ✓ **Organise** - tashkillashtirmoq
Who's organising the conference? – Konferensiyani kim tashkillashtiryapti?
- ✓ **Pleasure** - mamnuniyat, lazzat, xursandchilik
Rick smiled with pleasure when Michonne walked in. – Mishon kirib kelganida, Rik mamnuniyat bilan jilmaydi.
- ✓ **Referee** - hakam
The referee blew his whistle and the game began. – Hakam hushtagini chaldi va o'yin boshlandi.
- ✓ **Rhythm** - ritm
This song has got a really great rhythm. – Bu qo'shiq judayam ajoyib ritmga ega.
- ✓ **Risk** - tavakkal qilib xavfga qo'ymoq
He risked a lot of money on the company. – U kompaniya uchun katta pul tikdi.
- ✓ **Risk** - tavakkal, xavf
There's a serious risk of an accident on the road. – Ushbu mashina yo'lida jiddiy avariya bo'lish xavfi mavjud.
- ✓ **Score** - hisob qayd etmoq, natija ko'rsatmoq
No one scored in the first half. – O'yinning birinchi yarmida hech kim go'l urmadi.
- ✓ **Score** - ball, natija, hisob
The final score was 4-3 to United. – Yakuniy hisob Yunayted foydasiga 4-3 bo'ldi.
- ✓ **Support** - qo'llab-quvvatlamok, yoqlamoq

I support West Ham—who do you support? – Men Vest Hem jamoasini qo'llab-quvvatlayman–siz kimni qo'llab-quvvatlaysiz (baletlik qilasiz)?

I hope all the students will support our plans to rebuild the school. – Umid qilamanki, barcha o'quvchilar maktabni qayta qurish to'g'risidagi rejalarimizni qo'llab-quvvatlashadi.

- ✓ **Support** - yordam, madad

Her family and friends have given her lots of support. - Uning oilasi va do'stlari unga juda ko'p madad berishgan.

- ✓ **Team** - jamoa

Are you in the hockey team this year? – Siz bu yil hokkey guruhidamisiz?

- ✓ **Train** - mashq qilmoq, shug'ullanmoq

The players train five days a week. – O'yinchilar haftada 5 kun shug'ullanishadi.

- ✓ **Video game** - video o'yinlar

I don't like video games–I'd rather play outside. – Menga video o'yinlar yoqmaydi–ko'chada o'ynashni afzal ko'raman.

Phrasal verbs

- ✓ **Carry on** - davom ettirmoq

The phone rang, but Mark just carried on watching TV. – Qo'ng'iroq jiringladi, ammo Mark televizor ko'rishda davom etdi.

- ✓ **Eat out** - restoranda ovqatlanmoq

Would you like to stay in or eat out tonight? – Bugun oqshom uyda qolishni istaysizmi yoki restoranda ovqatlanishnimi?

- ✓ **Give up** - odatni tashlamoq

You should give up smoking. – Chekishni tashlashingiz kerak.

- ✓ **Join in** - ishtirok etmoq

Ask them if you can play–I'm sure they'll let you join in. – Ulardan o'ynashingiz mumkinmi yoki yo'qligini so'rang–ishonchim komil ular ishtirok etishingizga ruxsat berishadi.

- ✓ **Send off** - o'yindan chetlashtirmoq

It was a very bad foul and the referee sent the player off. – U juda yomon qoidabuzarlik bo'ldi va hakam o'yinchini o'yindan chetlatdi.

- ✓ **Take up** - odatni boshlamoq

I've taken up stamp collecting and it's really interesting. – Men pochta markalarini yig'ishni boshladim va bu juda qiziq.

- ✓ **Turn down** - ovozni pasaytirmoq

Turn the radio down–I'm trying to work. – Radioni ovozini pasaytiring–men ishlashga urinyapman.

- ✓ **Turn up** - ovozni balandlatmoq

We asked our teacher to turn the CD up, so that we could hear it. – Biz o'qituvchimizdan CD diskni ovozini ko'tarishni so'radik, uni eshita olishimiz uchun.

Prepositional phrases

- ✓ **For a long time** - ancha vaqtdan beri

I haven't seen George for a long time. – Jorjni ancha vaqtdan beri ko'rmadim.

- ✓ **For fun** - xursandchilik uchun

I sing in a band for fun. – Men xursandchilik uchun musiqiy guruhda kuylayman.

- ✓ **In the middle (of)** - (ning) o'rtasida

In the middle of the stage, there was an elephant. – Sahnaning o'rtasida fil bor edi.

- ✓ **In time (for)** - (ga) o'z vaqtida

We arrived at the cinema just in time for the start of the film. – Biz kinoteatrda film boshlanishiga shundoqqina o'z vaqtida yetib keldik.

- ✓ **On CD/DVD/video** - diskda/ DVDda/videoda

I didn't see it at the cinema, so I'm watching it on DVD tonight. – Uni kinoteatrda ko'rmadim, shuning uchun bugun kechqurun DVDda ko'raman.

- ✓ **On stage** - sahnada

There were three actors on stage. – Sahnada 3 nafar aktyor bor edi.

Word formation

- ✓ **Act** - harakat qilmoq

By acting quickly doctors saved her life. – Tezlik bilan harakat qilish orqali, shifokorlar uning hayotini saqlab qolishdi.

- ✓ **Action** - harakat

They say that actions speak louder than words. – Insonning gapirgan so'zlaridan qilgan amali muhim (maqol).

- ✓ **Active** - serharakat

Johnnie is six years old, so he's very active and has a lot of energy. – Jo'ni 6 yoshda, shuning uchun u juda serharakat va ko'p energiyaga ega.

- ✓ **Actor** - aktyor

I would love to be an actor. – Aktyor bo'lishni istardim.

- ✓ **Inactive** - kamharakat

I've been a bit inactive since I got a job in an office. – Offisga ishga kirganimdan beri, biroz kamharakat bo'lib qolganman.

- ✓ **Athlete** - atlet, sportchi

The athletes are training hard for the Olympics. – Sportchilar Olimpiada o'yinlari uchun qattiq shug'ullanishyapti.

- ✓ **Athletic** - jismonan baquvvat, sport formasida

You need to be very athletic to play volleyball. – Valleybol o'ynash uchun jismonan baquvvat bo'lishingiz kerak.

- ✓ **Athletics** - yugurish kabi sport o'yinlari

When we go to the Olympics, I want to see the athletics. – Olimpiada o'yinlariga borganimizda atletika musobaqalarini ko'rishni xohlayman.

- ✓ **Child** - bola

This cartoon is suitable for a 3-year-old child. – Bu multfilm 3 yoshli bolakay uchun mos.

- ✓ **Children** - bolalar

I watched some children playing in the playground. – Men bolalar maydonchasida o'ynayotgan bir nechta bolalarni tomosha qildim.

- ✓ **Childhood** - bolalik

My mum spent her childhood in France. – Oyim bolalik davrini Fransiyada o'tkazgan.

- ✓ **Collect** - yig'imoq
He took up collecting coins in 1785. – U tangalar to'plashni 1785-yilda boshlagan.
- ✓ **Collection** - kolleksiya, to'plam
John has got a great collection of football shirts. – Jo'nning ajoyib futbol kiyimlari to'plami bor.
- ✓ **Collector** - kolleksioner, yig'uvchi
I sold my old stamps to a collector. – Eski markalarimni kolleksionerga sotib yubordim.
- ✓ **Entertain** - xursand qilmoq
She entertained us with stories of her travels. – U o'zining sayohatlari haqidagi hikoyalari bilan bizni xursand qildi.
- ✓ **Entertainment** - ko'ngilxushlik, ko'ngilchog'lik
There isn't much entertainment in the evenings in my town. – Mening shahrimda kechki payt ko'p o'yin-kulgi bo'lmaydi.
- ✓ **Hero** - qahramon
My granddad was a hero of the First World War. – Mening bobom Birinchi Jahon Urushi qahramoni bo'lgan.
- ✓ **Heroic** - qahramonlarga xos
The story was all about two heroic young men. – Hikoya ikki qahramon yigit haqida edi.
- ✓ **Heroine** - qahramon ayol
The heroine of the book finally gets married. – Kitobning qahramoni oxir-oqibat turmushga chiqadi.
- ✓ **Music** - musiqa
Every week they get together to make music. – Ular har hafta musiqa (yoki qo'shiq) kuylash uchun yig'ilishadi.
- ✓ **Musical** - musiqiy
Do you have much musical talent? – Sizda musiqiy iste'dod ko'pmi?
- ✓ **Musician** - musiqachi
It's not easy becoming a professional musician. – Professional musiqachi bo'lish oson emas.
- ✓ **Play** - o'ynamoq
There's a time to work and a time to play. – Ishlashni ham, o'ynashni ham o'z vaqti bor.
- ✓ **Player** - o'yinchi
One of the players was injured when he scored a goal. – U go'l urganida, o'yinchilardan biri jarohatlangan edi.
- ✓ **Playful** - o'yinqaroq, sho'x
My baby brother is very playful. – Mening ukam juda o'yinqaroq.
- ✓ **Sail** - suzmoq
The ferry sails from Newhaven to Dieppe. – Sol (eshkakli qayiq) Nyuhavendan Diepga suzadi.
- ✓ **Sailing** - suzish, dengiz safari
I love sailing and I try to go every summer. – Men (qayiqda) suzishni yoqtiraman va har yozda suzishga harakat qilaman.
- ✓ **Sailor** - dengizchi
A sailor helped us put our bags onto the ship. – Bir dengizchi sumkalarimizni kemaga olib chiqishga yordam berdi.

- ✓ **Sing** - kuylamoq
She usually sings in the shower. – U odatda dush qabul qilayotganda kuylaydi.
- ✓ **Sang** - sing fe'lining o'tgan zamon shakli
I sang in the choir when I was young. – Yoshligimda xo'rda kuylaganman.
- ✓ **Sung** - sing fe'lining past participle shakli
When my dad was at school, they had a song which was sung every morning. – Dadamning maktab chog'larida, har tongda kuylanadigan qo'shiq bo'lar edi.
- ✓ **Song** - qo'shiq
What's the name of that song you're singing? – Kuylayotgan qo'shig'ingizning nomi nima?
- ✓ **Singer** - qo'shiqchi
Kylie Minogue is one my favourite singers. – Kayli Minog mening sevimli qo'shiqchilarimdan biri.
- ✓ **Singing** - kuylash
I love Katy's singing–she's got a good voice. – Katining kuylashi menga yoqadi–uning yaxshi ovozi bor.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Bored with** - ...dan zerikkan
I'm bored with watching this film. – Bu kinoni ko'rishdan zerikdim.
- ✓ **Crazy about** - ...ning ashaddiy muhlisi
Marshall is crazy about video games. – Marshal video o'yinlarining ashaddiy muhlisi (judayam yaxshi ko'radi).
- ✓ **Good at** - ...da yaxshi
What sports are you good at? – Qanday sportlarda yaxshisiz?
- ✓ **Interested in** - ...ga qiziqqan
I'm quite interested in history. – Men tarixga juda qiziqaman.
- ✓ **Keen on** - ...ga qiziqqan
I'm not very keen on spicy food. – Men achchiq ziravorli ovqatlarga unchalik qiziqmayman (unchalik yoqmaydi).
- ✓ **Popular with** - ...orasida mashhur
This band is very popular with teenagers. – Ushbu musiqiy guruh o'smirlar orasida juda mashhur.

verbs

- ✓ **Feel like** - xohlamok
What do you feel like doing this weekend? – Bu dam olish kunida nima qilishni xohlaysiz?
- ✓ **Listen to** - tinglamok
In my free time, I like to listen to music. – Bo'sh vaqtimda musiqa tinglashni yoqtiraman.
- ✓ **Take part in** - qatnashmok
Have you ever taken part in a talent contest? – Hech talantlar musobaqasida qatnashib ko'rganmisiz?

nouns

- ✓ **A book (by sb) about** - ...haqida kitob
I read a great book by an English writer about travelling around Europe. – Men ingliz yozuvchisi tomonidan yozilgan Yevropa bo'ylab sayohat qilish to'g'risidagi kitobni o'qidim.

- ✓ **A fan of** - ...ning muhlisi
If you're a fan of Tony DeVito, you'll love his latest album. – Agar siz Toni DeVitoning muhlisi bo'lsangiz, uning eng so'nggi albo'mi sizga yoqadi.
- ✓ **A game against** - ...ga qarshi o'yin
In a game against a local school I scored four goals. – Mahalliy maktabga qarshi kechgan o'yinda men 4 ta go'l urdim.

UNIT 6. LEARNING AND DOING

Topic vocabulary

- ✓ **Achieve** - erishmoq
We've achieved what we wanted to do. – Qilishni xohlagan narsamizga erishdik.
- ✓ **Brain** - miya
The illness had affected his brain. – Kasallik uning miyasiga ta'sir qilgan edi.
- ✓ **Clever** - aqlli
I'd like to be a doctor, but I'm not clever enough. – Men shifokor bo'lishni istardim, ammo yetarlicha aqlli emasman.
- ✓ **Concentrate** - fikrni jamlamoq
Just concentrate on your work. – Shunchaki fikringizni ishga qarating.
- ✓ **Consider** - diqqat bilan o'ylab ko'rmoq
At one time I seriously considered leaving. – Bir vaqtlar men ketishni jiddiy o'ylab ko'rganman.
- ✓ **Course** - kurs
You could do a language course abroad. – Siz chet elda til kursini o'tashingiz mumkin.
- ✓ **Degree** - kurs, yo'nalish (universitet yoki kollejda)
She's doing a degree at Exeter University. – U Exeter Universitetida (ma'lum bir yo'nalishda) tahsil oladi.
- ✓ **Experience** - sinab ko'rmoq
I'd love to experience being in a submarine. – Men suv osti kemasida bo'lib ko'rishni istardim.
- ✓ **Experience** - tajriba
Do you have any previous experience with children? – Sizda bolalar bilan ishlash bo'yicha tajriba bormi?
- ✓ **Expert** - mutaxassis, ekspert, o'z ishini ustasi
She's a computer expert. – U kompyuter mutaxassisi.
- ✓ **Expert** - usta, mahoratli
He's an expert painter. – U usta rassom.
- ✓ **Fail** - muvaffaqiyatsizlikka uchramoq
He failed the maths exam. – U matematika imtihonidan yiqildi.
- ✓ **Guess** - tahmin qilmoq
Whoever guesses correctly will win two tickets to the show. – Kimda-kim to'g'ri tahmin qilsa, shouga 2 ta chipta yutib oladi.
- ✓ **Guess** - tahmin

Have a guess and then check it on your calculator. – Tahmin qilib ko'ring va so'ng kalkulyatoringizda tekshirib ko'ring.

✓ **Hesitate** - ikkilanmoq

He hesitated for a moment and then knocked on the door. – U biroz muddat ikkilandi va so'ng eshikni taqillatdi.

✓ **Instruction** - ko'rsatma

I tried to follow her instructions, but I got confused. – Uning ko'rsatmalariga amal qilishga harakat qildim, lekin dovdirab qoldim (chalkashib ketdim).

✓ **Make progress** - yaxshilanmoq

My guitar teacher says I'm making a lot of progress. – Gitara o'qituvchining aytishicha, men juda ham yaxshilanyapman.

✓ **Make sure** - ishonch hosil qilmoq

I just wanted to make sure you knew where to go. – Men shunchaki qayerga borish kerakligini bilishingizga ishonch hosil qilishni xohlagandim.

✓ **Mark** - baholamoq

I spent the evening marking essays. – Men oqshomni insholarni baholab o'tkazdim.

✓ **Mark** - baho

What mark did you get for your essay? – Inshoyingiz uchun necha baho oldingiz?

✓ **Mental** - aqliy

Scientists know a lot about the mental development of children. – Olimlar bolalarning aqliy rivojlanishi to'g'risida ko'p narsalarni bilishadi.

✓ **Pass** - imtihondan o'tmoq

She passed her driving test. – U haydovchilik imtihonidan o'tdi.

✓ **Qualification** - tajriba, malaka

Simon left school with no qualifications. – Saymen maktabni hech qanday malakasiz tark etdi.

✓ **Remind** - eslatmoq

Remind Jenny to bring my CD when she comes. – Jeni kelganida mening diskimni olib kelishini eslati.

✓ **Report** - hisobot

We have to write a short report on the conference. – Biz konferensiya to'g'risida kichik bir hisobot yozishimiz kerak.

✓ **Revise** - qaytadan ko'rib chiqmoq, takrorlab chiqmoq

I've got a test tomorrow, so I have to revise tonight. – Ertaga imtihonim bor, shuning uchun bu kecha takrorlashim kerak.

✓ **Search** - qidirmoq

After three days searching, I gave up. – 3 kun izlaganimdan so'ng, taslim bo'ldim (to'xtatdim).

✓ **Search** - qidiruv

The police have carried out an extensive search of the area. – Politsiya hududda keng qamrovli qidiruv ishlarini olib bordi.

✓ **Skill** - mahorat

Being a doctor demands a lot of skill. – Shifokor bo'lish ulkan mahorat talab qiladi.

✓ **Smart** - aqlli

Sophie is a very smart student. – Sofi juda aqlli o'quvchi.

- ✓ **Subject** - fan

What's your favourite subject? – Sevimli faningiz qaysi?

- ✓ **Take an exam** - imtihon topshirmoq

I'm taking the exam in June. – Imtihonni iyunda topshiraman.

- ✓ **Talented** - qobiliyatli

She's a talented singer. – U qobiliyatli qo'shiqchi.

- ✓ **Term** - semester (universitetda), chorak (maktabda)

How many weeks is it till the end of term? – Semester tugashiga necha hafta qoldi?

- ✓ **Wonder** - o'ylamoq, qiziqmoq

I was wondering about the best place for a holiday. – Men dam olish (ta'til) uchun eng yaxshi joy haqida o'ylayotgandim.

Phrasal verbs

- ✓ **Cross out** - biror yozilgan yozuvni ustidan o'chirmoq (x chiziq chizmoq)

Just cross it out and rewrite it correctly. – Shunchaki ustidan iks chizib o'chirib tashlang va to'g'rilab yozing.

- ✓ **Look up** - qidirmoq (asosan, lug'atdan so'z qidirmoq)

I had to look the word up in a dictionary. – So'zni lug'atdan qidirishimga to'g'ri kelib qoldi.

- ✓ **Point out** - ta'kidlamoq

He pointed out that we had two hours of free time before dinner. – U kechki ovqatgacha 2 soat bo'sh vaqtimiz borligini ta'kidlab o'tdi.

- ✓ **Read out** - ovoz chiqarib o'qimoq

He read the list of names out. – U ismlar ro'yxatini ovoz chiqarib o'qidi.

- ✓ **Rip up** - yirtmoq

Rip up this piece of paper when you've finished reading it. – Qog'ozni o'qib tugatganingizda, uni yirtib tashlang.

- ✓ **Rub out** - o'chirmoq (o'chirg'ich bilan)

I can't rub it out because I wrote it in pen. – Buni o'chirg'ich bilan o'chirib tashlolmayman, chunki uni ruchkada yozganman.

- ✓ **Turn over** - o'girmoq

You may turn over your exam papers now. – Imtihon varaqalaringizni o'girishingiz mumkin.

- ✓ **Write down** - yozib olmoq

Do you want to write down my phone number? – Telefon raqamimni yozib olishni istaysizmi?

Prepositional phrases

- ✓ **By heart** - yodlash orqali

I've learnt the song by heart. – Men qo'shiqni yodlab oldim.

- ✓ **For instance** - masalan

Many countries, for instance the UK, don't have identity cards. – Ko'plab davlatlarda, misol uchun Birlashgan Qirollikda, shaxsiy guvohnomalar yo'q.

- ✓ **In conclusion** - xulosa qilib aytganda (nutqni yakunlashdan avval ishlatiladigan bog'lovchi birikma)
In conclusion, I believe that television is a positive invention. – Xulosa qilib aytganda, men televizorni ijobiy ixtiro ekanligiga ishonaman.
- ✓ **In fact** - aslida
Many people think Greece is hot in the winter but, in fact, it sometimes snows. – Ko'plab odamlar o'ylashicha Gretsiya qishda issiq bo'ladi, lekin, aslida, ba'zan qor yog'ib turadi.
- ✓ **In favour (of)** - (ni) tarafida, (ni) qo'llamoq
Are you in favour of school uniforms? – Maktab formalarini ma'qullaysizmi?
- ✓ **In general** - umuman olganda
In general, TV programmes are not educational. – Umuman olganda, teledasturlar tarbiyaviy ahamiyatga ega emas.

Word formation

- ✓ **Begin** - boshlamoq
He always begins his lessons with a warm-up exercise. – U darslarini har doim qizdirib oluvchi mashqlar bilan boshlaydi.
- ✓ **Began** - begin fe'lining o'tgan zamon shakli
The lesson began at ten o'clock. – Dars soat 10 da boshlangan.
- ✓ **Begun** - begin fe'lining past participle shakli
We'd already begun when Sam arrived. – Sem yetib kelganida, biz allaqachon boshlab bo'lgan edik.
- ✓ **Beginner** - boshlovchi
She lost the game, but she is only a beginner. – U o'yinni boy berdi, lekin u endigina boshlang'ich.
- ✓ **Beginning** - boshlanish
I missed the end of the film, but I saw the beginning. – Filmning yakunini o'tkazib yubordim, ammo boshini ko'rdim.
- ✓ **Brave** - jasur
He was as brave as a lion on the rugby field. – U regbi maydonida sher kabi jasur edi.
- ✓ **Bravery** - jasorat
The police officer got an award for bravery. – Politsiya ofitseri jasorati uchun mukofot oldi.
- ✓ **Correct** - to'g'ri
As always, your grandmother is absolutely correct. – Har doimgidek, buvingiz mutlaqo haq (to'g'ri).
- ✓ **Correction** - to'g'rilash
I've made a few corrections to your article. – Maqolangizga bir nechta to'g'rilashlar kiritdim.
- ✓ **Incorrect** - noto'g'ri
I'm afraid that's incorrect. – Bu noto'g'ri deb qo'rqaman.
- ✓ **Divide** - bo'lmoq, taqsimlamoq
I divided the class into four groups. – Men o'quvchilarni 4 guruhga ajratdim.
- ✓ **Division** - bo'lish

I'm good at multiplication, but not division. – Men ko'paytirishda yaxshiman, ammo bo'lishda emas.

- ✓ **Educate** - ta'lim bermok
She was educated in the US. – U Qo'shma Shtatlarda ta'lim olgan.
- ✓ **Education** - ta'lim
Every child should get an education. – Har bir bola ta'lim olishi kerak.
- ✓ **Instruct** - ko'rsatma bermok
I took the pills as instructed. – Men dorilarni ichdim, xuddi ko'rsatma berilganidek.
- ✓ **Instruction** - ko'rsatma
Listen carefully to the instructions before you do the exercise. – Mashqni bajarishdan avval, ko'rsatmalarni diqqat bilan tinglang.
- ✓ **Instructor** - instruktor (ustoz)
She's a driving instructor. – U haydovchilik instruktori.
- ✓ **Memory** - xotira
I have a bad memory for names. – Menda ismlar uchun yomon xotira bor (ismlarni yaxshi eslab qololmayman).
- ✓ **Memorise** - yodlamoq
Do we have to memorise all these irregular verbs? – Bu noto'g'ri fe'llarning barini yodlashimiz shartmi?
- ✓ **Memorial** - haykal, yodgorlik
There's a memorial to Mr Watkins in the school garden. – Maktab bog'ida Janob Votkinsga sharafiga qo'yilgan haykal bor.
- ✓ **Refer** - yuzlanmoq, qarab olmoq
He referred to a history book to find the dates of the French Revolution. – Fransuz Revolyutsiyasi sanalarini topish uchun u tarix kitobiga yuzlandi (qarab oldi).
- ✓ **Reference** - ma'lumotnoma
I'm applying for a job, so could you write me a reference? – Men ishga hujjat topshiryapman, shuning uchun menga ma'lumotnoma yozib bera olasizmi?
- ✓ **Silent** - tinch
We were asked to remain silent for two minutes. – Bizdan 2 daqiqa jim bo'lish so'raldi.
- ✓ **Silence** - tinchlik, jimlik
I want absolute silence in the exam. – Men imtihonda mutloq jimlik bo'lishini xohlayman.
- ✓ **Silently** - tinch holatda, ovoz chiqarmay
The students all worked silently. – O'quvchilar hammasi ovoz chiqarmay ishladilar.
- ✓ **Simple** - sodda
This machine is very simple to use. – Bu mashinani ishlatish juda sodda.
- ✓ **Simplify** - soddalashtirmok
It's very difficult, so I'll simplify it for you. – U juda murakkab, shuning uchun uni siz uchun soddalashtirib beraman.
- ✓ **Simplicity** - soddalik
Simplicity is important in good written communication. – Yaxshi yozma muloqotda soddalik muhimdir.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Capable of** - ...ga qodir
Are you capable of holding your breath under water for two minutes? – Suv ostida nafasingizni ikki daqiqa ushlab turishga qodirmisiz?
- ✓ **Talented at** - ...borasida qobiliyatli
Cilla is really talented at singing. – Sila qo'shiq kuylash borasida qobiliyatli.

verbs

- ✓ **Cheat at/in** - ...da aldamoq / g'irromlik qilmoq
*You should never cheat at cards. – Hech qachon karta o'yinida g'irromlik qilmasligingiz kerak.
You didn't cheat in the exam, did you? – Imtihonda g'irromlik qilmadingiz, shundaymi?*
- ✓ **Confuse sth with** - ...bilan chalkashtirmoq / adashtirmoq
I think you've confused me with someone else. – Menimcha, meni boshqa birov bilan adashtirdingiz.
- ✓ **Continue with** - ...ni davom ettirmoq
Continue with your work and I'll be back in a moment. – Ishingizda davom eting, men bir zumda qaytaman.
- ✓ **Cope with** - uddalamoq
I can't cope with all this homework! – Bu uy vazifalarining hammasini uddalay olmayman!
- ✓ **Help (sb) with** - ...bilan yordam bermoq
Can I help you with that? – Bu borada sizga yordam bera olamanmi?
- ✓ **Know about** - ...haqida bilmoq
Do you know anything about astronomy? – Astronomiya haqida nimadir bilasizmi?
- ✓ **Learn about** - ...haqida o'rganmoq
We're learning about dinosaurs at school at the moment. – Ayni damda maktabda dinozavrlar haqida o'rganyapmiz.
- ✓ **Succeed in** - ...da muvaffaqiyat qozonmoq, qila olmoq
I really hope you succeed in all your exams. – Barcha imtihonlaringizda muvaffaqiyat qozonasiz deb umid qilaman.

nouns

- ✓ **An opinion about/of** - ...haqida fikr
What's your opinion about/of classical music? – Mumtoz musiqa to'g'risida fikringiz qanday?
- ✓ **A question about** - ...haqida savol
Can I ask you a question about the maths test? – Matematika testi haqida savol so'rasam maylimi?

UNIT 9. COMING AND GOING

Topic vocabulary

- ✓ **Abroad** - chet elda, chet elga

We try to go abroad at least once a year. – Biz yiliga eng kamida bir marta chet elga borishga harakat qilamiz.

✓ **Accommodation** - turar joy

The hotel provides accommodation for up to 100 people. – Mehmonxona 100 tagacha odamni turar joy bilan ta'minlaydi.

✓ **Book** - buyurtma qilmoq, bron (band) qilib qo'yimoq

Shall I book a room for you? – Siz uchun xona band qilib qo'yaymi?

✓ **Break** - tanaffus

OK, let's take a fifteen-minute break. – Okey, keling 15 daqiqalik tanaffus qilamiz.

✓ **Cancel** - bekor qilmoq

The 4.05 train has been cancelled. – 4.05 dagi poyezd bekor qilindi.

✓ **Catch** - (avtobus, taksi) tutmoq, (avtobus, taksi) ga chiqmoq

I caught the next train to London. – Men Londonga ketayotgan keyingi poyezdga chiqdim.

✓ **Coach** - turistik avtobus

Let's take the coach to Brighton this weekend. – Keling bu dam olish kunida Braytnga turistik avtobusda sayohat qilamiz.

✓ **Convenient** - qulay

Travelling underground is fast and convenient. – Metro orqali borish tez va qulay.

✓ **Crash** - avariya uchramoq

Three people were killed when their car crashed into a tree. – Mashinalari daraxtga urilgan paytda, 3 kishi o'ldi.

✓ **Crash** - avariya

He was seriously injured in a car crash. – U avtohalokatda jiddiy jarohat oldi.

✓ **Crowded** - tiqilinch

Was the pool crowded? – Basseyn tiqilinchmide? (=Basseyndam odam ko'pmide?)

✓ **Cruise** - dengiz sayohati

I would love to go on a cruise round the Mediterranean. – Men O'rta Yer dengizi bo'ylab dengiz sayohatiga chiqishni istardim.

✓ **Delay** - kechiktirmoq

They delayed the decision for as long as possible. – Ular qarorni iloji boricha uzoqroq vaqtga kechiktirishdi (=Bir qaror qabul qilishmadi).

✓ **Delay** - kechikish, kuttirish

After a long delay, the plane finally took off. – Uzoq kechikishdan so'ng, samalyot nihoyat havoga ko'tarildi.

✓ **Destination** - manzil

After eight hours on the road, we finally reached our destination. – 8 soat yo'lda yurgandan so'ng, biz nihoyat manzilimizga yetib bordik.

✓ **Ferry** - sol, eshakli qayiq

They took the ferry to Dover. – Ular Doverga ketadigan qayiqqa chiqishdi.

✓ **Flight** - uchish, parvoz

The flight from New York to Heathrow took about five hours. – Nyu Yorkdan Hizrovga bo'lgan parvoz 5 soat oldi (5 soat davom etdi).

- ✓ **Foreign** - chet elga tegishli
Do you speak any foreign languages? – Qandaydir chet tilida gaplasha olasizmi?
- ✓ **Harbour** - bandargoh, port
There were about twenty boats in the harbour. – Bandargohda taxminan 20 ta qayiq bor edi.
- ✓ **Journey** - sayohat
We had a long journey ahead of us. – Oldinda bizni uzoq sayohat kutib turardi.
- ✓ **Luggage** - bagaj, yuk
We have to get our luggage when we get off the plane. – Samalyotdan tushganimizda yuklarimizni olishimiz kerak.
- ✓ **Nearby** - yaqin atrofdagi
Let's go to a nearby restaurant, shall we? – Yaqin atrofdagi restoranga boramizmi?
- ✓ **Nearby** - yaqin atrofda
My cousin lives nearby. – Mening qarindoshim shu yaqin atrofda yashaydi.
- ✓ **Pack** - joylamoq
He was still packing his suitcase when the taxi came. – Taksi kelganda, u hamon chamadonini yig'ishtirib o'tirgan edi (chamadoniga kiyimlarini joylab).
- ✓ **Passport** - pasport
Bill has a Canadian passport. – Bilda Kanada pasporti bor.
- ✓ **Platform** - platforma (poyezd vokzalida)
The train to Brussels will depart from platform 3. – Braselsga ketayotgan poyezd 3-platformadan jo'naydi.
- ✓ **Public transport** - jamoat transporti
Auckland's public transport system is excellent. – Oklend shahrining jamoat transport tizimi a'lo darajada.
- ✓ **Reach** - yetib bormoq
We hoped to reach the camp before dark. – Lagerga qorong'u tushishdan avval yetib borishga umid qilgandik.
- ✓ **Resort** - oromgoh, kurort
We stayed in a lovely ski resort. – Biz ajoyib chang'i kurortida tunadik.
- ✓ **Souvenir** - suviner
This T-shirt with Big Ben on it will make a great souvenir. – Big Ben tasvirlangan bu futbolka ajoyib suviner bo'ladi.
- ✓ **Traffic** - yo'l harakati, transport vositalari, transport qatnovi
At that time of night, there was no traffic on the roads. – Tuning o'sha paytida, yo'llarda hech qanday transport qatnovi yo'q edi.
- ✓ **Trip** - sayohat
The whole family went on a trip to Florida. – Butun oila Floridaga sayohatga ketishdi.
- ✓ **Vehicle** - transport, avtomobil
Four vehicles were involved in the accident. – Avariyada 4 ta transport vositasi qatnashgan.

Phrasal verbs

- ✓ **Get in(to)** - mashinaga minmoq
I hurt my head as I was getting into the car. – Mashinaga o'tiryotgan paytimda, boshimni urib oldim.
- ✓ **Get off** - avtobus/poyezd/samalyot/velosiped/mototsikldan tushmoq
You need to get off the bus opposite the supermarket. – Supermarketning qarshisida avtobusdan tushib qolishingiz kerak.
- ✓ **Get on(to)** - avtobus/poyezd/samalyot/velosiped/mototsiklga chiqmoq
You can buy a ticket when you get on the bus. – Avtobusga chiqqaningizda chipta sotib olishingiz mumkin.
- ✓ **Get out (of)** - mashinadan tushmoq, binodan/xonadan chiqmoq
Quick! Get out of the car! – Shoshiling! Mashinadan tushing!
- ✓ **Go away** - biror joyni tashlab ketmoq yoki odamni
Why don't you just go away and leave me alone? – Shunchaki keting, meni tinch qo'ying.
- ✓ **Go back (to)** - (ga) qaytib bormoq
I can't wait to go back to Italy. – Italiyaga qaytishga sabrim chidamayapti.
- ✓ **Set off** - sayohatni boshlamoq, yo'lga chiqmoq
Go to sleep because we're setting off early in the morning. – Uxlang, chunki ertalab vaqtlı yo'lga chiqamiz.
- ✓ **Take off** - havoga ko'tarilmoq (samalyotga nisbatan)
Let's go and watch the planes taking off while we wait. – Keling, borib kutishimiz davomida samalyotlarni havoga ko'tarilishini tomosha qilamiz.

Prepositional phrases

- ✓ **By air/sea/bus/car** - havo/dengiz/avtobus/mashina orqali
The best way to get there is by bus. – U yerga borishning eng yaxshi yo'li avtobus orqali.
- ✓ **On board** - kema, samalyot bo'rtida
The ship left as soon as all the passengers were on board. – Hamma yo'lovchilar kema bo'rtiga chiqib bo'lishlari bilanoq, kema jo'nadi.
- ✓ **On foot** - piyoda
Can we go from the hotel to the beach on foot, or is it better to take a bus? – Mehmonxonadan plyajgacha piyoda bora olamizmi yoki avtobusga chiqqan yaxshiroqmi?
- ✓ **On holiday** - ta'tilda
Isn't it great to finally be on holiday? – Va nihoyat ta'tilga chiqish ajoyib-a?
- ✓ **On schedule** - jadvalda keltirilganidek, o'z vaqtida
Our train arrived on schedule. – Poyezdimiz o'z vaqtida yetib keldi.
- ✓ **On the coast** - qirg'oqda
We used to live on the coast. – Biz avvallari qirg'oq bo'yida yashar edik.

Word formation

- ✓ **Attract** - maftun qilmoq, jalb etmoq

The exhibition has attracted thousands of visitors. – Ko'rgazma minglab tashrif buyuruvchilarni jalb qildi.

- ✓ **Attractive** - maftunkor, jozibador

The south of England is really attractive at this time of year. – Angliyaning janubi yilning ushbu vaqtida juda maftunkor bo'ladi.

- ✓ **Attraction** - diqqatga sazovor joy, markaz

The old castle is probably the most popular attraction in this area. – Qadimgi qal'a, ehtimol, bu hududdagi eng mashhur diqqatga sazovor joydir.

- ✓ **Back** - orqa

My phone's in my back pocket. – Telefonim orqa cho'ntagimda.

- ✓ **Backwards** - orqaga

Have you tried running backwards? – Orqaga yugurishga sinab ko'rganmisiz hech?

- ✓ **Choose** - tanlamoq

She had to choose between staying in the UK or going home. – U Birlashgan Qirollikda qolish yoki uyga ketishdan birini tanlashga majbur bo'ldi.

- ✓ **Chose** - choose fe'lining o'tgan zamon shakli

Sylvia finally chose chocolate ice cream. – Silvia oxir-oqibat shokoladli muzqaymoqni tanladi.

- ✓ **Chosen** - choose fe'lining past participle shakli

Take the book you have chosen and get it stamped by the librarian. – Tanlagan kitobingizni oling, va kutubxonachiga muhr urdiring.

- ✓ **Choice** - tanlash imkoniyati

You have a choice—you can either have strawberry or chocolate ice cream. – Sizda tanlash imkoniyati bor—yoki qulupnayli yoki shokoladli muzqaymoq olishingiz mumkin.

- ✓ **Comfort** - qulaylik

I didn't want to leave the comfort of my bed. – Men yotog'imning qulayligini tark etgim kelmadi (=o'rnimdan turishni xohlamadim).

- ✓ **Comfortable** - qulay

That sofa looks very comfortable, doesn't it? – Bu divan juda qulay ko'rinadi, shunday emasmi?

- ✓ **Uncomfortable** - noqulay

After four hours on the plane, I was beginning to feel uncomfortable. – Samalyotda 4 soat bo'lganimdan keyin, men o'zimni noqulay his qila boshladim.

- ✓ **Depart** - jo'nab ketmoq

He departs for New York tomorrow morning. – U Nyu Yorkga ertaga ertalab jo'naydi.

- ✓ **Departure** - jo'nash

British Airways announces the departure of flight BA 632 to Moscow. – Britaniya Havo Yo'llari aviakompaniyasi BA 632 reysi Moskvaga jo'nab ketganini e'lon qiladi.

- ✓ **Direct** - yo'l ko'rsatmoq

Could you direct me to the station? – Menga stantsiyaga yo'lni ko'rsatib yubora olasizmi?

- ✓ **Direction** - yo'nalish

Which direction did he go in? – U qaysi yo'nalishda ketdi?

- ✓ **Drive** - mashina haydamoq

Don't drive so fast! – Bunchalik tez haydamang!

- ✓ **Drove** - drive fe'lining o'tgan zamon shakli
I can't believe you drove all the way to Paris. – Parijga butun yo'lni mashinada bosib o'tganingizga ishonolmayman.
- ✓ **Driven** - drive fe'lining past participle shakli
Can electric cars be driven on the roads in the UK? – Elektromobillar Birlashgan Qirollik ko'chalarida haydala oladimi?
- ✓ **Driver** - haydovchi
I asked the taxi driver to slow down. – Taksi haydovchisidan tezlikni pasaytirishini so'radim.
- ✓ **Fly** - uchmoq
Penguins can't fly. – Pingvinlar ucha olishmaydi.
- ✓ **Flew** - fly fe'lining o'tgan zamon shakli
A bird flew past the window. – Bir qush oyna oldidan uchib o'tdi.
- ✓ **Flown** - fly fe'lining past participle shakli
Have you ever flown in such a small plane? – Bunday kichik samalyotda hech uchganmisiz?
- ✓ **Flight** - uchish, parvoz
Our flight leaves at three in the morning. – Parvozimiz tonggi soat 3 da jo'naydi.
- ✓ **Travel** - sayohat qilmoq
I travel abroad a lot. – Men chet elga ko'p sayohat qilaman.
- ✓ **Traveller** - sayohatchi
If you're an experienced traveller, you'll know how important it is to be organized. – Agar siz tajribali sayohatchi bo'lsangiz, tartibli bo'lish qanchalar muhimligini bilasiz.
- ✓ **Visit** - tashrif buyurmoq
My parents are coming to visit me next week. – Mening ota-onam keyingi hafta menikiga tashrif buyurishadi.
- ✓ **Visitor** - tashrif buyuruvchi, mehmon
The zoo has about 250,000 visitors a year. – Zopark bir yilda taxminan 250,000 tashrif buyuvchiga ega.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Close to** - ...ga yaqin
The Town Hall is quite close to my house. – Shahar Hokimiyati mening uyimga juda yaqin.
- ✓ **Famous for** - ...bilan mashhur
This area is famous for cheese and pasta. – Bu hudud pishloq va makaron mahsulotlari bilan mashhur.
- ✓ **Far from** - ...dan uzoq
Is the cinema far from here? – Kinoteatr bu yerdan uzoqmi?
- ✓ **Late for** - ...uchun kechikmoq
Hurry up or we'll be late for school. – Shoshiling, aks holda maktabga kech qolamiz.
- ✓ **Suitable for** - uchun mos

This film is not suitable for children under the age of 15. – Bu film 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar uchun mos emas.

verbs

- ✓ **Arrive at** - ...ga yetib bormoq/kelmoq (asosan yopiq binolarga: aeroport, vokzal)
Let's have dinner as soon as we arrive at the hotel. – Keling, mehmonxonaga yetib borishimiz bilanoq kechki ovqatni yeymiz.
- ✓ **Arrive in** - ...ga yetib bormoq/kelmoq (asosan, shahar/davlatlarga)
I hope it's not raining when we arrive in Manchester. – Umid qilamanki, Manchesterga yetib borganimizda yomg'ir yog'mayotgan bo'ladi.
- ✓ **Ask sb about** - kimdandir ...haqida so'ramoq
Why don't you ask your dad about the party? – 1) Nega dadangizdan bazm to'g'risida so'ramaysiz? 2) Dadangizdan bazm to'g'risida so'rab ko'ring.
- ✓ **Ask for** - biror narsa so'ramoq
Ed asked for a pencil, so I lent him one. – Ed qalam so'radi, shuning uchun unga bitta qalam berib turdim.
- ✓ **Look at** - ...ga qaramoq
What are those people looking at? – Bu odamlar nimaga qarashyapti?
- ✓ **Prepare for** - ...uchun tayyorlanmoq
How do you prepare for a big match? – Siz katta o'yinga qanday qilib tayyorlanasiz?
- ✓ **Provide sb with** - kimnidur ...bilan ta'minlamoq
The college provides all the students with books. – Kollej barcha o'quvchilarni kitob bilan ta'minlaydi.
- ✓ **Wait for** - ...ni kutmoq
Are you waiting for a taxi? – Taksi kutayapsizmi?

UNIT 12. FRIENDS AND RELATIONS

Topic vocabulary

- ✓ **Apologise** - kechirim so'ramoq
You should apologise to your brother. – Akangizdan kechirim so'rashingiz kerak.
- ✓ **Boyfriend** - qizning yoqtirgan yigiti
She's got a new boyfriend. – Uning yangi yigiti bor.
- ✓ **Close** - yaqin
My brother and I are very close. – Akam bilan men juda yaqinmiz.
- ✓ **Confident** - o'ziga ishongan, dadil
I was starting to feel more confident about the exam. – Imtihonga nisbatan o'zimni yanada dadil his qila boshladim.
- ✓ **Cool** - zo'r, ajoyib
Jake is really cool! – Jake juda ham ajoyib!
- ✓ **Couple** - juftlik, sevimli juftlik
Bill and Melissa make a great couple. – Bil va Melisa juda zo'r juftlik bo'lishadi.
- ✓ **Decorate** - bezatmoq

We decorated the kitchen last weekend. – O'tgan hafta biz oshxonani bezatdik.

- ✓ **Defend** - himoya qilmoq

We will defend their right to free speech. – Biz ularning so'z erkinligi huquqini himoya qilamiz.

- ✓ **Divorced** - ajrashgan

After they got divorced, she never remarried. – Ular ajrashishgandan so'ng, u hech qachon qayta turmush qurmadi.

- ✓ **Flat** - kvartira, do'm

The family live in a fourth-floor flat. – Oila to'rtinchi qavatdagi kvartirada yashaydi.

- ✓ **Generous** - sahiy va mehribon

She is a warm and generous human being. – U samimiy va sahiy inson.

- ✓ **Girlfriend** - yigitning yoqtirgan qizi

Have you got a girlfriend? – Uchrashib yuradigan yoqtirgan qizingiz bormi?

- ✓ **Grateful** - minnatdor

Thanks for coming with me. I'm really grateful. – Men bilan birga kelganingiz uchun rahmat. Juda ham minnatdorman.

- ✓ **Guest** - mehmon

He was a guest at our wedding. – U to'yimizda mehmon bo'ldi.

- ✓ **Independent** - mustaqil

Michelle is young, independent and confident. – Mishel yosh, mustaqil va dadil.

- ✓ **Introduce** - tanishtirmoq

I'd like to introduce you to my friend Martin. – Sizni do'stim Martinga tanishtirmoqchiman.

- ✓ **Loving** - suyukli, mehribon

Cats are really loving animals. – Mushuklar juda mehribon hayvonlardir.

- ✓ **Loyal** - vafodor, sodiq

These are people who have remained loyal to the company for years. – Bular kompaniyaga uzoq yillardan beri sodiq qolib kelayotgan odamlar.

- ✓ **Mood** - kayfiyat

I had never seen Ann in such a good mood before. – Men Anni avval hech qachon bunchalar yaxshi kayfiyatda ko'rmagandim.

- ✓ **Neighbourhood** - mahalla

We live in a quiet neighbourhood. – Biz tinch mahallada yashaymiz.

- ✓ **Ordinary** - odatiy

It was just an ordinary Saturday morning. – U shunchaki odatiy bir shanba tongi edi.

- ✓ **Patient** - sabrli

Susan is very patient with the children. – Syusen bu bolalar bilan juda sabrli.

- ✓ **Private** - shaxsiy hayoti yoki tuyg'ulari to'g'risida gapirmaydigan

Damian is a very private person. – Demiyen shaxsiy hayoti yoki tuyg'ulari to'g'risida gapirmaydigan inson.

- ✓ **Recognise** - tanimoq

I thought I recognised your voice! – Ovozingizni tanidim deb o'ylagandim!

- ✓ **Relation** - qarindosh

All our relations are coming to the party. – Bizning hamma qarindoshlarimiz bazmga kelishadi.

- ✓ **Rent** - ijaraga olmoq
How long have you been renting this place? – Bu yerda qancha vaqtdan beri ijaradasiz?
- ✓ **Rent** - ijara puli
After she'd paid her rent, Jan had no money left for food. – Ijara pulini to'laganidan so'ng, Jenning ovqat uchun hech qanday puli qolmadi.
- ✓ **Respect** - hurmat qilmoq
People will respect you for telling the truth. – Odamlar haqiqatni gapirganingiz uchun hurmat qilishadi.
- ✓ **Respect** - hurmat
She's worked hard to gain the respect of her colleagues. – U hamkasblarining hurmatini qozonish uchun qattiq harakat qildi.
- ✓ **Single** - yakka, turmush qurmagan
Please state whether you are single, married, or divorced. – Iltimos, turmush qurmagan, qurgan yoki ajrashganligingizni bildiring.
- ✓ **Stranger** - notanish, begona
I didn't want to share a room with a complete stranger. – Men umuman notanish kimsa bilan bir xonada turishni xohlamadim.
- ✓ **Trust** - ishonmoq
You can trust Dana. – Danaga ishonsangiz bo'ladi.
- ✓ **Trust** - ishonch
The doctor-patient relationship has to be based on trust. – Shifokor va bemor o'rtasidagi aloqa ishonchga asoslangan bo'lishi kerak.

Phrasal verbs

- ✓ **Bring up** - voyaga yetkazmoq, katta qilmoq
She brought up three sons on her own. – U bir o'zi 3 o'g'ilni voyaga yetkazdi.
- ✓ **Fall out (with)** - tortishib qolmoq
Have you two fallen out? – Ikkovingiz tortishib qoldingizmi?
- ✓ **Get on (with)** - (bilan) yaxshi aloqada bo'lmoq
She seems to get on with everybody. – U hamma bilan yaxshi aloqadaga o'xshaydi.
- ✓ **Go out with** - ning sevgan qizi/yigiti bo'lmoq
Greg used to go out with Katy. – Greg avvallari Keytining yigiti edi.
- ✓ **Grow up** - o'smoq (katta bo'lmoq), ulg'aymoq
He rarely saw his father while he was growing up. – U ulg'ayayotgan davrida otasini deyarli ko'rmas edi.
- ✓ **Let down** - ko'ngilni qoldirmoq
You've really let me down. – Meni judayam ko'nglimni qoldirdingiz (xafa qildingiz).
- ✓ **Look after** - g'amxo'rlik qilmoq
It's hard work looking after three children all day. – Kuni bo'yi 3 bolaga qarash juda mushkul ish.
- ✓ **Split up** - ajralmoq, munosabatlarni tugatmoq

Tommy and Liz have just split up. It's very sad! – To'mi va Liz hozirgina munosabatlarga nuqta qo'yishdi. Bu juda achinarli!

Prepositional phrases

- ✓ **By yourself** - bir o'zi
Did you go to the cinema by yourself? – Kinoga bir o'zingiz bordingizmi?
- ✓ **In common (with)** - (bilan) o'xshash tomoni bo'lmoq
I've got nothing in common with you! – Siz bilan hech qanday o'xshash jihatimiz yo'q!
- ✓ **In contact (with)** - (bilan) aloqada
I'm still in contact with several friends from school. – Men hali hanuz maktabdagi bir nechta do'stlarim bilan aloqadaman.
- ✓ **In love (with)** - bilan ishqiy munosabatda
I'm in love with Chris. – Men Krisni sevaman.
- ✓ **On purpose** - ataylab
I didn't do it on purpose. – Men buni ataylab qilganim yo'q.
- ✓ **On your own** - bir o'zi
Did you go to the cinema on your own? – Kinoga bir o'zingiz bordingizmi?

Word formation

- ✓ **Able** - ga qodir
You must be able to speak French for this job. – Bu ish uchun siz fransuzcha gapirishga qodir bo'lishingiz kerak.
- ✓ **Ability** - qobiliyat
I admire your ability to speak so many different languages. – Men sizning juda ko'p turli tillarda gapira olish qobiliyatingizni hurmat qilaman.
- ✓ **Disabled** - nogiron, majruh
Lots of disabled people have jobs. – Ko'plab nogiron insonlarning ishlari bor.
- ✓ **Unable** - ga qodir emas
I'm unable to attend the meeting tomorrow. – Men ertaga majlisga qatnashishga qodir emasman.
- ✓ **Admire** - hurmat qilmoq
I really admire her courage. – Men uning jasoratini juda hurmat qilaman.
- ✓ **Admiration** - hurmat
I'm full of admiration for Jamie. – Mening Jeymiga hurmatim baland.
- ✓ **Care** - e'tibor bermoq
I don't really care about how much it costs. – Men uning necha pul turishi haqida qayg'urmayman. (=Menga narxining qizig'i yo'q, farqi yo'q)
- ✓ **Careful** - e'tiborli, ehtiyotkor
Be careful! – E'tiborli bo'ling!
- ✓ **Careless** - e'tiborsiz

I made a lot of silly mistakes because I was careless. – E'tiborsiz bo'lganim uchun, juda ko'p ahmoqona xatolarga yo'l qo'ydim.

- ✓ **Confident** - o'ziga ishongan, ishonchi komil
I'm confident that you will get the job. – Ishonchim komilki siz ishni olasiz.
- ✓ **Confidence** - o'ziga nisbatan ishonch
You need confidence to perform in public. – Omma oldida chiqish qilish uchun sizda o'zingizga nisbatan ishonch bo'lishi kerak.
- ✓ **Forgive** - kechirmoq
We all have to learn to forgive. – Biz barchamiz kechirishni o'rganishimiz kerak.
- ✓ **Forgave** - forgive ning past simple shakli
Colin apologized, so I forgave him. – Koulin kechirim so'radi, shuning uchun uni kechirdim.
- ✓ **Forgiven** - forgive ning past participle shakli
I've forgiven you. – Men sizni kechirganman.
- ✓ **Forgiveness** - kechirish
I'm asking for your forgiveness. – Kechirishingizni so'rayapman.
- ✓ **Honest** - halol, vijdonli, to'g'riso'z
They were honest and hard-working people. – Ular halol va mehnatkash odamlar edi.
- ✓ **Dishonest** - vijdotsiz
I don't like people who are dishonest. – Vijdotsiz odamlar menga yoqmaydi.
- ✓ **Honesty** - rostgo'ylik, vijdonlilik
Honesty is a very important quality in a friend. – Rostgo'ylik - bu do'stda bo'lishi kerak bo'lgan juda muhim sifatdir.
- ✓ **Introduce** - tanishtirmoq
Allow me to introduce my mother. – Onamni tanishtirishga ruxsat bering.
- ✓ **Introduction** - kirish; tanishtiruv
I didn't read the introduction to the book. – Men kitobning "Kirish" qismini o'qimadim.
- ✓ **Lie** - yolg'on gapirmoq
Don't lie to me! – Menga yolg'on gapirmang!
- ✓ **Liar** - yolg'onchi
You're a liar! – Siz yolg'onchisiz!
- ✓ **Lying** - yolg'on gapirish
Lying to your friends is very bad. – Do'stlarga yolg'on gapirish juda yomon.
- ✓ **Person** - odam
She's the only person I can talk to about my problems. – U men muammolarim haqida gapira oladigan yagona inson.
- ✓ **Personality** - shaxsiyat, xarakter
Fiona has got a great personality. – Fiona ajoyib xarakterga ega.
- ✓ **Personal** - shaxsiy
I've got a few personal problems to sort out. – Hal qilishim kerak bo'lgan bir nechta shaxsiy muammolarim bor.
- ✓ **Relate** - ga bog'lamoq

The second paragraph relates to the situation in Scotland. – Ikkinchi paragraf Shotlandiyadagi holatga bog'langan.

- ✓ **Relative** - qarindosh

Are all your relatives coming to the wedding? – Hamma qarindoshingiz to'yga kelishadimi?

- ✓ **Relation** - qarindosh

Are all your relations coming to the wedding? – Hamma qarindoshingiz to'yga kelishadimi?

- ✓ **Relationship** - aloqa, munosabat

I have a great relationship with all my teachers. – Hamma ustozlarim bilan yaxshi aloqam bor.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Fond of** - ...ni juda ham yoqtiradigan

I'm really fond of my dog! – Men itimni juda yaxshi ko'raman!

- ✓ **Jealous of** - ...ga hasad qilgan

I'm jealous of Katy because she always has such nice clothes. – Men Keytiga hasad qilaman, chunki uning har doim shunaqangi chiroyli kiyimlari bor.

- ✓ **Kind to** - ...ga yaxshi munosabatda bo'lgan

You've been very kind to me. Thank you! – Menga juda yaxshi munosabatda bo'ldingiz. Rahmat sizga!

- ✓ **Married to** - ...ga uylangan yoki turmushga chiqqan

My brother is married to a woman called Margo. – Akam Margo ismli ayolga uylangan.

- ✓ **Proud of** - ...dan faxrlangan

I'm sure your parents are very proud of you. – Ishonchim komil, ota-onangiz sizdan juda faxrlanishadi.

verbs

- ✓ **Admire sb for** - kimnidir ...uchun hurmat qilmoq

I really admire you for everything you've achieved. – Erishgan hamma narsangiz uchun hurmat qilaman sizni.

- ✓ **Apologise (to sb) for** - kimdandir ...uchun kechirim so'ramoq

Simon apologised to me for losing my pen. – Saymen ruchkamni yo'qotib qo'ygani uchun kechirim so'radi.

- ✓ **Argue (with sb) about** - kimdir bilan ...haqida tortishmoq

I don't want to argue with you about something so unimportant! – Men siz bilan bunaqangi ahamiyatsiz narsa ustida janjallashishni xohlamayman!

- ✓ **Care about** - ...haqida qayg'urmoq

Everyone should care about protecting the environment. – Atrof-muhitni himoya qilish to'g'risida hamma qayg'urishi kerak.

- ✓ **Chat (to sb) about** - kimdir bilan ...haqida suhbatlashmoq

Mom told me she would chat to Mrs Peters about my marks. – Oyim aytdilarki, ular baholarim to'g'risida Piters Xonim bilan suhbatlashar ekanlar.

nouns

- ✓ **An argument (with sb) about** - kimdir bilan ...haqida bahs, tortishuv
I had an argument with my dad about how much pocket money I get. – Oladigan cho'ntak pulimning miqdori ustida dadam bilan tortishib qoldim.
- ✓ **Relationship with** - ...bilan munosabat
Do you have a good relationship with your parents? – Ota-onangiz bilan yaxshi munosabatdamisiz?

UNIT 15. BUYING AND SELLING

Topic vocabulary

- ✓ **Advertisement** - reklama
I saw an advertisement for a new kind of camera. – Men yangi turdagi kameraning reklamasini ko'rdim.
- ✓ **Afford** - puli yetmoq
I'm not sure how they're able to afford such expensive holidays. – Bunaqangi qimmat dam olishlarga qanday qilib pullari yetishini bilmayman.
- ✓ **Bargain** - arzonroqqa sotib olingan narsa
Her dress was a real bargain. – Uning ko'ylagi haqiqiy chegirmadagi mahsulot edi.
- ✓ **Brand** - brend
I tried using a new brand of soap. – Yangi brenddagi sovunni ishlatib ko'rdim. (Misol uchun, "Dove" sovun brendidan "Fabienne" brendiga o'tdim)
- ✓ **Catalogue** - katalog
Do you have a catalogue with all your products in it? – Hamma mahsulotingizni o'z ichiga jamlagan katalogingiz bormi?
- ✓ **Change** - mayda pul, tangalar
I'm sorry, I haven't got any change. – Uzi, lekin tangam yo'q edi.
- ✓ **Coin** - tanga
Put a coin into the slot. – Tirqishga tanga soling.
- ✓ **Cost** - (narxga nisbatan) turmoq
A new computer costs around €1,000. – Yangi kompyuter taxminan 1,000 yevro turadi.
- ✓ **Cost** - narx
What's the total cost of these three pairs of shoes? – Mana bu 3 juft oyoq kiyimning umumiy narxi qancha?
- ✓ **Customer** - xaridor
Supermarkets use a variety of ways to attract customers. – Xaridorlarni jalb qilish uchun supermarketlar turli-tuman yo'llardan foydalanishadi.
- ✓ **Debt** - qarz
By this time we had debts of over €15,000. – Bu paytgacha, 15,000 yevrodan ziyod qarzimiz bor edi.
- ✓ **Demand** - talab qilmoq
The teacher demanded an explanation for all the water on the floor. – O'qituvchi poldagi suv uchun izoh talab qildi.

- ✓ **Export** - eksport qilmoq, boshqa davlatga sotmoq
Their flowers are exported around the world. – Ularning gullari dunyo bo'ylab eksport qilinadi.
- ✓ **Fee** - haq, to'lov
He will have to pay school fees of €2,000. – U 2,000 yevro maktab haqini to'lashiga to'g'ri keladi.
- ✓ **Fortune** - katta miqdordagi pul
They must have spent a fortune on flowers. – Gullar uchun ancha ko'p pul sarflashgan bo'lishsa kerak.
- ✓ **Import** - import qilmoq
We import most of our coal from other countries. – Ko'mirning katta qismini boshqa davlatlardan import qilamiz.
- ✓ **Invest** - pul kiritmoq, sarmoya kiritmoq
Banks invested €20 million in the scheme. – Banklar ushbu loyihaga 20 million yevro sarmoya kiritishgan.
- ✓ **Obtain** - olmoq, erishmoq
She has to obtain her father's permission before she does anything. – Qandaydir ish qilishdan avval, u otasining ijozatini olishiga to'g'ri keladi.
- ✓ **Owe** - qarz bo'lmoq
Pam still owes me €5. – Pem haliyam mendan 5 yevro qarz.
- ✓ **Own** - ega bo'lmoq
Who owns that house by the lake? – Ko'l bo'yidagi uyga kim egalik qiladi?
- ✓ **Profit** - foyda
Investors have made a 14 per cent profit in just three months. – Sarmoyachilar bor yo'g'i 3 oyda 14% foyda ko'rdilar.
- ✓ **Property** - mol-mulk
The books are my personal property. – Kitoblar mening shaxsiy mulkim.
- ✓ **Purchase** - sotib olmoq
She purchased a new lamp for her bedroom. – U yotoqxonasi uchun yangi lampa sotib oldi.
- ✓ **Receipt** - kvitansiya, chek
Make sure you get a receipt for the taxi. – Taksi uchun chekni olishni unutmang.
- ✓ **Require** - talab qilmoq
Working with these children requires a great deal of patience. – Bu bolalar bilan ishlash ulkan sabr-matонат talab qiladi.
- ✓ **Sale** - chegirma, aksiya
The Easter sales start tomorrow. – Pasxa bayrami chegirmalari ertaga boshlanadi.
- ✓ **Save** - saqlamoq
Don't wait until you're 40 to start saving for retirement. – Nafaqa payti uchun pul jamg'arishni 40 yoshga to'lgunga qadar kutmang.
- ✓ **Select** - tanlamoq
You can select one of four colours. – 4 ta rangdan birini tanlashingiz mumkin.
- ✓ **Supply** - ta'minlamoq
Our shop supplies things to people all over the country. – Bizning do'konimiz butun mamlakat bo'ylab odamlarga narsalar ta'minlaydi.

- ✓ **Supply** - ta'minot, zaxira
We have a good supply of fresh water here. – Bu yerda toza suvning katta ta'minoti bor.
- ✓ **Variety** - turli-tuman, har xil
Adults study for a variety of reasons. – Kattalar turli-tuman sabablarga ko'ra o'qishadi.
- ✓ **Waste** - isrof qilmoq
Don't waste water like that–turn the tap off when you're not using it! – Suvni bunaqangi isrof qilmang–ishlatmayotganizgizda jo'mrakni o'chirib qo'ying!
- ✓ **Waste** - isrofgarchilik
All this uneaten food–what a waste! – Bu yeyilmagan ovqatlarning bari–qanchalar isrofgarchilika!

Phrasal verbs

- ✓ **Add up** - jamini hisoblamoq
The shop assistant added up what I'd bought and told me the total. – Sotuvchi sotib olgan narsalarimni jamini hisobladi va menga to'liq narxni aytdi.
- ✓ **Come back (from)** - (dan) qaytib kelmoq
Give me a call when you come back from Greece. – Gretsiyadan qaytib kelganingizda, menga qo'ng'iroq qiling.
- ✓ **Give away** - bepul berib yubormoq
They're giving away free tickets at the cinema! – Kinoteatrda bepul chiptalar berishyapti!
- ✓ **Hurry up** - shoshilmoq
We haven't got much time, so hurry up! – Ko'p vaqtimiz yo'q, shunday ekan shoshiling!
- ✓ **Pay back** - pulni qaytarmoq
Did you pay Denise back? – Denisga pulni qaytardingizmi? (Qarzingizni to'ladingizmi?)
- ✓ **Save up (for)** - biron bir maqsadda pul saqlab qo'ymoq
I'm saving up for a new electric guitar. – Yangi elektrik gitara uchun pul jamg'aryapman.
- ✓ **Take back** - olgan joyiga qaytarib qo'ymoq
I'm going to take my library books back. – Kutubxonadan olgan kitoblarimni qaytarmoqchiman.
- ✓ **Take down** - pastga olmoq
The old man took a large book down from a shelf. – Qariya javondan katta bir kitobni pastga oldi.

Prepositional phrases

- ✓ **By credit card/cheque** - kredit karta/chek orqali
Can I pay by cheque? – Chek orqali to'lasam bo'ladimi?
- ✓ **For rent** - ijara uchun
Do you have any rooms for rent? – Ijaraga berish uchun xonangiz bormi?
- ✓ **For sale** - sotuvda, sotish uchun
I'm afraid the pictures on the wall aren't for sale. – Devordagi rasmlar sotish uchun emas deb qo'rqaman.
- ✓ **In cash** - naqd pulda

The woman paid for the car in cash, which was unusual. – Ayol mashina uchun naqd pulda to'lov qildi, bu noodatiy hodisa.

✓ **In debt** - qarzda

It can be very worrying to be in debt. – Qarzdor bo'lish juda havotirlanarli bo'lishi mumkin.

✓ **In good/bad condition** - yaxshi/yomon holatda

For sale: camping equipment, in good condition. – Sotiladi: lager jihozlari, yaxshi holatda.

Word formation

✓ **Add** - qo'shmoq

Shall I add your name to the list? – Ismingizni ro'yxatga qo'shib qo'yaymi?

✓ **Addition** - qo'shilish, bilan birga; qo'shish amali (matematika)

The team is much better with the addition of Simon Jones. – Jamoa Saymen Jounz bilan ancha yaxshiroq. = Saymen Jounz jamoada bo'lsa ancha yaxshiroq.

✓ **Afford** - puli yetmoq

They couldn't afford to buy a house there. – U yerdan uy sotib olishga pullari yetmasdi.

✓ **Affordable** - hamyonbop, juda qimmat ham, arzon ham emas

The homes we sell are very affordable. – Biz sotadigan uylar juda hamyonbop.

✓ **Compare** - solishtirmoq

I always compare prices before I buy. – Men har doim xarid qilishdan avval narxlarni solishtiraman.

✓ **Comparison** - taqqoslash

You can't draw a comparison between Tim and Alex—they're completely different. – Tim va Aleksni taqqoslab bo'lmaydi—ular butunlay boshqacha.

✓ **Decide** - qaror qilmoq

She gave up politics and decided instead to focus on charity work. – U siyosatni tashladi va uning o'rniga xayriya ishlariga e'tiborini qaratishga qaror qildi.

✓ **Decision** - qaror

So, what's your final decision? – Ho'sh, yakuniy qaroringiz qanday?

✓ **Expense** - harajat

She always travels first-class regardless of expense. – Harajatiga qaramay, u doimo birinchi klassda uchadi.

✓ **Expensive** - qimmat

It's nice, but isn't it a bit expensive? – Yakshi-ku, lekin biroz qimmat emasmi?

✓ **Inexpensive** - arzon = **cheap**

The clothes in that shop are good quality, and quite inexpensive. – Bu do'kondagi kiyimlar sifatli va juda arzon.

✓ **Judge** - hakamlik qilmoq

She was asked to judge the essay competition. – Undan insho musobaqasida hakamlik qilishni so'rashdi.

✓ **Judgement** - hukm, qaror

Nobody was surprised at the judgement—not even the criminal himself. – Hukmdan hech kim hayratlangani yo'q–hattoki jinoyatchining o'zi ham.

- ✓ **Serve** - xizmat ko'rsatmoq
The bar staff spend more time chatting to friends than serving customers. – Bar ishchilari mijozlarga xizmat ko'rsatishdan ko'ra do'stlari bilan suhbat qurishga ko'proq vaqt sarflashadi.
- ✓ **Service** - xizmat, xizmat ko'rsatish
The service here is terrible! – Bu yerda ko'rsatiladigan xizmat juda yomon darajada!
- ✓ **Servant** - xizmatkor
What was it like to live in a big house with dozens of servants? – O'nlab xizmatkorlar bilan katta uyda yashash qanday ekan?
- ✓ **True** - rost, to'g'ri, haqiqat
It is certainly true that money can't buy you happiness. – Pulga baxtni sotib olib bo'lmasligi chin haqiqat.
- ✓ **Truth** - haqiqat
Now, I want you to tell me the truth. – Endi esa, menga haqiqatni aytishingizni istayman.
- ✓ **Untrue** - yolg'on, haqiqat emas, rost emas
What she said is untrue–I didn't hit her at all! – Uning aytganlari haqiqat emas–men uni umuman urganim yo'q!
- ✓ **Truthful** - haqiqatni gapiradigan
To be truthful, I don't really like Liz. – Rostini aytsam, men Lizni yoqtirmayman.
- ✓ **Use** - foydalanmoq
We used a carrot for the snowman's nose. – Qorboboning burni uchun sabzidan foydalandik.
- ✓ **Useful** - foydali
My laptop is really useful–I don't know what I would do without it. – Kompyuterim juda foydali–u bo'lmaganda nima qilardim, bilmayman.
- ✓ **Useless** - foydasiz
You've broken the DVD player and now it's useless! – DVD pleyerni sindirib qo'yibsiz, endi u foydasiz!
- ✓ **Value** - baholamoq, narxlamq
The property has been valued at over \$2 million. – Sotuvdagi yer 2 million dollardan ziyod baholangan.
- ✓ **Valuable** - qimmat
Are any of these paintings valuable? – Bu suratlarning qaysi biridir qimmatmi?

Word patterns

adjectives

- ✓ **Wrong about** - haqida noto'g'ri fikrda bo'lmoq
I think Serena is wrong about Ian–he seems really nice to me. – O'ylashimcha Serenaning Ian to'g'risidagi fikri noto'g'ri–menga u juda yaxshidek tuyuladi.
- ✓ **Wrong with** - bilan biron bir muammo bo'lmoq

There's something wrong with my watch. What time is it? – Mening soatim bilan qandaydir muammo bor. Soat necha bo'ldi?

verbs

- ✓ **Belong to** - ga tegishli bo'lmoq
Do these belong to you? – Mana bular sizga tegishlimi?
- ✓ **Borrow sth from** - dan qarzga olib turmoq
You can borrow some money from me, if you like. – Agar istasangiz, mendan biroz pul qarzga olib turishingiz mumkin.
- ✓ **Buy sth from** - dan sotib olmoq
Where did you buy your new shoes from? – Yangi oyoq kiyimingizni qayerdan sotib oldingiz?
- ✓ **Choose between** - bittasini tanlamoq
I love both my brother and my sister and I can't choose between them. – Men akamni ham, opamni ham yaxshi ko'raman va ulardan birini tanlay olmayman.
- ✓ **Compare sth to/with** - bilan solishtirmoq
I'd like you to compare your composition to/with your partner's composition. – Bayon (yozma ish)ingizni sherigingizniki bilan solishtirishingizni xohlayman.
- ✓ **Decide on** - tanlamoq = **choose**
Have you decided on the music for your party? – Bazm uchun musiqa tanladingizmi?
- ✓ **Lend sth to** - ga qarzga berib turmoq
I haven't got any money because I lent €100 to Richard. – Pulim yo'q chunki Richerdga 100 yevro qarzga berganman.
- ✓ **Pay for** - uchun to'lamoq
We paid for dinner by credit card and left. – Kredit kartasi orqali kechki ovqat uchun to'ladik va tark etdik.
- ✓ **Spend sth on** - ga sarflamoq
What do you spend your pocket money on each week? – Cho'ntak pulingizni har hafta nima sotib olishga sarflaysiz?

nouns

- ✓ **An advert(isement) for** - uchun ishlab chiqarilgan reklama
Have you seen that really funny advert(isement) for coffee? – Kofe uchun ishlangan kulgili reklamani ko'rdingizmi?

UNIT 18. INVENTIONS AND DISCOVERIES

Topic vocabulary

- ✓ **Artificial** - sun'iy
There was a vase of artificial flowers on the table. – Stol ustida bir vaza sun'iy gullar bor edi.
- ✓ **Automatic** - avtomatik, o'zini o'zi ishga tushiradigan
It's an automatic door. – Bu avtomatil eshik (o'zi ochilib, o'zi yopiladi).
- ✓ **Complicated** - murakkab
This is a complicated problem. – Bu murakkab muammo.
- ✓ **Decrease** - kamaymoq

The number of visitors has decreased significantly. – Tashrif buyuruvchilar soni sezilarli darajada kamaygan.

- ✓ **Decrease** - pasayish

There's been a decrease in the number of visitors. – Tashrif buyuruvchilar raqamida pasayish kuzatilgan.

- ✓ **Digital** - raqamli

It's a digital recording. – Bu raqamli yozuv.

- ✓ **Discover** - kashf qilmoq

William Herschel discovered Uranus in 1781. – Vilyem Hershel 1781-yilda Uran sayyorasini kashf etgan.

- ✓ **Effect** - ta'sir

Scientists are studying the chemical's effect on the environment. – Olimlar ushbu kimyoviy moddaning atrof-muhitga ta'sirini o'rganishmoqda.

- ✓ **Equipment** - jihoz, asbob-uskunalar, qurilma

A computer is the most important piece of equipment you will buy. – Siz sotib oladigan eng muhim qurilma bu kompyuterdir.

- ✓ **Estimate** - (taxminan) hisoblamok

It is impossible to estimate how many of the residents were affected. – Qancha aholi zararlanganini hisoblash imkonsiz.

- ✓ **Exact** - aniq

The exact number of people there was unknown. – U yerdagi odamlarning aniq soni noma'lum edi.

- ✓ **Experiment** - tajriba qilmoq

This lab does not experiment on animals. – Bu laboratoriya hayvonlar ustida tajribalar olib bormaydi.

- ✓ **Experiment** - tajriba, o'rganish, tadqiqot

Researchers now need to do more experiments. – Izlanuvchilar endilikda ko'proq tajribalar o'tkazishlari kerak.

- ✓ **Gadget** - uskuna

That's a very useful gadget. – Bu juda foydali uskuna.

- ✓ **Hardware** - kompyuter jihozi

Printers and modems are examples of hardware. – Printer va modemlar kompyuter qattiq jihozining namunalari.

- ✓ **Invent** - ixtiro qilmoq

Alfred Nobel invented dynamite. – Alfred Nobel dinamitni ixtiro qilgan.

- ✓ **Involve** - o'z ichiga olmoq

The course involves a lot of hard work. – Kurs juda ko'p mashaqqatli mehnatni o'z ichiga oladi.

- ✓ **Laboratory** - laboratoriya

This is our new research laboratory. – Bu bizning yangi tadqiqotlar laboratoriyamiz.

- ✓ **Lack** - biron nimaga ega bo'lmaslik, yoki yetarlicha bo'lmaslik

He lacked the skills required for the job. – U ish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarga ega emas edi.

- ✓ **Lack** - yetishmovchilik

The match was cancelled because of lack of support. – O'yinda qo'llab-quvvatlash yetmagani tufayli u bekor qilindi.

- ✓ **Laptop** - kichik kompyuter, noutbuk
I'm going to buy a new laptop. – Yangi noutbuk sotib olmoqchiman.
- ✓ **Maximum** - imkoni bo'lgan eng yuqori miqdor, o'lcham yoki son
The maximum amount of cash you can withdraw is €500. – Bank hisobingizdan yechib olishingiz mumkin bo'lgan eng yuqori pul miqdori 500 yevro.
- ✓ **Minimum** - imkoni bo'lgan eng quyi miqdor, o'lcham yoki son
What's the minimum voting age in your country? – Sizning davlatingizda eng quyi (saylovlarda) ovoz berish yoshi necha yosh?
- ✓ **Operate** - boshqarmoq, ishlatmoq
Do not operate machinery after taking this medication. – Ushbu dorini qabul qilgandan so'ng texnika vositalaridan foydalanmang.
- ✓ **Plastic** - plastmassa
This pen is made of plastic. – Bu ruchka plastmassadan yasalgan.
- ✓ **Plastic** - plastmassadan yasalgan
Have you got a plastic bag? – Plastmassadan yasalgan quti bormi?
- ✓ **Program** - programmashtirmoq, dasturlashtirmoq
Can you program the PC to come on in the morning? – Shaxsiy kompyuterni tongda ishga tushishga dasturlay olasizmi?
- ✓ **Program** - programma, dastur
It's a complicated computer program. – Bu murakkab kompyuter dasturi.
- ✓ **Research** - tadqiqot, izlanish
Scientists have carried out lots of research into the effects of these drugs. – Olimlar bu dorilarning ta'sirini o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan.
- ✓ **Run** - ishga tushirmoq, ishga tushmoq
The software will run on any PC. – Dastur har qanday shaxsiy kompyuterda ishlaydi.
- ✓ **Screen** - ekran
Suddenly the screen went blank. – To'satdan ekran qora bo'lib qoldi.
- ✓ **Software** - kompyuter programmalari
You log onto our website, then download and install the software. – Veb-saytimizga kirasiz, keyin dasturni yuklab olasiz va o'rnatasiz.
- ✓ **Sudden** - to'satdan, kutilmaganda
She felt a sudden pain in her leg. – U oyog'ida kutilmaganda og'riq his qildi.
- ✓ **Technology** - texnologiya
Technology is improving all the time. – Texnologiya har doim yaxshilanib boryapti.
- ✓ **Unique** - tanho, yagona, o'zgacha
Every person is unique. – Har bir inson o'zgachadir.

Phrasal verbs

- ✓ **Break down** - buzilmoq, ishdan chiqmoq

Our car broke down on the motorway. – Mashinamiz katta yo'lda ishdan chiqdi.

- ✓ **Come across** - tasodifan duch kelib qolmoq
I came across a word I'd never seen before. – Avvallari hech qachon ko'rmagan bir so'zga duch keldim.
- ✓ **Find out** - bilmoq, xabar topmoq
I don't want Jerry to find out about this. – Jeri bu haqida xabar topishini istamayman.
- ✓ **Make up** - bahona to'qimoq
He made up some excuse about the dog eating his homework. – U qandaydir bir it uyga vazifasini yeyib qo'ygani to'g'risida bahona to'qidi.
- ✓ **Pull off** - tortib sindirmoq
I pulled off the arm of my sunglasses by mistake. – Ko'zoynagimning bir qo'lini (ushlagichini) yanglishib toritib sindirib qo'ydim.
- ✓ **Throw away** - axlatga tashlamoq
Have you thrown the papers away? – Gazetalarni axlatga tashlab yubordingizmi?
- ✓ **Turn off** - o'chirmoq
Will you turn the television off, please? – Televizorni o'chirib yuboring, iltimos.
- ✓ **Turn on** - yoqmoq
Will you turn the television on, please? – Televizorni yoqib yuboring, iltimos.

Prepositional phrases

- ✓ **At last** - va nihoyat
At last, we've arrived. – Va nihoyat yetib keldik.
- ✓ **By chance** - tasodifan
I met Venia by chance in the town center. – Shahar markazida Veniyani tasodifan uchratib qoldim.
- ✓ **In my opinion** - fikrimcha
In my opinion, we shouldn't go to school on Saturdays. – Mening fikrimcha, shanba kunlari maktabga borishimiz kerak emas.
- ✓ **In the end** - oxir-oqibat
I thought we would get there at three, but in the end we arrived at five. – U yerga soat 3 da yetib boramiz deb o'ylagandim, lekin oxir-oqibat, soat 5 da yetib bordik.
- ✓ **In the future** - kelajakda
Will people live on other planets in the future? – Kelajakda odamlar boshqa sayyoralarda yashaydimi?
- ✓ **Out of order** - ishdan chiqqan
This phone is out of order. We'll have to find another one. – Bu telefon ishdan chiqqan ekan. Boshqasini topishimiz kerak.

Word formation

- ✓ **Boil** - qaynamoq, qaynatmoq
I'll boil the kettle and make some tea. – Chovgumni qaynatib, ozgina choy tayyorlayman.

- ✓ **Boiler** - suv isitgich, titan
There's a problem with the boiler, so there's no hot water. – Suv isitgich bilan muammo bor, shuning uchun issiq suv yo'q.
- ✓ **Boiling** - qaynoq, qaynayotgan
The pan was full of boiling water. – Tova qaynayotgan suvga to'la edi.
- ✓ **Chemist** - kimyogar; dorixona
She worked as a chemist for the water company. – U suv korxonasida kimyogar bo'lib ishlagan.
Where's the nearest chemist? – Eng yaqin dorixona qayerda?
- ✓ **Chemical** - kimyoviy modda
Sodium is a chemical. – Natriy kimyoviy moddadir.
- ✓ **Chemistry** - kimyo fani; kimyoviy tadqiqotlar
I like doing chemistry at school. – Menga maktabda kimyoviy tadqiqotlar qilish yoqadi.
- ✓ **Conclude** - xulosa qilmoq
We concluded that we could not afford to buy a new car. – Biz shunday xulosa qildikki yangi mashina sotib olishga pulimiz yetmas ekan.
- ✓ **Conclusion** - xulosa
I've come to the conclusion that exams are useful. – Imtihonlar foydali degan xulosaga keldim.
- ✓ **Examine** - imtihon qilmoq, test berib sinamoq
The students will be examined in all subjects at the end of term. – Chorak yakunida, o'quvchilar hamma fanlardan imtihon qilinadilar.
- ✓ **Exam(ination)** - imtihon [exam - norasmiy so'z: asosan speakingda ishlatiladi; examination - rasmiy so'z: asosan writingda ishlatiladi]
I've got a French exam(ination) tomorrow. – Ertaga fransuz tilidan imtihonim bor.
- ✓ **Examiner** - imtihon oluvchi
The examiner was very friendly. – Imtihon olgan odam juda samimiy edi.
- ✓ **Fascinate** - o'ziga jalb qilmoq, qiziqtirmoq
China has always fascinated me. – Xitoy meni har doim qiziqtirgan (=o'ziga shaydo etgan).
- ✓ **Fascination** - qiziqish, shaydolik
Where did your fascination for cars come from? – Avtomobillarga bo'lgan qiziqishingiz qayerdan paydo bo'lgan?
- ✓ **Fascinating** - judayam qiziqarli va o'ziga maftun qiladigan
I've always found cars fascinating. – Men har doim avtomobillarni qiziqarli deb bilganman.
- ✓ **History** - tarix
Many people throughout history have dreamt of a world without war. – Tarix bo'ylab ko'plab odamlar jangu-jadallardan holi bo'lgan dunyoni orzu qilishgan.
- ✓ **Historic** - tarixiy ahamiyatga ega
It's a historic building. – Bu tarixiy ahamiyatga ega inshoot.
- ✓ **Historian** - tarixchi olim
I want to be a historian. – Men tarixchi olim bo'lishni istayman.
- ✓ **Identical** - juda o'xshash
These two pictures are identical. – Bu ikki rasm bir-biriga juda o'xshash.
- ✓ **Identically** - o'xshash tarzda

The children were dressed identically. – Bolalar o'xshash kiyinib olishgan edi.

- ✓ **Long** - uzun

It was the world's longest bridge. – U dunyodagi eng uzun ko'pri edi.

- ✓ **Length** - uzunlik

I swam the length of the swimming pool. – Basseyinning uzunligi bo'ylab suzdim.

- ✓ **Measure** - o'lchamoq

A nurse visited country schools to weigh and measure children. – Bir hamshira bolalarni taroziga tortish va o'lchash uchun qishloqdagi maktablarga tashrif buyurdi.

- ✓ **Measurement** - o'lchov

They took measurements of the level of pollution in the river. – Ular daryodagi ifloslanish darajasini o'lchashdi.

- ✓ **Science** - ilm-fan

We need to invest more in science and technology. – Biz ilm-fan va texnologiya sohalariga ko'proq sarmoya kiritishimiz kerak.

- ✓ **Scientist** - olim

Albert Einstein was a scientist. – Albert Eynshteyn olim bo'lgan.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Different from/to** - dan farqli, boshqacha

This song is very different from/to their last one. – Bu qo'shiq guruhning oldingi qo'shig'idan juda farq qiladi.

- ✓ **Full of** - ga to'la

The cupboard is full of food. – Javon yegulikga to'la.

verbs

- ✓ **Begin sth with** - bilan boshlamoq

Let's begin the lesson with a revision test. – Keling, darsni takrorlash testi bilan boshlaymiz.

- ✓ **Connect sth to/with** - ga ulamoq

Can you connect this wire to/with this one? – Mana bu simni bunisiga ulay olasizmi?

- ✓ **Disconnect sth from** - dan uzmoq, ajratmoq

I'll disconnect the TV from the wall before I go to bed. – Uyquga yotishimdan avval, televizorni devordan uzib qo'yaman (= to'kdan olib qo'yaman).

- ✓ **Fill sth with** - bilan to'ldirmoq

She filled the trolley with food. – U do'kon aravachasini yegulik bilan to'ldirdi.

- ✓ **Result in** - sabab bo'lmoq, keltirib chiqarmoq

Falling out of the tree resulted in me going to hospital! – Daraxtdan qulashim kasalxonaga borishimga olib keldi!

nouns

- ✓ **A difference between** - o'rtasidagi farq

What's the difference between a crocodile and an alligator? – Timsoh va alligator o'rtasidagi farq nima?

- ✓ **An idea about** - haqida fikr, tasavvur
I've got no idea about computers. – Men kompyuterlar haqida hech qanday tasavvurga ega emasman.
- ✓ **A number of** - bir qancha
I've got a number of books about horses. – Otlar haqida bir nechta kitoblarim bor.
- ✓ **A reason for** - uchun sabab
What was the reason for his anger? – Uning g'azabiga nima sabab bo'ldi?
- ✓ **A type of** - ning turi
How many types of music can you think of? – Musiqaning nechta turi haqida o'ylay olasiz?

UNIT 21. SENDING AND RECEIVING

Topic vocabulary

- ✓ **Accent** - aksent
Tom hasn't lost his broad Irish accent. – Tom o'zining kuchli irlandcha aksentini yo'qotmagan.
- ✓ **Announcement** - e'lon
The head teacher made an announcement about the school holidays. – Maktab direktori ta'tillar to'g'risida e'lon qildi.
- ✓ **Broadcast** - teleko'rsatuv yoki radioeshittirishlarda efirga uzatmoq
The BBC will be broadcasting the match live from Paris. – BBC o'yinni Parijdan jonli efirda namoyish etadi.
- ✓ **Broadcast** - efirga uzatilgan teleko'rsatuv yoki radioeshittirish
They mentioned the problem on Channel 5's main news broadcast. – Muammo 5-kanalning asosiy yangiliklar ko'rsatuvida aytib o'tildi.
- ✓ **Channel** - telekanal
What's on the other channel? – Boshqa kanalda nima beryapti?
- ✓ **Clear** - tushunarli, tushunishga oson
Clear instructions are provided. – Tushunishga oson ko'rsatmalar ta'minlanadi.
- ✓ **Click** - tugmani bosmoq (sichqoncha yordamida)
To send the message, click on the 'send' button. – Xabarni yuborish uchun, 'jo'natish' tugmasini bosing.
- ✓ **Contact** - (telefon, e-mail, xat, ... orqali) bog'lanmoq, aloqa qilmoq
Please contact us if you have any information. – Agar qandaydir ma'lumot bo'lsa, iltimos biz bilan bog'laning.
- ✓ **Contact** - aloqa
Do you and Jo still keep in contact? – Siz hozir ham Jo bilan aloqani saqlab qolganmisiz?
- ✓ **File** - fayl, xujjat
I can't find the file on my computer. – Faylni kompyuterimdan topolmayapman.
- ✓ **Formal** - rasmiy
'Ameliorate' is a more formal way of saying 'improve'. – 'Ijobiy tarafga o'zgartirmoq' - bu 'yaxshilamoq' so'zini aytishning yanayam rasmiyroq usuli.
- ✓ **Image** - tasvir, surat

Images of Germany appeared on the screen. – Ekranda Germaniya tasvirlari paydo bo'ldi.

✓ **Informal** - norasmiy

You should wear informal clothes to the party tomorrow. – Ertangi bazmga norasmiy kiyinishingiz kerak.

✓ **Internet** - internet

Do you have access to the Internet? – Internetga kirish imkoniyatiga egamisiz?

✓ **Interrupt** - halal bermoq, bezovta qilmoq

Please don't interrupt her while she's working. – Iltimos, uni ishlayotganda bezovta qilmang.

✓ **Link** - bog'liq bo'lmoq

Police think that the two robberies are linked. – Politsiyaning fikricha ikki o'g'irlik bir-biriga bog'liq.

✓ **Link** - bog'liqlik

Is there any link between this and what we were talking about yesterday? – Kecha gaplashayotgan narsamiz bilan buni o'rtasida qandaydir bog'liqlik mavjudmi?

✓ **Media** - ommaviy axborot vositalari: radio, televizor, internet, nashriyot

The story has been widely reported in the media. – Hikoya ommaviy axborot vositalarida keng tarqaldi.

✓ **Mobile phone** - telefon

Don't forget to take your mobile phone with you when you go out. – Ko'chaga chiqqaningizda, uyali aloqa telefoningizni o'zingiz bilan olib olishni unutmang.

✓ **Online** - internet orqali ishlaydigan

I bought it from an online bookshop. – Uni internet kitob do'konidan sotib oldim.

✓ **Online** - onlayn tarzda, internetda

Let's go online and check your e-mail. – Keling internetga ulanib, elektron pochtagizni tekshiramiz.

✓ **Pause** - biroz muddat to'xtamoq, pauza qilmoq

She paused at the door and then left. – U eshik oldida biroz to'xtab turdi va so'ngra jo'nab ketdi.

✓ **Pause** - pauza

There was a short pause before the orchestra continued to play. – Orkestra chalishni davom ettirishidan avval qisqa pauza bo'ldi.

✓ **Persuade** - ko'ndirmoq, ishontirmoq

He did finally come with us, although it took a long time to persuade him. – Uni ko'ndirishga uzoq vaqt ketganiga qaramay, u oxir-oqibat biz bilan keldi.

✓ **Pronounce** - talaffuz qilmoq

I find some Japanese words very difficult to pronounce. – Ba'zi yaponcha so'zlar men uchun talaffuz qilishga qiyin.

✓ **Publish** - chop etmoq

Their company publishes a wide selection of books. – Ularning kompaniyasi keng turdagi/to'plamdagi kitoblar chop etadi.

✓ **Report** - hisobot bermoq, xabar bermoq, boxabar qilmoq

You should report the accident to the police. – Politsiyaga avariya to'g'risida xabar berishingiz lozim.

- ✓ **Report** - hisobot
A new report shows crime is on the increase. – Yangi hisobot shuni ko'rsatadiki, jinoyatlar soni ortib bormoqda.
- ✓ **Request** - so'ramoq
I would like to request a meeting with the manager, please. – Men menejer bilan uchrashuv belgilashni so'ramoqchiman, iltimos.
- ✓ **Request** - so'rov, so'rash
Evening meals are available on request. – Kechki ovqatlar so'rov bo'yicha mavjud. --> Avvaldan buyurtma berganlargagina tayyorlanadi.
- ✓ **Ring** - qo'ng'iroq qilmoq
Ring me at home later. – Keyinroq uyda menga qo'ng'iroq qiling.
- ✓ **Signal** - signal, ishora
We waited for them to give us the signal to move. – Harakatlanishga ishora berishlarini kutdik.
- ✓ **Swear** - so'kinmoq
That's the first time I've ever heard him swear. – Men uning so'kinishini birinchi marta eshitib turibman.
- ✓ **Type** - yozmoq (klaviaturada)
She quickly typed back a response. – U tezlik bilan javob yozib yubordi.
- ✓ **Viewer** - tomoshabin
Our regular viewers will know that it's time for Double Money! – Bizning doimiy tomoshabinlarimiz Ikki Karra Pul ko'rsatuvining vaqti kelganini bilishadi!
- ✓ **Website** - vebsayt
I'm thinking of starting a website for people from our school. – Maktabimizdan bo'lgan odamlar uchun vebsayt yuritish haqida o'ylayapman.
- ✓ **Whisper** - pichirlamoq
Stop whispering, you two! – Hoy siz ikkovingiz, pichirlashni bas qiling!
- ✓ **Whisper** - pichirlash, past ovoz
'Be careful!' she said in a whisper. – U past ovozda 'Ehtiyot bo'ling!' deb aytdi.

Phrasal verbs

- ✓ **Call back** - qaytib qo'ng'iroq qilmoq
I'll call you back later when you're not so busy. – Keyinroq, unchalik band bo'lmagan vaqtingizda qaytib qo'ng'iroq qilaman sizga.
- ✓ **Come out** - chop etilmoq
When does her new book come out? – Uning yangi kitobi qachon chop etiladi?
- ✓ **Cut off** - tarmoqdan uzib qo'ymoq
Pay the electricity bill tomorrow or they might cut us off. – Elektr energiya to'lovini ertaga to'lang, aks holda bizni tarmoqdan uzib qo'yishlari mumkin.
- ✓ **Fill in** - blanka to'ldirmoq
Just fill in this application form, please. – Iltimos, mana shu anketani to'ldiring.
- ✓ **Hang up** - go'shakni qo'ymoq

I can't believe that Jessica hung up without saying goodbye! – Jesika xayr demay go'shakni qo'yib qo'yganiga ishonolmayman!

- ✓ **Log off** - internetni o'chirmoq, saytdan chiqib ketmoq
Don't forget to log off when you've finished checking your e-mail. – Elektron pochtagizni tekshirib bo'lib, internetni o'chirishni unutmang.
- ✓ **Log on(to)** - internetga ulanmoq, saytga kirmoq
You need your password to log on. – Ulanish uchun sizga parolingiz kerak bo'ladi.
- ✓ **Print out** - printerdan chiqarmoq
Let me print those photographs out for you. – Rasmlarni men chiqarib berishimga ruxsat bering.

Prepositional phrases

- ✓ **By e-mail/phone/letter** - email/telefon/xat orqali
Get in touch by e-mail and I'll send you my photos. – E-mail orqali aloqaga chiqing va sizga suratlarimni yuboraman.
- ✓ **On the internet** - internetda
You can find a lot of information on the Internet. – Internetda juda ko'p ma'lumot topishingiz mumkin.
- ✓ **On the news** - yangiliklarda
They mentioned the accident on the news. – Avariyaning yangiliklarda aytilib o'tishdi.
- ✓ **On the phone** - telefonda
Come in and wait a second—I'm just on the phone. – Kiring va bir soniya kutib turing—men telefondaman.
- ✓ **On the radio** - radioda
I first heard that song on the radio. – Men ushbu qo'shiqni birinchi marta radioda eshitganman.
- ✓ **On TV** - televizorda
Is there anything on TV tonight? – Bu oqshom televizorda nimadir beradimi?

Word formation

- ✓ **Certain** - aniq, shubhasiz
One thing is certain—it will be exciting. – Bir narsaga shubha yo'q—u juda maroqli bo'ladi.
- ✓ **Certainly** - shubhasiz
The weather is certainly getting better, isn't it? – Shubhasiz, havo yaxshilanyapti, shunday emasmi?
- ✓ **Certainty** - aniqlik
'Matt must have left,' George said with certainty. – 'Mat ketib bo'lgan bo'lsa kerak,' dedi Jorj aniqlik bilan.
- ✓ **Communicate** - aloqa qilmoq, muloqot qilmoq
Dolphins use sound to communicate with each other. – Delfinlar bir-biri bilan muloqot qilish uchun tovushdan foydalanishadi.
- ✓ **Communication** - aloqa, muloqot

This course is designed to improve your communication skills. – Ushbu kurs sizning muloqot qobiliyatingizni yaxshilash uchun mo'ljallangan.

- ✓ **Connect** - ulamoq, biriktirmoq
First connect the printer to the computer. – Birinchi bo'lib, printerni kompyuterga ulang.
- ✓ **Connection** - ulanish, aloqa
My connection to the internet costs about €30 a month. – Internet aloqam oyiga taxminan 30 yevro turadi.
- ✓ **Disconnect** - uzmoq, ajratmoq
You need to disconnect the DVD player from the TV before you connect the PlayStation. – PlayStationni ulashdan avval, DVD pleyerni televizordan uzishingiz kerak.
- ✓ **Deliver** - yetkazib bermoq
We promise to deliver within 48 hours. – Biz 48 soat ichida eltib berishga va'da beramiz.
- ✓ **Delivery** - jo'natma, yetkazib berish
There's a van outside—are you expecting a delivery? – Tashqarida furgon turibdi–qandaydir jo'natma kutayotganmidingiz?
- ✓ **Express** - ifodalamoq, bildirmoq
I'd like to express my gratitude to everyone who helped us. – Bizga yordam bergan barchaga minnatdorchiligimni bildirmoqchiman.
- ✓ **Expression** - ifoda
What does the expression 'save someone's bacon' mean? – 'Biron kimni murakkab vaziyatdan olib chiqmoq' ifodasini nimani anglatadi?
- ✓ **Expressive** - ifodali, ma'noli
French seems to me to be a very expressive language. – Fransuz tili menga juda ham ma'noli tildek tuyuladi.
- ✓ **Inform** - ma'lumot bermoq, xabardor etmoq
I am pleased to inform you that you have won first prize in this month's competition. – Sizga shuni xabar qilishdan mamnunmanki, bu oydagi musibaqada siz birinchi sovrinni yutib oldingiz.
- ✓ **Informative** - ma'lumotga boy
Your e-mail was very informative, thanks. – Yuborgan xabaringiz juda ma'lumotga boy ekan, rahmat.
- ✓ **Information** - ma'lumot
Have they got any more information about the explorers yet? – Tadqiqotchilar haqida ko'proq ma'lumot olishdimi?
- ✓ **Predict** - oldindan aytmoq, taxmin qilmoq
It is impossible to predict what will happen. – Nima sodir bo'lishini oldindan aytish imkonsiz.
- ✓ **Prediction** - taxmin, kelajak to'g'risidagi fikr
My prediction is that City will win the match 2-0 on Sunday. – Taxminim shuki yakshanba kuni City terma jamoasi 2-0 hisobda g'alaba qozonadi.
- ✓ **Predictable** - avvaldan bilsa bo'ladigan, avvaldan bilish oson bo'lgan
You're so predictable—I knew you were going to say that! – Sizni oldindan bilish oson–shuni aytmqchi ekanligingizni bilgandim!
- ✓ **Unpredictable** - oldindan bilib bo'lmaydigan

Be careful! Their dog is quite unpredictable. – Ehtiyot bo'ling! Ularning kuchigini oldindan bilib bo'lmaydi (nima qilishini).

- ✓ **Secret** - sir
Can you keep a secret? – Sir saqlay olasizmi?
- ✓ **Secretly** - yashirin tarzda, sezdirmay
Jim secretly placed the love letter in Andrea's bag. – Jim Andreyaning sumkasiga yashirin tarzda sevgi maktubini tashlab qo'ydi.
- ✓ **Secrecy** - maxfiy tutish, oshkor etmaslik
I don't like all this secrecy. Why don't we tell Mary the truth? – Maxfiy tutish menga yoqmayapti. Meriga haqiqatni aytishimiz kerak.
- ✓ **Speak** - gapirmoq
Can I speak with you for a minute? – Siz bilan bir daqiqa gaplasha olamanmi?
- ✓ **Spoke** - speak ning past simple shakli
I didn't know Len spoke Turkish. – Len turkcha gapirishini bilmasdim.
- ✓ **Spoken** - speak ning past participle shakli
Can you name four countries where English is spoken? – Ingliz tili gapiriladigan 4 ta davlatni nomlab bera olasizmi?
- ✓ **Speech** - nutq
I have to give a speech at school and I'm really nervous. – Maktabda nutq so'zlashim kerak va juda asabiylashyapman.
- ✓ **Speaker** - notiq, nutq so'zlovchi odam
I can't hear what the speaker is saying. – Nutq so'zlayotgan odam nima deyayotganini eshitmayapman.
- ✓ **Translate** - tarjima qilmoq
Her books have been translated into 24 languages. – Uning kitoblari 24 tilga tarjima qilingan.
- ✓ **Translation** - tarjima
I haven't read War and Peace in Russian, but I've read a translation. – Urush va Tinchlik asarini rus tilida o'qimaganman, lekin tarjimasini o'qiganman.
- ✓ **Translator** - tarjimon
You need to work hard to get a job as a translator. – Tarjimon sifatida ish topishingiz uchun qattiq harakat qilishingiz kerak.

Word patterns

verbs

- ✓ **Comment on** - ga izoh bildirmoq
The politician refused to comment on the situation. – Siyosatchi holat uchun izoh berishdan bosh tortdi.
- ✓ **Communicate with** - bilan aloqa qilmoq
I communicate with my cousins in Australia by e-mail. – Men Avstraliyadagi qarindoshlarim bilan elektron pochta orqali aloqa qilaman.
- ✓ **Glance at** - ga nazar tashlamoq

I glanced at Clare and I could see that she was upset. – Clerga nazar tashladim va uning xafa ekanligini ko'ra olardim.

- ✓ **Receive sth from** - biron kimdan biron narsa qabul qilmoq
At the end of the course, you'll all receive a certificate from the college. – Kurs yakunida, barchangiz kollejdən sertifikat qabul qilasiz.
- ✓ **Reply to** - ga javob qaytarmoq
Don't forget to reply to Kelly's letter, will you? – Kelining xatiga javob qaytarishni yoddan chiqarmang, ho'pmi?
- ✓ **Send sth to sb** - biron kimga biron narsa jo'natmoq
I'm going to send some photographs to Irene. – Ayringa bir nechta rasmlar jo'natmoqchiman.
- ✓ **Talk (to sb) about** - (biron kimga) biron narsa haqida gapirmoq
What were you talking to James about? – Jeymsga nima haqida gapirayotgan edingiz?
- ✓ **Tell sb about** - biron kimga biron narsa haqida aytmoq
I've got something to tell you about. – Sizga aytadigan narsam bor.
- ✓ **Translate (from smth) into** - (biron tildan) boshqa bir tilga tarjima qilmoq
The notice had been translated from Japanese into English. – Xabar yaponchadan ingliz tiliga tarjima qilingan.
- ✓ **Write (to sb) about** - (biron kimga) biron narsa haqida yozmoq
Write to your grandma about what you bought with your Christmas money. – Bayram pulingizga nima sotib olganingiz to'g'risida buvingizga yozing.

nouns

- ✓ **A letter (from sb) about** - (biron kimdan) biron narsa haqida xat
I got a letter from Miranda about her new job. – Mirandadan yangi ishi to'g'risida xat oldim.
- ✓ **Information about** - haqida ma'lumot
I'd like some information about the local area, please. – Mahalliy hudud haqida biroz ma'lumot kerak, iltimos.

UNIT 24. PEOPLE AND DAILY LIFE

Topic vocabulary

- ✓ **Admit** - tan olmoq
In court he admitted that he had lied about the accident. – Sudda u halokat to'g'risida yolg'on gapirganligini tan oldi.
- ✓ **Arrest** - hibsga olmoq
The police entered the building and arrested six men. – Politsiya binoga kirdi va 6 erkakni hibsga oldi.
- ✓ **Charity** - xayriya
The event raised €59,000 for charity. – Tadbirda xayriya uchun 59,000 yevro yig'ildi.
- ✓ **Commit** - sodir etmoq
What makes people commit crimes? – Odamlarni jinoyat sodir etishga nima undaydi?
- ✓ **Community** - jamoa, jamiyat

I wanted to work somewhere where I could serve the community. – Men jamiyatga xizmat qila oladigan biror joyda ishlashni xohlagandim.

✓ **Court** - sud zali

The man will appear in court on Monday. – U kishi dushanba kuni sudga ko'rinish beradi.

✓ **Criminal** - jinoyatchi

Some criminals take exams in prison. – Ba'zi jinoyatchilar qamoqxonada imtihon topshiradilar.

✓ **Criminal** - jinoiy

That's criminal behaviour! – Bu jinoiy xatti-harakat!

✓ **Culture** - madaniyat

There were people from lots of different cultures at the meeting. – Yig'ilishda ko'plab turli-xil madaniyatlarga mansub odamlar bor edi.

✓ **Familiar** - tanish

The name Harry Potter will be familiar to many readers. – Heri Poter [inglizchada talaffuzi shunday] nomi ko'plab kitobxonlarga tanish bo'lib qoladi.

✓ **Government** - hukumat

The government has announced plans to raise the minimum wage next year. – Hukumat kelasi yilda eng kam oylik ish haqi miqdorini oshirish to'g'risidagi rejasini e'lon qildi.

✓ **Habit** - odat

Biting your fingernails is a bad habit! – Tirnoqlarni tishlash bu juda yomon odatdir!

✓ **Identity card** - ID karta (shaxsiyatni tasdiqlovchi ma'lumot)

The police officer asked to see my identity card. – Politsiya ofitseri ID kartamni ko'rishni so'radi.

✓ **Illegal** - noqonuniy

Robbing banks is illegal! – Banklarni o'marish noqonuniydir!

✓ **Politics** - siyosat

She's heavily involved in local politics. – U mahalliy siyosatga chuqur bog'lanib qolgan.

✓ **Population** - aholi

Los Angeles has a population of over 3 million. – Los Angeles 3 millionidan ziyod aholiga ega.

✓ **Prison** - qamoqxona

He's currently in prison. – U ayni damda qamoqda.

✓ **Protest** - g'alayon qilmoq, norozilik bildirmoq

Workers are protesting against high unemployment. – Ishchilar yuqori ishsizlik darajasiga qarshi bosh ko'tarishmoqda.

✓ **Protest** - norozilik, g'alayon

Students will hold a protest this weekend outside Parliament. – Kelayotgan dam olish kunida o'quvchilar Parlament tashqarisida g'alayon qilishadi.

✓ **Resident** - istiqomat qiluvchi, fuqaro

Many local residents have objected to the new road. – Ko'plab mahalliy istiqomat qiluvchilar yangi quril(adi)gan yo'lga nisbatan qarshilik bildirishdi.

✓ **Responsible** - ga javobgar, sababchi

He was responsible for the accident. – Halokatga u sababchi bo'ldi.

✓ **Rob** - tunamoq, o'marmoq

They were planning to rob the museum. – Ular muzeyni o'marishni rejalashtirayotgan edilar.

- ✓ **Routine** - kun tartibi
It shouldn't take too long to return to our old routine. – Avvalgi kun tartibimizga qaytish uchun ko'p vaqt ketmasa kerak.
- ✓ **Routine** - har doimgi, bir xil
This is just routine work. – Bu shunchaki har doimgi ish.
- ✓ **Schedule** - jadval, ro'yxat
What's your schedule for today? – Bugungi kun uchun rejalarangiz qanday?
- ✓ **Situation** - vaziyat, holat
I found myself in an embarrassing situation. – Men noqulay (uyatli) holatga tushib qoldim.
- ✓ **Social** - ijtimoiy
There are lots of social problems, such as unemployment. – Ko'plab ijtimoiy muammolar mavjud, misol uchun ishsizlik.
- ✓ **Society** - jamiyat
Society has to support its old people. – Jamiyat o'zining yoshi katta vakillarini qo'llab quvvatlashi zarur.
- ✓ **Steal** - o'g'irlamoq
She was caught stealing food from the supermarket. – U supermarketdan yegulik o'g'irlayotgan jarayonda qo'lga tushdi.
- ✓ **Tradition** - an'ana, urf-odat
His son followed the family tradition and entered politics. – Uning o'g'li oilaviy an'anani davom ettirdi va siyosatga qadam qo'ydi.
- ✓ **Typical** - xos
His opinions are typical of people of his generation. – Uning fikrlari o'z davridagi avlod odamlariga xos.
- ✓ **Vote** - ovoz bermoq
I'm going to vote for Jackson. – Men Jaksenga ovoz bermoqchiman.
- ✓ **Vote** - ovoz
My vote will go to the candidate who promises lower taxes. – Mening ovozim soliqlarni kamaytirishni va'da qiladigan nomzodga bo'ladi.
- ✓ **Youth club** - yoshlar klubi
Let's go to the youth club after school! – Keling, maktab tugagandan so'ng yoshlar klubiga boramiz!

Phrasal verbs

- ✓ **Break in(to)** - bostirib kirmoq
A house in Brecon Place was broken into last night. – Kecha tunda Breken Pleysdagi bir uyga bostirib kirilgan.
- ✓ **Catch up (with)** - biror kimnikidek darajaga erishmoq
He's missed so much school that he's going to find it hard to catch up. – U maktabni shunchalik ko'p qoldirdiki boshqalarga yetishib olishi qiyin bo'ladi.
- ✓ **Get away with** - jazodan qutulib qolmoq

They have repeatedly broken the law and got away with it. – Ular qayta va qayta qonunni buzaverishdi va jazodan qutulib qolaverishdi.

- ✓ **Get up** - o'rnidan turmoq
He never gets up before nine. – U hech qachon soat 9 dan vaqtli turmaydi.
- ✓ **Move in** - ko'chmoq
We're moving in next week. – Biz kelasi hafta yangi uyga ko'chamiz.
- ✓ **Put away** - joyiga qo'yimoq
He put the notebook away and stood up. – U daftarni joyiga qo'ydi va o'rnidan turdi.
- ✓ **Wake up** - uyg'onmoq
Wake up! It's nearly ten o'clock! – Uyg'oning! Soat deyarli 10 bo'ldi!
- ✓ **Wash up** - idish-tovoqlarni yuvmoq
I can help to cook and wash up. – Ovqat pishirish va idish-tovoqlarni yuvishga yordamlashishim mumkin.

Prepositional phrases

- ✓ **Against the law** - qonunga zid
Stealing is against the law. – O'g'irlik qilish qonunga ziddir.
- ✓ **At the age of** - ...yoshda
I left home at the age of eighteen. – Men 18 yoshda uydan chiqib ketganman.
- ✓ **In public** - jamoat joyida
Politicians can say things in private that they can't say in public. – Siyosatchilar omma qarshisida aytolmaydigan narsalarini yolg'iz aytishi mumkin.
- ✓ **In response to** - ...ga javoban
I am writing in response to your letter of 13th July. – Men 13-iyuldagi xatingizga javoban yozypman.
- ✓ **In touch (with)** - ...bilan aloqada
I'm still in touch with several friends from school. – Men hali-hanuz maktabdagi bir nechta do'stlarim bilan aloqadaman.
- ✓ **In your teens/twenties/etc** - o'smirlik paytida/yigirma yoshlar paytida
Life isn't always easy when you're in your teens. – O'smirlik paytida hayot har doim ham oson bo'lavermaydi.

Word formation

- ✓ **Agree** - fikriga qo'shilmoq
I totally agree with you! – Men sizning fikringizga to'liq qo'shilaman!
- ✓ **Agreement** - bir fikrda bo'lish, bir qarorda bo'lish
We're all in agreement about this. – Biz barchamiz bu borada bir fikrdamiz.
- ✓ **Disagree** - fikrga qo'shilmaslik, rozi bo'lmaslik
I'm afraid I disagree. – Fikringizga qo'shilmayman deb qo'rqaman.
- ✓ **Belief** - ishonch

I admire his passionate belief in what he is doing. – Men uning qilayotgan ishiga kuchli ishonchini hurmat qilaman.

- ✓ **Believe** - ishonmoq
I don't believe you! – Men sizga ishonmayman!
- ✓ **Believable** - ishonarli
The film was completely believable. – Kino to'laqonli ishonarli edi.
- ✓ **Unbelievable** - ishonib bo'lmaydigan
That's unbelievable! It can't be true! – Bunga ishonib bo'lmaydi! Bu rost bo'lishi mumkin emas!
- ✓ **Courage** - jasorat
It takes courage to sing in public. – Odamlar qarshisida kuylash jasorat talab qiladi.
- ✓ **Courageous** - jasoratli, jasur
That was very courageous of you. – Bu juda jasoratli ish bo'ldi.
- ✓ **Elect** - saylamoq
Voters will elect a new president on 30 March next year. – Saylovchilar kelasi yil 30-martda yangi prezident saylaydilar.
- ✓ **Election** - saylov
Who are you going to vote for in the election? – Saylovda kimga ovoz bermoqchisiz?
- ✓ **Equal** - teng
The two countries are roughly equal in size. – Bu ikki davlat kattaligi jihatdan deyarli teng.
- ✓ **Equality** - tenglik
I believe in equality for women. – Men ayollar tengligiga ishonaman.
- ✓ **Unequal** - teng emas
They had 15 people in their team and we only had 12, so it was unequal. – Ularning jamoasida 15 ta odam bor edi, biznikida esa bor yo'g'i 12 ta, shunday ekan bu teng bo'lmadi.
- ✓ **Life** - hayot
He risked his life to save his daughter from the fire. – U qizini yong'indan saqlab qolish uchun o'z hayotini tahlikaga qo'ydi.
- ✓ **Live** - yashamoq
I used to live in Canada. – Men avvallari Kanadada yashardim.
- ✓ **Alive** - tirik
I'm glad I'm alive! – Tirik ekanligimdan xursandman!
- ✓ **Nation** - xalq
The entire nation mourned her death. – Butun boshli xalq uning vafotiga motam tutdi.
- ✓ **Nationality** - millat
What's her nationality? Is she French? – U qaysi millatga mansub? Fransuzmi?
- ✓ **National** - milliy
Tomorrow is a national holiday. – Ertaga milliy bayram.
- ✓ **International** - xalqaro
We're an international organization. – Biz xalqaro korxonamiz.
- ✓ **Peace** - tinchlik
The two communities live together in peace. – Ushbu ikki jamiyat birga tinch-totuvlikda yashaydilar.

- ✓ **Peaceful** - tinch
You looked very peaceful when you were asleep. – Uyqudaligingizda juda tinch ko'rindingiz.
- ✓ **Peacefully** - tinch tarzda
The dog was sleeping peacefully when it suddenly heard a noise. – Kuchuk to'satdan shovqin eshitib qolganda tinch uxlayotgandi.
- ✓ **Prison** - qamoq
He served four years in prison for killing a man. – U odam o'ldirgani uchun qamoqda 4 yil o'tab chiqdi.
- ✓ **Prisoner** - maxbus
The prisoner asked the guard for a blanket. – Maxbus qo'riqchidan choyshab so'radi.
- ✓ **Shoot** - o'q uzmoq
Don't shoot—I surrender. – O'q uzmag-taslimman.
- ✓ **Shot** - shoot fe'lining past simple va past participle shakllari
Ronald Reagan was shot when he was President of the USA. – Raneld Reygen Qo'shma Shtatlar Prezidenti bo'lgan paytida otib ketilgan.
- ✓ **Shooting** - o'q uzish
We go shooting a lot, but we never shoot animals or birds. – Biz quroldan o'q uzishga ko'p chiqamiz, biroq biz hech qachon hayvonlar yoki qushlarni otmaymiz.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Angry (with sb) about** - kimdandir biror narsa uchun jahli chiqqan
Are you angry with me about something? – Mendan biron narsa uchun jahlingiz chiqyaptimi?
- ✓ **Guilty of** - uchun aybdor
He was found guilty of murder. – U qotillikda aybdor deb topildi.

verbs

- ✓ **Accuse sb of** - kimnidir biron ishda ayblamoq
They accused me of stealing some money! – Ular meni biroz pul o'g'irlaganlikda ayblashdi!
- ✓ **Blame sb for** - kimnidir biror narsa uchun ayblamoq
You can't blame Susie for what happened. – Sodir bo'lgan narsada Suzini ayblay olmaysiz.
- ✓ **Blame sth on** - biror ish uchun biror odamni ayblamoq
I blame the accident on Jake. – Halokatda Jeykni ayblayman.
- ✓ **Criticise sb for** - kimnidir biror narsa uchun tanqid qilmoq
Don't criticize me for asking questions in class! – Sinfda savol so'raganim uchun meni tanqid qilmang!
- ✓ **Forget about** - haqida unutmoq
I'd completely forgotten about the party! – Bazm to'g'risida umuman unutib qo'ygandim!
- ✓ **Forgive sb for** - kimnidir biron nojo'ye ishini kechirmoq
I'll never forgive you for what you've done! – Qilgan ishingiz uchun sizni hech qachon kechirmayman!
- ✓ **Invite sb to** - kimnidir biror yerga taklif qilmoq

I'm going to invite everyone to my party. – Men barchani bazmimga taklif qilmoqchiman.

- ✓ **Punish sb for** - kimnidir biror nojo'ye ishi uchun jazolamoq
You shouldn't punish someone for telling the truth. – Siz biror odamni haqiqatni aytgani uchun jazolamasligingiz kerak.
- ✓ **Share sth with** - biror narsani biror kim bilan baham ko'rmoq
I'll share this bar of chocolate with you. – Bu shokoladni siz bilan bo'lishaman.
- ✓ **Smile at** - ga qarab tabassum qilmoq
Smile at the camera! – Kameraga qarab jilmaying!

UNIT 27. WORKING AND EARNING

Topic vocabulary

- ✓ **Ambition** - orzu-istak
His ambition was to become a successful writer. – Uning orzusi muvaffaqiyatli yozuvchi bo'lish edi.
- ✓ **Application** - ariza
His application for membership was rejected. – Uning a'zolik uchun bergan arizasi rad etildi.
- ✓ **Bank account** - bank hisob raqami
We'll pay the money into your bank account. – Pulni sizning bank hisob raqamingizga to'lab beramiz.
- ✓ **Boss** - boshliq
I'll ask my boss for a day off next week. – Kelasi hafta boshlig'imdan bir kun ishga bormaslik uchun dam olish kuni olishni so'rayman.
- ✓ **Career** - karyera
Rosen had decided on an academic career. – Rouzn akademik karyerani tanladi.
- ✓ **Colleague** - hamkasb
Friends and colleagues will remember him as a kind man. – Do'stlari va hamkasblari uni mehribon inson sifatida yodga olishadi.
- ✓ **Company** - kompaniya
Max works for a large oil company. – Maks yirik neft kompaniyasiga ishlaydi.
- ✓ **Contract** - shartnoma
After six months she was offered a contract of employment. – 6 oydan so'ng, unga (ishga kirish haqidagi) mehnat shartnomasi taklif etildi.
- ✓ **Department** - bo'lim, idora
You need to speak to our sales department. – Siz bizning savdo-sotiq bo'limimizga murojaat qilishingiz kerak.
- ✓ **Deserve** - ga loyiq bo'lmoq
After five hours on your feet you deserve a break. – 5 soat tik oyoqda yurgandan so'ng, siz tanaffus olishga loyiqsiz.
- ✓ **Earn** - pul ishlab topmoq
Most people here earn about €30,000 a year. – Bu yerda ko'pchilik yiliga 30,000 yevro topadi.
- ✓ **Fame** - shon-shuhrat, mashhurlik

Albert Finney rose to fame in the British cinema of the early Sixties. – Albert Fini 60-yillarning boshlarida Britaniya kinosida shuhrat qozondi.

- ✓ **Goal** - gol
Nielsen scored two goals in the last ten minutes. – Nilsen oxirgi 10 daqiqa ichida 2 ta go'l qayd etdi.
- ✓ **Impress** - qoyil qoldirmoq, hayron qoldirmoq
Her ability to deal with problems impresses me. – Uning muammolarni hal etishga bo'lgan iqtidori meni qoyil qoldiradi.
- ✓ **Income** - daromad
What is your approximate annual income? – Sizning taxminiy yillik daromadingiz qancha?
- ✓ **Industry** - sanoat
How long have you worked in the oil industry? – Neft sanoatida qancha muddat ishlagansiz?
- ✓ **Interview** - intervyu olmoq
He was interviewed on the radio this morning. – Bugun tongda undan radioda intervyu olindi.
- ✓ **Interview** - intervyu
This is her first interview since becoming Olympic champion. – U Olimpiada chempioni bo'lganidan beri bu uning birinchi intervyusi.
- ✓ **Leader** - yetakchi
Victoria became a manager because she's a good leader. – Viktoriya ish boshqaruvchi bo'ldi chunki u yaxshi yetakshi.
- ✓ **Manager** - ish boshqaruvchi
I'd like to speak to the manager. – Ish boshqaruvchi bilan gaplashishni istayman.
- ✓ **Pension** - pensiya, nafaqa
My grandma stopped working three years ago and now she gets a pension. – Buvim 3 yil avval ishlashni to'xtatgan va hozirda u nafaqa oladi.
- ✓ **Poverty** - kambag'allik, nochorlik
Half the world's population is living in poverty. – Dunyo aholisining yarmi nochorlikda kun kechirmoqda.
- ✓ **Pressure** - bosim
My parents put me under a lot of pressure at school. – Ota-onam men maktabda bo'lgan paytimda menga qattiq bosim o'tkazishgan.
- ✓ **Previous** - dastlabki
All the other guests had arrived the previous day. – Qolgan barcha mehmonlar bir kun avval yetik kelgan edilar.
- ✓ **Profession** - kasb
Her father discouraged her from going into the legal profession. – Otasi uni huquqiy kasbga kirishdan qaytardi.
- ✓ **Retire** - iste'foga chiqmoq, ishdan bo'shab nafaqaga chiqmoq
He retired from the army last month. – U o'tgan oyda armiyadan iste'foga chiqdi.
- ✓ **Salary** - maosh
Lisa gets an annual salary of €30,000. – Lisa 30,000 yevro miqdorida yillik maosh oladi.
- ✓ **Staff** - ishchi-xodimlar

She joined the staff in 1996. – U xodimlar safiga 1996-yilda qo'shilgan.

✓ **Strike** - ish tashlash

There's a train strike in the city. – Shaharda poyezd xodimlari ish tashlash amalga oshirishmoqda.

✓ **Tax** - soliq solmoq

Everyone in my country pays 20 per cent tax on any money they earn. – Mening mamlakatimda hamma ishlab topgan har qanday pulining 20% miqdorida soliq to'laydi.

✓ **Tax** - soliq

The government has promised to lower taxes after the election. – Hukumat saylovdan so'ng soliqlarni kamaytirishni va'da qildi.

✓ **Wealthy** - boy

Ian became a very wealthy businessman. – Ian juda boy biznesmenga aylandi.

Phrasal verbs

✓ **Call off** - bekor qilmoq

The concert has been called off because of the weather. – Konsert ob-havo tufayli bekor qilindi (qoldirildi).

✓ **Give back** - qaytarib bermok

Could you give my CDs back because you've had them for two weeks. – Mening CD disklarimni qaytarib bera olasizmi, chunki ular 2 haftadan beri sizda.

✓ **Go on** - sodir bo'lmoq

There isn't much going on in this town in the evening. – Shaharda oqshom paytlari ko'p narsa sodir bo'lmaydi.

✓ **Put off** - kechiktirmok, keyinroqqa qoldirmok

Can we put the meeting off until tomorrow? – Majlisni ertangi kunga qoldirsak bo'ladimi?

✓ **Set up** - boshlamoq, yo'lga qo'ymoq (masalan, biznes yoki biror tashkilotni yuritishni)

My dad is going to set up a taxi company. – Dadam taksi kompaniyasini yo'lga qo'ymoqchi.

✓ **Stay up** - kechgacha uxlamasdan uyg'oq o'tirmok

We stayed up until two o'clock last night. – Biz kecha tunda soat 2 gacha uxlamadik.

✓ **Take away** - olib ketmoq, olib tashlamoq

Have they taken the rubbish away yet? – Axlatni olib ketishdimi?

✓ **Take over** - nazoratni qo'lga olmoq

The shopping center has been taken over by an American company. – Savdo markazi nazorati bir Amerika kompaniyasi tomonidan tortib olindi.

Prepositional phrases

✓ **At the moment** - hozir, ayni vaqtda

I'm busy at the moment. – Men ayni damda bandman.

✓ **In charge (of)** - (...ning) nazoratiga javobgar, mas'ul

I'd like to speak to the person in charge. – Men mas'ul shaxs bilan gaplashmoqchiman.

✓ **On business** - ish yuzasidan

I travel a lot on business. – Men ish yuzasidan ko'p sayohat qilaman.

- ✓ **On strike** - ish tashlayotgan

We got a day off school because our teachers were on strike. – Maktabdan dam oldik chunki o'qituvchilarimiz ish tashlashmoqda.

- ✓ **On time** - o'z vaqtida

Make sure you are here on time tomorrow. – Ertaga o'z vaqtida shu yerda bo'lishga ishonch hosil qiling.

- ✓ **On duty** - xizmatda, ishda

My dad's a policeman and he's often on duty at night. – Mening dadam politsiyachi va u ko'pincha tunda xizmatda bo'ladi.

- ✓ **Off duty** - xizmatda emas, ish vaqtdan tashqarida

He looks completely different when he's off duty and in his normal clothes. – U xizmatdan tashqarida va odatiy kiyimida bo'lgan vaqtda umuman boshqacha ko'rinadi.

Word formation

- ✓ **Assist** - yordam bermoq

We will assist you in finding somewhere to live. – Sizga yashash uchun biror joy topishingizga yordam beramiz.

- ✓ **Assistant** - yordamchi

My mum has an assistant at work who helps her. – Oyimning ish joyida yordamlashib turadigan yordamchisi bor.

- ✓ **Assistance** - yordam

The police officer offered her assistance to the old women. – Politsiya ofitseri qariya ayollarga o'z yordamini taklif qildi.

- ✓ **Beg** - sadaqa so'ramoq, yolvorib so'ramoq

The children were begging for food. – Bolalar ovqat so'rashayotgandi (sadaqa tariqasida).

- ✓ **Beggar** - tilanchi, gadoy

I was surprised to see beggars on the streets of London. – London ko'chalarida tilanchilarni ko'rib ajablandim.

- ✓ **Boss** - boshliq

He isn't anything like my first boss. – U mening birinchi boshlig'imga umuman o'xshamaydi.

- ✓ **Bossy** - buyruq berishni yoqtiradigan

Stop telling me what to do and don't be so bossy all the time! – Menga nima qilishimni aytishni to'xtating va har doim buyruq beravermang!

- ✓ **Employ** - ish bilan ta'minlamoq

His company currently employs 135 workers in total. – Uning kompaniyasi ayni damda jami hisobda 135 nafar ishchini ish bilan ta'minlab turibdi.

- ✓ **Employment** - ish

What kind of employment are you looking for, Mr Rogers? – Qanday ish turini izlamoqdasiz, Janob Rojerz?

- ✓ **Unemployment** - ishsizlik

Unemployment is a really big problem in this area. – Bu hududda ishsizlik juda katta muammo.

- ✓ **Employer** - ish bilan ta'minlovchi shaxs

Your employer is responsible for providing training. – Sizni ish bilan ta'minlagan shaxs sizni malaka oshirish mashg'uloti bilan ta'minlashga mas'ul.

- ✓ **Employee** - ishchi

Our boss doesn't always let all the employees know what's happening. – Bizni boshliq har doim ham barcha ishchilarga (kompaniyada) nimalar sodir bo'layotganini aytavermaydi.

- ✓ **Unemployed** - ishsiz

My uncle has been unemployed for more than five years now. – Mening amakim 5 yildan beri ishsiz.

- ✓ **Fame** - mashhurlik

She went to Hollywood in search of fame and fortune. – U mashhurlik va boylik izlab Halivudga [inglizchada talaffuzi shunday] bordi.

- ✓ **Famous** - mashhur

I'm quite shy, so I don't think I'd like to be famous. – Men juda tortinchoqman, shunday ekan men mashhur bo'lishni istagan bo'lardim deb o'ylamayman.

- ✓ **Occupy** - biror ish bilan biror kimni band qilmoq

She occupied herself with routine office tasks. – U o'zini doimiy ofis ishlari bilan band qildi.

- ✓ **Occupation** - bandlik turi (ishlash yoki ishlamasligi)

The form asked for my occupation and I wrote 'Student'. – Anketa mening bandlik turimni so'radi va men 'Talaba' deb yozdim.

- ✓ **Office** - ofis, ish joyi

I'm sorry, Mr Anders is not in the office today. – Afsusdaman, ammo Janob Anderz bugun ish joyida emas.

- ✓ **Officer** - ofitser

A police officer saw the man take the bicycle and started to chase after him. – Politsiya ofitseri erkak velosipedni olganini ko'rdi va uni quvishni boshladi.

- ✓ **Official** - rasmiy

They haven't made an official announcement of the reason for the delay yet. – Ular haligacha kechiktirish sababini rasmiy tarzda e'lon qilishgani yo'q.

- ✓ **Unofficial** - rasmiy emas

The decision is unofficial until the boss signs the agreement. – Boshliq kelishuvni imzolashiga qadar, qaror rasmiy emas.

- ✓ **Retire** - nafaqaga chiqmoq

He is retiring next year after 30 years with the company. – U kelasi yilda nafaqaga chiqadi, kompaniya bilan birga bo'lgan 30 yildan so'ng.

- ✓ **Retired** - nafaqadagi

My grandad is retired and has a lot of hobbies. – Mening bobom nafaqada va uning juda ko'p sevimli mashg'ulotlari bor.

- ✓ **Retirement** - nafaqaga chiqish

My dad seems to be looking forward to retirement. – Dadam nafaqaga chiqishni intiqib kutayotganga o'xshaydi.

- ✓ **Safe** - xavfsiz, xavfdan holi
Your secret is safe with me. – Sizni siringiz men bilan xavfdan holi bo'ladi (= men uni hech kimga aytmayman).
- ✓ **Save** - saqlab qolmoq, qutqarib qolmoq
The man next to me saved me when I almost fell in front of the train. – Meni yonimda turgan odam poyezd qarshisida yiqilib tushay deganimda meni saqlab qoldi.
- ✓ **Unsafe** - xavfsiz emas, xavfli
Don't go into that old house—it's unsafe. – Bu eski uyga kirmang—u xavfsiz emas.
- ✓ **Safety** - xavfsizlik
Safety at work is very important. – Ish joyida xavfsizlik juda muhim.
- ✓ **Succeed** - muvaffaqiyatga erishmoq, uddasidan chiqmoq
We succeeded in repairing the engine. – Biz motorni tuzatishni uddasidan chiqdik.
- ✓ **Success** - muvaffaqiyat
What's the secret of your success? – Muvaffaqiyatingiz siri nimada?
- ✓ **Successful** - muvaffaqiyatli
Work hard and I'm sure you'll be successful. – Qattiq ishleng va ishonchim komilki siz muvaffaqiyatli bo'lasiz.
- ✓ **Unsuccessful** - muvaffaqiyatsiz
I was unsuccessful in changing his mind. – Men uning fikrini o'zgartirishda muvaffaqiyatsizlikka uchradim (= o'zgartira olmadim).

Word patterns

adjectives

- ✓ **Careful with** - bilan ehtiyotkor, ga e'tiborli
Please be careful with that vase—it was my grandmother's. – Iltimos, bu vazaga e'tiborli bo'ling—u buvimniki bo'lgan.
- ✓ **Difficult for** - uchun qiyin
It must be difficult for Peter, having so many sisters. – Buncha ko'p opa-singillari bo'lish... Piterga qiyin bo'lsa kerak.
- ✓ **Fed up with** - dan zerikkan, to'yib ketgan
I'm fed up with working here. – Men bu yerda ishlashdan to'yib ketdim.
- ✓ **Ready for** - uchun tayyor
Are you ready for your exam tomorrow? – Ertangi imtihoningizga tayyormisiz?
- ✓ **Responsible for** - uchun mas'ul
Who's responsible for cleaning the classroom? – Sinfni tozalashga kim mas'ul?

verbs

- ✓ **Apply for** - uchun ariza topshirmoq
Yiota has applied for a job at the new hotel. – Yiota yangi mehmonxonaga ishga kirish uchun ariza topshirdi.
- ✓ **Depend on** - ga bog'liq

Going to see your cousins this weekend depends on the weather. – Kelayotgan dam olish kunida qarindoshlarni ko'rgani borishimiz ob-havoga bog'liq.

- ✓ **Inform sb about** - kimgadir biror narsa haqida xabar bermoq
Please inform a member of staff about any problems you may have. – Iltimos, sizda uchrashi mumkin bo'lgan har qanday muammolar haqida xodimlardan biriga xabar bering.
- ✓ **Refer to** - haqida gapirmoq, deb murojaat qilmoq, tilga olmoq
I realized Doug was in charge when one of the others referred to him as 'the boss'. – Boshqalardan biri 'boshliq' deb Dog haqida gapirganida, men nazorat uning qo'lida ekanligini angladim.
- ✓ **Work as** - ... bo'lib ishlamoq
I've always wanted to work as a lawyer. – Men har doim huquqshunos bo'lib ishlashni istaganman.
- ✓ **Work for** - uchun ishlamoq
Rupert isn't a bad boss to work for. – Rupert ishlash uchun yomon xo'jayin emas (=Rupertning qo'l ostida ishlasa bo'ladi).

nouns

- ✓ **A kind of** - ning turi
Haddock is a kind of fish. – Hadek baliqning bir turi.

UNIT 30. BODY AND LIFESTYLE

Topic vocabulary

- ✓ **Affect** - salbiy ta'sir qilmoq
Did the newspapers really affect the outcome of the election? – Gazetalar rostdanham saylov natijasiga ta'sir o'tkazdimi?
- ✓ **Balance** - muvozanatda saqlamoq
We have to balance the needs and tastes of all our customers. – Biz barcha xaridorlarimizning ehtiyojlari va afzalliklarini muvozanatda saqlashimiz lozim.
- ✓ **Balance** - muvozanat
A healthy diet is about getting the correct balance of a variety of foods. – Sog'lom ovqatlanish bu turli-tuman yeguliklarni to'g'ri muvozanatda qabul qilishga bog'liqdir.
- ✓ **Benefit** - foyda olmoq, foyda ko'rmoq
Thousands of people could benefit from the invention. – Minglab insonlar bu ixtirodan foyda ko'rishlari mumkin.
- ✓ **Benefit** - foyda, naf, manfaat, afzallik
He has had the benefit of the best education money can buy. – U pulga sotib olish mumkin bo'lgan eng zo'r ta'lim afzalligiga ega bo'lgan.
- ✓ **Breathe** - nafas olmoq
Doctors said he was having difficulty breathing. – Shifokorlar aytishdiki, u nafas olishga qiynalayotgan ekan.
- ✓ **Chew** - chaynamoq
She chewed her food slowly. – U ovqatini sekinlik bilan chaynadi.

- ✓ **Chop** - to'g'ramoq, kesmoq
Chop the meat into small pieces. – Go'shtni kichik qismlarga bo'lib to'g'rang.
- ✓ **Contain** - o'z ichiga olmoq, ichida biror nima bor bo'lmoq
The envelope contained a few old photographs. – Konvertda bir nechta eski fotosuratlar bor edi.
- ✓ **Cough** - yo'talmoq
My chest felt painful, and I was coughing uncontrollably. – Ko'kragim og'riq his qilardi, va men nazorat qilib bo'lmas darajada yo'talardim.
- ✓ **Cough** - yo'tal
I've got a bad cough. – Menda qattiq yo'tal bor.
- ✓ **Cure** - davolamoq
Only an operation will cure her. – Faqatgina operatsiya uni davolaydi.
- ✓ **Cure** - davo, dori-darmon
Doctors say there are several possible cures. – Shifokorlar aytishicha, bir nechta ehtimoliy davo bor ekan.
- ✓ **Exercise** - mashq qilmoq
Do you eat properly and exercise regularly? – To'g'ri ovqatlanib, muntazam ravishda mashq qilasizmi?
- ✓ **Exercise** - mashq
I get plenty of exercise being an aerobics instructor. – Aerobika murabbiyi sifatida men juda ko'p mashq qilaman.
- ✓ **Flu** - grip
My dad has got flu. – Dadam grip bo'lib qoldi.
- ✓ **Have an operation** - operatsiyani boshdan o'tkazmoq
The baby had to have an operation. – Chaqaloq operatsiya boshdan o'tkazishga to'g'ri keldi.
- ✓ **Healthy** - sog'lom
I feel very healthy at the moment. – Ayni damda o'zimni juda sog'lom his qilyapman.
- ✓ **Ignore** - e'tiborsiz qoldirmoq
We had ignored the fact that it was getting darker. – Biz qorong'u tushib borayotganini e'tiborsiz qoldirgandik.
- ✓ **Infection** - infeksiya
I've got a throat infection. – Tomog'imda infeksiya bor.
- ✓ **Ingredient** - masalliq, tarkibiy qism
Mix all the ingredients together carefully. – Barcha masallqlarni ehtiyotkorlik bilan aralashtiring.
- ✓ **Injury** - jarohat, shikast
All the passengers in the vehicle escaped injury. – Transport vositasidagi barcha yo'lovchilar jarohatdan qutulib qolishdi (= jarohatlanishmadi).
- ✓ **Limit** - cheklamoq
We want to limit classes to a maximum of 30 pupils. – Biz sinflarni eng ko'pi bilan 30 nafar o'quvchiga cheklamoqchimiz.
- ✓ **Limit** - chek, chegara
The speed limit here is 40 miles an hour. – Bu yerda tezlik chegarasi (= eng yuqori tezlik) soatiga 40 milya.

- ✓ **Meal** - taom
He cooked us a delicious meal. – U bizga mazali taom pishirib berdi.
- ✓ **Pill** - tabletka shaklidagi dori
Did you remember to take your pills this morning? – Bugun tongda tabletkalarni qabul qilishni (= ichishni) unutmadingizmi?
- ✓ **Recover** - sog'aymoq
I haven't fully recovered from the flu. – Men gripdan to'liq sog'ayganimcha yo'q.
- ✓ **Salty** - sho'r
This soup is very salty. – Bu sho'rva juda sho'r.
- ✓ **Slice** - kesmoq, tilimlamoq, bo'lmoq
I'll slice some bread. – Men ozgina non bo'laman.
- ✓ **Slice** - tilim, burda, bo'lak
Cut the bread into thick slices. – Nonni qalin bo'laklarga bo'ling.
- ✓ **Sour** - nordon
If it's too sour, add some sugar. – Agar juda nordon bo'lsa, ozgina shakar qo'shing.
- ✓ **Spicy** - achchiq, kuchli ta'mli
Curry should be spicy! – Kuri (o'tkir ziravorlar bilan tayyorlangan hind taomi) achchiq bo'lishi kerak!
- ✓ **Stir** - aralashtirmoq, aylantirmoq
Stir the sauce gently over a low heat. – Qaylani quyi haroratda astalik bilan aralashtiring.
- ✓ **Suffer** - biror kasallikdan aziyat chekmoq
I'm suffering from a cold at the moment. – Men ayni damda shamollashdan aziyat chekyapman.
- ✓ **Taste** - tatib ko'rmoq
The dinner was one of the best meals I've ever tasted. – Kechki ovqat (hayotim davomida) tatib ko'rgan taomlarim ichida eng zo'rlaridan biri bo'ldi.
- ✓ **Taste** - ta'm, maza
I love the taste of chocolate. – Men shokolad ta'mini yaxshi ko'raman.
- ✓ **Treatment** - davo
What's the best treatment for this disease? – Bu kasallikka eng yaxshi davo nima?
- ✓ **Vitamin** - vitamin
Oranges contain lots of vitamin C. – Apelsinlar juda ko'p C vitaminini o'z ichida mujassam qiladi.

Phrasal verbs

- ✓ **Cut down (on)** - biron narsaning iste'molini kamaytirmoq, kamroq bajarmoq
I'm trying to cut down on the amount of sugar I eat. – Iste'mol qiladigan shakar miqdorimni kamaytirishga harakat qilyapman.
- ✓ **Fall down** - yiqilib tushmoq
I fell down and hurt my knee. – Men yiqilib tushdim va tizzamni shikastlab oldim.
- ✓ **Get over** - sog'aymoq
It can take weeks to get over an illness like that. – Bu kabi kasallikdan sog'ayish uchun haftalab vaqt ketadi.

- ✓ **Go off** - aynib qolmoq
Has this milk gone off? – Bu sut aynib qolganmi?
- ✓ **Lie down** - yotmoq
I'm going to go and lie down for a while. – Borib biroz yotmoqchiman.
- ✓ **Put on** - vazn orttirmoq
I don't want to put on any more weight! – Boshqa vazn orttirishni istamayman!
- ✓ **Sit down** - o'tirmoq
Please, sit down and make yourselves comfortable. – Marhamat o'tiring va o'zingizni qulay his qiling.
- ✓ **Stand up** - turmoq
You have the chair. I don't mind eating standing up. – Stolni oling. Men turib ovqatlanishga qarshi emasman.

Prepositional phrases

- ✓ **At night** - tunda
It usually gets dark at night. – Odatda tunda qorong'u tushadi.
- ✓ **At risk** - xavf ostida
You're at risk of failing the exam if you don't work harder. – Agar qattiqroq harakat qilmasangiz, imtihondan yiqilish xavfi ostida qolasiz.
- ✓ **In addition (to)** - bundan tashqari, (biron narsaga) qo'shimcha tarzda
In addition to all the food, we took some games to play. – Barcha yegulikdan tashqari, o'ynash uchun ozgina o'yinlar ham oldik.
- ✓ **In comparison to/with** - bilan taqqoslaganda
Germany is very small in comparison with Russia. – Rossiya bilan taqqoslaganda Germaniya juda kichik.
- ✓ **In shape** - yaxshi qomatda
It's important to me to stay in shape, so I go to the gym whenever I can. – Yaxshi qomatda qolish men uchun muhim, shuning uchun qo'limdan kelgan payti zalga boraman.
- ✓ **On a diet** - parhezda
I'm on a diet at the moment so I'm not eating any fatty food. – Ayni damda men parhezdaman, shuning uchun hech qanday yog'li ovqat yemayapman.

Word formation

- ✓ **Bake** - pechda pishirmoq
I'm baking a birthday cake for Alex. – Men Alex uchun tug'ilgan kun to'rti pishiryapman.
- ✓ **Baker** - novvoy
The baker is making a cake for the party. – Novvoy bazm uchun to'rt pishiryapti.
- ✓ **Bakery** - novvoyxona
I'll go to the bakery to get some bread. – Ozgina non olgani novvoyxonaga borib kelaman.
- ✓ **Bend** - egmoq, bukmoq

The doctor told me to avoid bending and stretching. – Shifokor menga egilmaslik va cho'zilmaslikka harakat qilishimni tayinladi.

- ✓ **Bent** - bend fe'lining past simple va past participle shakllari
I had an accident on my bike and now the front wheel is bent. – Velosipedimda avarayiga uchradim va hozir old g'ildirak bukilib qolgan.
- ✓ **Cook** - pishirmoq/oshpaz, pazanda
John is a very good cook. – Jon juda yaxshi pazanda.
- ✓ **Cooker** - gaz plitasi
We bought a new gas cooker yesterday. – Kecha biz yangi gaz plitasi sotib oldik.
- ✓ **Cookery** - taomlarning tayyorlanishi va retsepti yozilgan kitob
Can I borrow your cookery book? – Sizning retseptlar kitobingizni olib tursam bo'ladimi?
- ✓ **Intend** - mo'ljallamoq, rejalashtirmoq
He intends to retire at the end of this year. – U yil oxirida nafaqaga chiqishni mo'ljallashtiryapti.
- ✓ **Intention** - niyat, maqsad
It wasn't my intention to upset you. – Mening maqsadim sizni xafa qilish emas edi.
- ✓ **Intentional** - atayin qilingan
It wasn't intentional! I did it by mistake! – Bu atayin emasdi! Uni yanglishib qilib qo'ydim!
- ✓ **Jog** - yengil yugurmoq
She usually jogs around her local park. – U odatda mahalliy park atrofida yuguradi.
- ✓ **Jogging** - yengil yugurish (sport turi)
I go jogging every morning. – Men har tong yugurishga chiqaman.
- ✓ **Jogger** - mashq tarzida yengil yuguruvchi
The park is full of joggers in the morning. – Tongda park yuguruvchilarga to'la.
- ✓ **Medicine** - dori/tibbiyot
Did you take your medicine? – Doringizni qabul qildingizmi?
Modern medicine has not yet found a cure for the common cold. – Zamonaviy tibbiyot ko'p uchraydigan shamollash uchun haligacha davo topgani yo'q.
- ✓ **Medical** - tibbiy
Is it a serious medical problem? – Bu jiddiy tibbiy muammomi?
- ✓ **Pain** - og'riq
These pills should ease the pain. – Bu tabletkalar og'riqni yengillashtirishi kerak.
- ✓ **Painful** - og'riqli, og'riyotgan
My knee is very painful. – Tizzam juda og'riyapti.
- ✓ **Painless** - og'riqsiz
The operation is painless—it won't hurt at all. – Operatsiya og'riqsiz—umuman og'ritmaydi.
- ✓ **Reduce** - pasaytirmoq, tushirmoq
The plane reduced speed as it approached the airport. – Samalyot aeroportga yaqinlashgani sari tezlikni tushirdi.
- ✓ **Reduction** - tushish, pasayish
There's been a small reduction in the price of petrol. – Benzin narxida kichik pasayish kuzatildi.
- ✓ **Sense** - sezmoq
Sensing danger, they started to run. – Xavfni sezib, ular yugura boshlashdi.

- ✓ **Sensible** - aqlli, mulohazali
It was sensible to bring an umbrella. – Soyabon olib kelish aql bilan qilingan ish bo'ldi.
- ✓ **Sensitive** - ta'sirchan, nozik qalbli
Dave is very sensitive, so don't criticize him. – Deyv juda ta'sirchan, shuning uchun uni tanqid qilmang.
- ✓ **Weigh** - vazn bosmoq
She weighs 60 kilos. – U 60 kilogram.
- ✓ **Weight** - vazn
You don't need to lose weight. – Siz vazn yo'qotishingiz kerak emas.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Addicted to** - ga o'rganib qolgan
I'm glad I'm not addicted to drugs. – Dorilarga (= narkotikka) o'rganib qolmaganimdan xursandman.
- ✓ **Allergic to** - ga allergiyasi bor
My mum is allergic to gold, so she can't wear any gold jewellery. – Oyimning tillaga allergiyasi bor, shuning uchun u hech qanday tilla taqinchoqlar taqa olmaydi.
- ✓ **Covered in/with** - bilan to'la, bilan qoplangan
My shoes are covered in/with mud. – Oyoq kiyimlarim loy bilan to'ldi.
- ✓ **Pleased with** - dan mamnun
Are you pleased with your exam results? – Imtihon natijalaraningizdan mamnunmisiz?

verbs

- ✓ **Combine sth with** - bilan qo'shmoq, birlashtirmoq
If you combine oxygen with hydrogen, you get water. – Agar kislorodni vodorod bilan birlashtirsangiz, suv olasiz.
- ✓ **Complain (to sb) about** - (biron kimga) biron narsa haqida shikoyat qilmoq
I'm going to complain to the manager about this. – Men bu haqida ish boshqaruvchiga arz qilmoqchiman.
- ✓ **Die from/of** - tufayli o'lmoq
You won't die from/of a cold! – Shamollashdan o'lmaysiz!
- ✓ **Fight against** - ga qarshi jang qilmoq, urushmoq
The two countries once fought against each other in a war. – Bu ikki davlat bir vaqtlar urush paytida bir-biriga qarshi jang qilgan.
- ✓ **Recover from** - dan sog'aymoq
I hope you've recovered from your injury. – Jarohatingizdan sog'aydingiz degan umiddaman.
- ✓ **Smell of** - ning hidini taratmoq
These sweets smell of flowers. – Bu shirinliklar gul kabi hid taratadi.

nouns

- ✓ **A cure for** - uchun davo
Will they ever find a cure for this disease? – Qachondir bu kasallikka davo topiladimi?

- ✓ **A recipe for** - uchun retsept

My mum has got a great recipe for chocolate cake. – Oyimning shokoladli to'rt uchun ajoyib retsepti bor.

UNIT 33. CREATING AND BUILDING

Topic vocabulary

- ✓ **Ancient** - eski, qadimiy

They've found an ancient city at the bottom of the sea. – Dengiz qarida qadimiy shahar topishdi.

- ✓ **Checked** - katak-katak

I got a new red and blue checked shirt. – Men yangi qizil va ko'k rangli katak-katakli ko'ylak oldim.

- ✓ **Cotton** - paxta

Is this shirt made out of cotton? – Bu ko'ylak paxtadan tikilganmi?

- ✓ **Create** - yaratmoq

How do I create a new file? – Qanday qilib yangi fayl yarataman?

- ✓ **Design** - dizaynlashtirmoq

The bride wore a dress that she'd designed herself. – Kelin o'zi dizaynlashtirgan libosni kiydi.

- ✓ **Design** - dizayn

The car has a new design. – Avtomobil yangi dizaynga ega.

- ✓ **Fix** - tuzatmoq

Jessica fixed my watch. – Jesika mening soatimni tuzatib berdi.

- ✓ **Fold** - taxlamoq, buklamoq, qayirmoq

Fold the paper in half. – Qog'ozni ikkiga buklang.

- ✓ **Gallery** - san'at galareyasi

We could go to a museum or a gallery this weekend. – Kelayotgan dam olish kunida muzey yoki san'at galareyasiga borishimiz mumkin.

- ✓ **Improvement** - yaxshilanish

There has been an improvement in relations between the two countries. – Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda yaxshilanish kuzatildi.

- ✓ **Loose** - keng

These jeans are a bit loose, so maybe I need a smaller size. – Bu jensilar biroz kengroq, shuning uchun balkim menga kichikroq o'lchamdagisi kerakdir.

- ✓ **Maintain** - ta'mirlab yaxshi holatda saqlamoq

The car had been very well maintained. – Mashina yaxshi ta'mirlangandi.

- ✓ **Match** - mos tushmoq

She wore a green dress and a hat to match. – U yashil libos hamda shunga mos tushishi uchun bosh kiyim kiyib olgandi (= yashil bosh kiyim).

- ✓ **Material** - material

What sort of material is your dress made from? – Libosingiz qanday materialdan tikilgan?

- ✓ **Notice** - payqamoq, sezmoq

After a few days here you hardly notice the rain! – Bu yerda bir necha kun o'tkazgandan keyin, yomg'irni deyarli sezmay qolasiz!

- ✓ **Notice** - e'lon, ishora, ogohlantirish

They put up a notice on the door saying they'd gone out of business. – Ular biznesdan chiqishgani to'g'risida eshikka e'lon osib qo'yishdi.

- ✓ **Pattern** - naqsh, bezak

I like the pattern on your carpet. – Gilamingizdagi naqsh menga yoqdi.

- ✓ **Pile** - uyum, to'da

Rubbish lay in piles in the street. – Ko'chada axlat uyum-uyum bo'lib to'planib yotibdi.

- ✓ **Practical** - amaliy

Practical experience can be as valuable as academic qualifications. – Amaliy tajriba akademik bilim-diplomlar kabi ahamiyatli bo'la oladi.

- ✓ **Rough** - g'adir-budur

The walls were built of dark rough stone. – Devorlar qora g'adir-budur toshdan bino etilgan.

- ✓ **Shape** - shakl

Trace the shape onto the card and cut it out. – Shaklni karta ustiga chizing va uni kesib oling.

- ✓ **Silk** - ipak

I love your new silk shirt! – Ipakdan tikilgan yangi ko'ylagingiz menga yoqdi!

- ✓ **Sleeve** - yeng

Oh, no! I've got a hole in one of my sleeves. – O, yo'q! Ko'ylagimni bir yengida teshik bor ekan.

- ✓ **Smooth** - mayin, yumshoq

How do you keep your skin so smooth? – Teringizni qanday qilib bunchalik mayin tutasiz?

- ✓ **Stretch** - cho'zmoq, tortmoq

Can you stretch the material a little? – Materialni biroz cho'za olasizmi?

- ✓ **Striped** - yo'l-yo'l chiziqli

There was a blue and white striped tablecloth on the table. – Stol ustida ko'k va oq rangli yo'l-yo'l chiziqli dasturxon bor edi.

- ✓ **Style** - uslub, stil

I don't like the style of dresses that are out now. – Menga hozirgi liboslarning stili yoqmaydi.

- ✓ **Suit** - biror kimga yarashmoq, mos tushmoq

The new hairstyle really suits her. – Yangi soch turmagi unga juda yarashibdi.

- ✓ **Suit** - kostyum-shim

He was wearing a dark suit and a tie. – U qora kostyum-shim va bo'yinbog' kiyib olgandi.

- ✓ **Suitable** - mos

This film is not suitable for young children. – Ushbu film yosh bolalar uchun mos emas.

- ✓ **Tear** - yirtmoq

He'd torn his raincoat. – U yomg'ir o'tkazmaydigan paltosini yirtib tashlagandi.

- ✓ **Tight** - tor

These shoes are too tight. – Bu oyoq kiyimlar juda ham tor.

- ✓ **Tool** - asbob, ish quroli

Do you know where my gardening tools are? – Bog'bonchilik ish qurollarim qayerdaligini bilasizmi?

Phrasal verbs

- ✓ **Cut off** - kesib tashlamoq
Keep your roses healthy by cutting off any dead flowers. – Har qanday so'lib qolgan gullarni kesib tashlash orqali atirgullaringizni sog'lom saqlang.
- ✓ **Do up** - tugmani taqmoq, zamogni taqmoq
It's very windy, so do your coat up. – Havo juda shamolli, shunday ekan paltoyingizni tugmasini taqib oling.
- ✓ **Fill up** - to'ldirmoq
Just fill this bowl up with sugar and put it on the table. – Shunchaki kosani shakar bilan to'ldiring va stol ustiga qo'ying.
- ✓ **Have on** - kiyib olmoq
The man had a strange hat on. – U erkak g'alati bir bosh kiyim kiyib olgandi.
- ✓ **Leave out** - ajratmoq, qo'shmaslik
Don't leave your brother out-let him play with you and your friends. – Akangizni ajratib qo'ymang-unga siz va do'stlaringiz bilan birga o'ynashiga ruxsat bering.
- ✓ **Put on** - kiymoq
Put your gloves and scarf on-it's cold outside. – Qo'lqoplaringiz va sharfingizni kiyib oling-tashqari sovuq.
- ✓ **Take off** - yechmoq
It felt good to finally take my shoes off after a long day. – Uzun kundan keyin va nihoyat oyoq kiyimlarimni yechish yaxshi tuyuldi.
- ✓ **Try on** - kiyib ko'rmoq; mos tushish-tushmasligini tekshirish uchun
You should try it on to see if it's the right size. – To'g'ri o'lchamda ekanligini tekshirish uchun uni kiyib ko'rishingiz kerak.

Prepositional phrases

- ✓ **At the back (of)** - orqasida
Let's go and sit at the back. – Keling, orqada o'tiramiz (=orqa sideniyada).
- ✓ **At the end (of)** - ning oxirida
At the end of the film, everyone got married. – Filmning oxirida, hamma turmush qurdi.
- ✓ **In fashion/style** - urfda
Those shoes are really in fashion at the moment. – Bu oyoq kiyimlar ayni damda rosayam urfda.
- ✓ **In front (of)** - ning to'g'risida, oldida
Don't worry-you can park in front of our house. – Havotir olmang-mashinangizni bizni uyimizning to'g'risiga qo'yishingiz mumkin.
- ✓ **In the corner (of)** - ning burchagida
In the corner of the room there was a guitar. – Xonaning burchagida gitara bor edi.
- ✓ **Out of fashion/style** - urfda emas
Things seem to go out of fashion very quickly these days. – Hozirgi kunlarda narsalar juda tezlik bilan urfdan chiqib ketayotganga o'xshaydi.

Word formation

- ✓ **Art** - san'at, rassomchilik
Many people from the art world attended the funeral. – Dafn marosimiga san'at dunyosidan ko'plab odamlar qatnashishdi.
- ✓ **Artist** - rassom
Picasso was a great artist. – Pikaso buyuk rassom bo'lgan.
- ✓ **Artistic** - yaratuvchan
Ralph has always been artistic and he loves drawing. – Ralf har doim yaratuvchan bo'lib kelgan va unga rasm chizish yoqadi.
- ✓ **Break** - sindirmoq
She was frightened that the glass would break. – U shisha sinib ketishidan qo'rquvda edi.
- ✓ **Broke** - break fe'lining past simple shakli
I dropped the cup on the floor and it broke. – Men krushkani yerga tushirib yubordim va u sindi.
- ✓ **Broken** - break fe'lining past participle shakli
You can't use my MP3 player because it's broken. – Mening MP3 pleyerimni ishlata olmaysiz, negaki u singan.
- ✓ **Breakable** - sindirsa bo'ladigan
Are these pots breakable? – Mana bu qozonlar sinadiganmi?
- ✓ **Unbreakable** - sindirib bo'lmas
This window is made out of unbreakable glass. – Bu oyna sinmas shishadan yasalgan.
- ✓ **Compose** - yaratmoq, bastalamoq
Mozart composed his last opera shortly before he died. – Motsart o'lishidan biroz oldin o'zining so'nggi operasini yozgan.
- ✓ **Composition** - bayon
Please give me your compositions on Thursday. – Iltimos, bayonlaringizni payshanba kuni menga beringlar.
- ✓ **Composer** - bastakor
Mozart is my favourite composer. – Mozart mening sevimli bastakorim.
- ✓ **Exhibit** - namoyish qilmoq, ko'rgazma o'tkazmoq
He exhibits regularly in local art galleries. – U muntazam ravishda mahalliy san'at galareyalarida ko'rgazma o'tkazib turadi.
- ✓ **Exhibition** - ko'rgazma, namoyish
Have you seen the Egyptian exhibition at the museum? – Muzezdagi Misr ko'rgazmasini ko'rdingizmi?
- ✓ **Free** - erkin, ozod
They declared the slaves free. – Ular qullarni ozod deb e'lon qilishdi.
- ✓ **Freedom** - erkinlik, ozodlik
People often have to fight for their freedom. – Insonlar ko'pincha o'z ozodliklari uchun kurashishlariga to'g'ri keladi.
- ✓ **Hand** - qo'l
Put your hand up if you know the answer. – Agar javobni bilsangiz, qo'lingizni yuqoriga ko'taring.

- ✓ **Handful** - bir hovuch, bir siqim
I asked my dad for some money and he gave me a handful of coins. – Men dadamdan biroz pul so'ragandim va u menga bir hovuch tanga berdi.
- ✓ **Handle** - tutqich
Put the money in, pull the handle and your chocolate bar comes out here. – Pulni tiqing, tutqichni torting va sizning shokoladingiz bu yerga chiqadi.
- ✓ **Imagine** - tasavvur qilmoq
I can't imagine life without the children now. – Hozir hayotni bolalarsiz tasavvur qilolmayman.
- ✓ **Imagination** - tasavvur
Theresa has got a lot of imagination. – Tereza juda ko'p tasavvurga ega.
- ✓ **Imaginative** - tasavvurga boy, kreativ, o'zgacha
Your story was really imaginative. – Hikoyangiz juda kreativ edi.
- ✓ **Intelligent** - aqlli, idrokli
Elephants are intelligent creatures and enjoy interacting with humans. – Fillar idrokli jonzoqlar va insonlar bilan muloqot qilishdan rohatlanishadi.
- ✓ **Intelligence** - aql-idrok, zukkolik
It's not easy to measure the intelligence of chimpanzees. – Shimpanzelarning aql-idrokini o'lchash oson emas.
- ✓ **Perfect** - a'lo, mukammal
Well I'm sorry—but nobody's perfect. – Yaxshi, afsusdaman—ammo hech kim mukammal emas.
- ✓ **Perfection** - mukammallik
You can make your painting better and better, but perfection is impossible. – Chizgan suratingizni tobora yaxshiroq qilishingiz mumkin, ammo mukammallikning iloji yo'q.
- ✓ **Imperfect** - nuqsonli
Don't feel too bad about what you did. We're all imperfect. – Qilgan ishingizdan juda xafa bo'lmang. Hammamiz ham nuqsonlimiz (= hech kim mukammal emas).
- ✓ **Prepare** - tayyorlanmoq
I had no time to prepare. – Tayyorlanishimga hech qanday vaqt yo'q edi.
- ✓ **Preparation** - tayyorgarlik
The key to a good performance is a lot of preparation. – Yaxshi chiqish qilishning kaliti juda ko'p tayyorgarlikdir.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Amazed at/by** - biror narsadan hayratda/ajabda
We were all amazed at/by the tricks the magician did. – Hammamiz sehrgar qilgan fokuslardan hayratda qoldik.
- ✓ **Disappointed with** - biror narsadan ko'ngli qolgan, hafsalasi pir bo'lgan
I like that actor, but I was disappointed with his last film. – Bu aktyor menga yoqadi, lekin uning oxirgi filmidan hafsalam pir bo'ldi.
- ✓ **Familiar with** - bilan tanish

We might need a map because I'm not very familiar with the area. – Bizga xarita kerak bo'lib qolishi mumkin, chunki hudud bilan uncha tanish emasman.

- ✓ **Involved in** - da qatnashgan, ishtirok etgan

When did he first become involved in crime? – Qachon u birinchi marta jinoyatda ishtirok etgan?

- ✓ **Similar to** - ga o'xshash

Horse meat tastes a little similar to beef, or lamb. – Ot go'shtining ta'mi mol go'shti yoki qo'zichoq go'shtiga biroz o'xshaydi.

verbs

- ✓ **Change sth (from sth) into** - nimanidir biron holatdan boshqacha holatga o'tkazmoq

In the story, the witch changes the prince from a man into a frog. – Hikoyada, jodugar shahzodani odam qiyofasidan baqa qiyofasiga o'tqazib qo'yadi.

- ✓ **Describe sth as** - deb tasvirlamoq

'Would you describe him as tall?' the police officer asked. – 'Uni bo'yi baland deb tasvirlagan bo'larmidingiz?' so'radi politsiya ofitseri.

- ✓ **Explain sth to** - biron narsani kimgadir tushuntirmoq, izohlamoq

Let me explain the rules of the game to you. – O'yin qoidalarini sizga tushuntirib berishimga ruxsat bering.

- ✓ **Remind sb of** - kimgadir biron kimni eslatmoq

Who does this picture remind you of? – Bu surat sizga kimni eslatadi?

- ✓ **Remove sth from** - biron narsani biron joydan olib tashlamoq

She removed the dirty dishes from the table. – U kir idishlarni stoldan olib tashladi.

nouns

- ✓ **An influence on** - ga ta'sir

My uncle has had a strong influence on me. – Amakim menga kuchli ta'sir o'tkazgan.

- ✓ **A picture of** - ning surati

This is a picture of a family on holiday in Africa. – Bu Afrikada dam olayotgan bir oilaning surati.

UNIT 36. NATURE AND THE UNIVERSE

Topic vocabulary

- ✓ **Amazing** - ajoyib

Her story was quite amazing. – Uning hikoyasi juda ajoyib edi.

- ✓ **Climate** - iqlim

Mexico is well known for its hot climate. – Meksika o'zining issiq iqlimi bilan mashhur.

- ✓ **Countryside** - qishloq

Let's get out of the city and go to the countryside. – Keling shahardan chiqib ketamiz va qishloqqa boramiz.

- ✓ **Environment** - atrof-muhit

Industries are causing a lot of damage to the environment. – Sanoat korxonalari atrof-muhitga juda ko'p zarar yetkazishyapti.

- ✓ **Extinct** - yo'q bo'lib ketgan, qirilib ketgan

Dinosaurs are extinct. – Dinozavrlar qirilib ketgan.

- ✓ **Forecast** - oldindan aytmoq, bashorat qilmoq
Is it difficult to forecast the weather? – Ob-havoni oldindan bashorat qilish mushkulmi?
- ✓ **Forecast** - bashorat
Have you heard the weather forecast for tomorrow? – Ertangi ob-havo bashoratini eshittingizmi?
- ✓ **Freezing** - judayam sovuq, muzdek
It's absolutely freezing in here. – Bu yer juda ham muzdek.
- ✓ **Global** - global, butun dunyoga tegishli
This is a global problem-it affects every country. – Bu global muammo-u har bir mamlakatga ta'sir o'tkazadi.
- ✓ **Heatwave** - issiq ob-havo, jazirama
Britain has been having a heatwave for the last three weeks. – Britaniyada oxirgi 3 haftadan beri jazirama kuzatilyapti.
- ✓ **Insect** - hashorat
Flies and mosquitoes are insects. – Pashshalar va chivinlar hashoratlardir.
- ✓ **Lightning** - chaqmoq
The ship was struck by lightning soon after it left the port. – Kema bandargohni tark etgandan ko'p o'tmay, uni chaqmoq urdi.
- ✓ **Litter** - axlat tashlamoq
The sign said 'No littering!' – Belgida 'Axlat tashlanmasin!' deb yozilgandi.
- ✓ **Litter** - axlat
Pick up that litter and put it in the bin. – Bu axlatni yerdan oling va qutiga tashlang.
- ✓ **Local** - mahalliy
Ask for the book in your local library. – Kitobni mahalliy kutubxonangizdan so'rang.
- ✓ **Locate** - joylashgan manzilini topmoq; **to be located** - joylashmoq
The hotel is located in Wolverhampton town centre. – Mehmonxona Vulverhempten shahri markazida joylashgan.
- ✓ **Mammal** - sut emizuvchi hayvon
Humans and monkeys are mammals. – Insonlar va maymunlar sut emizuvchilardir.
- ✓ **Mild** - iliq
It was a mild winter. – Qish iliq bo'ldi.
- ✓ **Name** - nomlamoq
How many world capitals can you name? – Nechta dunyo poytaxtlarini nomlab bera olasiz?
- ✓ **Name** - ism, nom
What's the name of this flower? – Bu gulning nomi nima?
- ✓ **Origin** - kelib chiqish
Meteorites may hold clues about the origin of life on Earth. – Meteoritlar Yerdagi hayotning kelib chiqishiga oid ma'lumotlarni o'zida saqlayotgan bo'lishi mumkin.
- ✓ **Planet** - sayyora
Mars is sometimes known as the red planet. – Mars ba'zida qizil sayyora sifatida mashhur.
- ✓ **Preserve** - saqlamoq, muhofaza qilmoq
We work hard to preserve historic buildings. – Biz tarixiy ahamiyatga ega binolarni muhofaza qilish uchun qattiq harakat qilamiz.

- ✓ **Recycle** - qayta ishlab chiqarmoq
Let's recycle those old bottles. – Keling bu eski shishalarni qayta ishlaymiz (= ulardan yangi narsalar ishlab chiqarish uchun topshiramiz).
- ✓ **Reptile** - sudralib yuruvchi hayvon
Crocodiles are reptiles. – Timsohlar sudralib yuruvchi hayvonlardir.
- ✓ **Rescue** - qutqarmoq
The crew of the ship were rescued just before it sank. – Kema ekipaji shundoqqina kema cho'kishidan avval qutqarib qolindi.
- ✓ **Rescue** - qutqaruv
Firefighters carried out the dangerous rescue. – O't o'chiruvchilar xavfli qutqaruv ishlari o'tkazishdi.
- ✓ **Satellite** - sun'iy yo'ldosh; tabiiy yo'ldosh
There are lots of satellites above the Earth. – Yerning ustida ko'plab sun'iy yo'ldoshlar bor.
- ✓ **Shower** - selday tez yog'gan yomg'ir
Tonight there's a 50 per cent chance of showers. – Bugun kechqurun 50% sel quyish ehtimoli bor.
- ✓ **Solar system** - quyosh sistemasi
How many planets are there in our solar system? – Quyosh sistemamizda nechta sayyora bor?
- ✓ **Species** - tur
Over 120 species of birds have been recorded in this national park. – Bu milliy parkda 120 dan ziyod qush turlari qayd etilgan.
- ✓ **Thunder** - momaqaldiroq
Listen to that thunder! – Momaqaldiroqni tinglang!
- ✓ **Wild** - yovvoyi
This behaviour is common in both domestic and wild dogs. – Bu xulq-atvor xonaki itlarda ham yovvoyi itlarda ham uchraydi.
- ✓ **Wildlife** - yovvoyi tabiat: hayvonlar, qushlar va o'simliklar
A lot of the local wildlife is in danger. – Ko'plab yovvoyi tabiat vakillari xavf ostida.

Phrasal verbs

- ✓ **Blow up** - portlamoq
Luckily, the bomb didn't blow up. – Yaxshiyamki, bomba portlagani yo'q.
- ✓ **Build up** - ko'paytirmoq, o'stirmoq
These exercises are good for building up leg strength. – Bu mashqlar oyoqda kuch-quvvatni ko'paytirish uchun foydali.
- ✓ **Clear up** - tozalamoq, yig'ishtirmoq
I'll clear up if you want to go to bed. – Agar uyquga yotishni istasangiz, men yig'ishtirib olaman.
- ✓ **Go out** - (olovga nisbatan) o'chib qolmoq
The fire must have gone out during the night. – Olov tun davomida o'chib qolgan bo'lsa kerak.
- ✓ **Keep out** - kirishmaslik
Cars should be kept out of the city centre. – Mashinalar shahar markaziga kiritilmasligi kerak.
- ✓ **Put down** - yerga qo'ymoq, tashlamoq

Emma put her bag down and went upstairs. – Emma sumkasini yerga qo'ydi va tepaga chiqib ketdi.

- ✓ **Put out** - yong'inni o'chirmoq

It took three firefighters to put the fire out. – Yong'inni o'chirish 3 nafar o't o'chiruvchini talab qildi.

- ✓ **Put up** - ilmoq, osib qo'ymoq

The teachers will put a notice up about the new courses. – O'qituvchilar yangi kurslar haqida xabar osib qo'yishadi.

Prepositional phrases

- ✓ **At most** - eng ko'pi bilan, nari borsa

The tickets should cost about €20 at most. – Chiptalar nari borsa 20 yevro tursa kerak.

- ✓ **At the top/bottom (of)** - ning eng yuqorisida/tubida

What's it like at the bottom of the sea? – Dengiz tubi qanaqa?

What was it like at the top of Mount Everest? – Everest Cho'qqisining yuqori qismi qanday edi?

- ✓ **In the beginning** - boshida, eng avval

I found Chinese hard to learn in the beginning, but it's easier now. – Boshida xitoychani o'rganish qiyin bo'ldi, lekin hozir osonroq.

- ✓ **In the distance** - uzoqda, olis masofa narida

Is that a car I can see in the distance? – Olis masofa narida ko'rayotgan narsam mashinami?

- ✓ **In total** - jami bo'lib

In total, we made over €200 for charity. – Jami bo'lib, xayriya uchun 200 yevrodan ziyod pul to'pladik.

- ✓ **On top (of)** - ustiga, ustida, ustidan

He sprinkled sugar on top of the cake. – U to'rtning ustiga shakar sepdi.

Word formation

- ✓ **Centre** - markaz

We've bought an apartment in the very centre of São Paulo. – Sao Pauloning qoq markazidan xonadon sotib oldik.

- ✓ **Central** - markaziy

They live in central London. – Ular markaziy Londonda yashaydilar (=London markazida).

- ✓ **Circle** - aylana

He traced a circle in the dust with his finger. – U chang ustiga barmog'i bilan aylana chizdi.

- ✓ **Circular** - aylana shaklda, dumaloq

Our dining table is circular. – Bizning ovqatlanish stolimiz dumaloq.

- ✓ **Danger** - xavf

The animal seemed to sense danger. – Hayvon xavfni sezgandek ko'rindi.

- ✓ **Dangerous** - xavfli

It's dangerous to drive very fast. – Mashinani juda tez haydash xavflidir.

- ✓ **Deep** - chuqur

Sunflowers have deep roots. – Kungaboqarlarning chuqur ildizlari bor.

- ✓ **Deeply** - chuqur tarzda, qattiq
That's when I fell deeply in love with him. – O'sha vaqtda men uni qattiq sevib qoldim.
- ✓ **Depth** - chuqurlik
What's the depth of the swimming pool? – Suzish havzasining chuqurligi qancha?
- ✓ **Destroy** - vayron qilmoq
The earthquake damaged or destroyed countless homes. – Zilzila son-sanoqsiz uylarga zarar yetkazdi yoki vayron qildi.
- ✓ **Destruction** - buzilish, vayron bo'lish
We've got to stop the destruction of the local environment. – Mahalliy atrof-muhitning vayron qilinishini to'xtatishimiz kerak.
- ✓ **Destructive** - vayronkor
Storms can be very destructive. – Bo'ronlar juda vayronkor bo'lishi mumkin.
- ✓ **Fog** - tuman
We drove slowly through the fog. – Biz tuman oralab sekinlik bilan haydadik.
- ✓ **Foggy** - tumanli
It was so foggy I couldn't see my feet! – Havo shunchalik tumanli ediki oyoqlarimni ko'ra olmasdim!
- ✓ **Garden** - bog'
They sat in the garden and enjoyed the sunshine. – Ular bog'da o'tirishdi va quyosh nuridan rohat olishdi.
- ✓ **Gardener** - bog'bon
My grandfather is an amateur gardener. – Mening bobom havaskor bog'bon.
- ✓ **Gardening** - bog'bonchilik, gullar, daraxt, ekin parvarishlash mashg'uloti
Gardening is a very relaxing pastime. – Ekin parvarishlash juda rohatbaxsh ermak.
- ✓ **Invade** - bostirib kirmoq
In the movie aliens invade Earth. – Kinoda, o'zga sayyoraliklar Yerga bostirib kirishadi.
- ✓ **Invasion** - istilo qilish, bostirib kirish
Jelius Caesar led the Roman invasion of Britain. – Yuliy Tsezar Rimliklarning Britaniyaga bostirib kirishiga boshchilik qilgan.
- ✓ **Invader** - bosqinchi
Local people fought against the invaders. – Mahalliy aholi bosqinchilarga qarshi kurashdi.
- ✓ **Nature** - tabiat
We appreciate beauty in nature. – Biz tabiatdagi go'zallikni hurmat qilamiz.
- ✓ **Natural** - tabiiy
It's an area of great natural beauty. – Bu ajoyib tabiiy maftunkorlikka ega hudud.
- ✓ **Naturally** - tabiiy tarzda, tabiatan
Is your hair naturally curly? – Sizning sochingiz tabiatan jingalakmi?
- ✓ **Pollute** - ifloslantirmoq
We won't invest in any company that pollutes the environment. – Biz atrof-muhitni ifloslantiradigan hech qanday kompaniyaga sarmoya kiritmaymiz.
- ✓ **Pollution** - ifloslanish

There are lots of different kinds of pollution. – Ifloslanishning ko'plab har xil turlari mavjud.

- ✓ **Polluted** - ifloslangan

Polluted rivers are not safe to swim in. – Ifloslangan daryolar suzish uchun xavfsiz emas.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Afraid of** - dan qo'rqadigan

I'm afraid of the dark. – Men qorong'ulikdan qo'rqaman.

- ✓ **Aware of** - dan xabardor

I'm not aware of any flights being cancelled. – Hech qanday bekor qilingan parvozdan xabarim yo'q.

- ✓ **Enthusiastic about** - haqida ishtiyoqmand, ga qiziqqan

John is really enthusiastic about the karaoke competition. – Jon karaoke musobaqasiga juda qiziqyapti.

- ✓ **Serious about** - haqida jiddiy

If you're serious about being a doctor, I'll give you some advice. – Agar siz shifokor bo'lish haqida jiddiy fikrda bo'lsangiz, sizga biroz maslahat beraman.

- ✓ **Short of** - kam, yetarli darajada emas

I'm very short of money! – Menda pul juda kam!

verbs

- ✓ **Escape from** - dan qochmoq

How did they escape from prison? – Ular qamoqxonadan qanday qilib qochishdi?

- ✓ **Prevent sb from** - dan to'xtatmoq, ga yo'l qo'ymaslik

The wall is designed to prevent the animals from leaving. – Devor hayvonlarni chiqib ketishdan to'xtatish maqsadida qurilgan.

- ✓ **Save sth from** - dan saqlab qolmoq

We've got to save lots of animals from becoming extinct. – Ko'plab hayvonlarni qirilib ketishdan saqlab qolishimiz kerak.

- ✓ **Think about** - haqida o'ylamoq

I'm going to think about that carefully. – Men bu haqida diqqat bilan o'ylab ko'rmoqchiman.

- ✓ **Worry about** - haqida xavotir olmoq

Don't worry about me. I'll be all right. – Mendan xavotir olmang. Menda hammasi joyida bo'ladi.

nouns

- ✓ **Damage to** - ga zarar, ziyon

Did the storm do a lot of damage to your house? – Bo'ron sizning uyingizga katta zarar yetkazdimi?

- ✓ **An increase in** - da o'sish

There's been an increase in traffic in the town center recently. – Oxirgi paytlarda shahar markazidagi tirbandlik miqdorida o'sish kuzatildi.

UNIT 39. LAUGHING AND CRYING

Topic vocabulary

- ✓ **Amusing** - kulgili
Jan sent me an amusing birthday card. – Jen menga kulgili tug'ilgan kun tabrigi yubordi.
- ✓ **Annoy** - asabiga tegmoq
I don't dislike her–she just annoys me sometimes. – U menga yoqmaydi emas–shunchaki u ba'zida meni asabimga tegadi.
- ✓ **Attitude** - munosabat
We can win if we keep a positive attitude. – Agar biz ijobiy munosabatni ushlab qolsak (=davom ettirsak), g'alaba qozona olamiz.
- ✓ **Bad-tempered** - jahldor, tez jahl otiga minadigan
Relax and try not to be so bad-tempered. – Tinchlaning va bunchalar jahldor bo'lmaslikka harakat qiling.
- ✓ **Behave** - o'zini biron yo'sinda tutmoq
The children behaved very badly. – Bolalar o'zlarini juda yomon tutishdi.
- ✓ **Bully** - qo'rqitmoq, zo'ravonlik qilmoq, urmoq
You shouldn't bully the other children in your class. – Sinfingizdagi boshqa bolalarga zo'ravonlik qilishingiz kerak emas.
- ✓ **Bully** - zo'ravon
Leave him alone and don't be such a bully! – Uni tinch qo'ying va bunaqangi zo'ravon bo'lmang!
- ✓ **Calm** - tinch, og'ir-bosiq
'Don't move and the snake won't attack,' he said in a calm voice. – U og'ir-bosiq ovozda shunday dedi: 'Harakatlanmang va shunda ilon ham sizga hamla qilmaydi.'
- ✓ **Celebrate** - nishonlamoq
Let's have a party to celebrate. – Keling, nishonlash uchun bazm uyushtiramiz.
- ✓ **Character** - xarakter
Amy has got a really nice, friendly character. – Eymi juda ajoyib, do'stona xarakterga ega.
- ✓ **Depressed** - xafa va tushkunlikka tushgan
She got very depressed after her husband left her. – Eri uni tashlab ketgandan keyin, u juda tushkunlikka tushib qoldi.
- ✓ **Embarrassing** - uyatga qo'yadigan, noqulay holatga tushirib qo'yadigan
What's the most embarrassing thing you've ever done? – Umringiz davomida qilgan eng xijolatli ishingiz nima bo'lgan?
- ✓ **Emotion** - his-tuyg'u
Jealousy is an uncomfortable emotion. – Rashk - bu noqulay tuyg'u.
- ✓ **Enthusiastic** - ishtiyoqmand, qiziqqan
For a while, we were enthusiastic about the idea. – Bir muncha vaqt, biz bu g'oyaga ishtiyoq bilan qaradik.
- ✓ **Feeling** - his-tuyg'u
He found it difficult to express his feelings. – U his-tuyg'ularini ifodalashga qiynaldi.
- ✓ **Glad** - mamnun, xursand
Maggie was glad to be home. – Magi uyga kelganidan mamnun edi.

- ✓ **Hurt** - og'rimoq
Fred's knees hurt after skiing all day. – Kuni bo'yi chang'i uchishdan keyin Fredning tizzalari og'ridi.
- ✓ **Hurt** - shikastlangan
Two young men were badly hurt in the accident. – Ikki yigit avariya da og'ir jarohatlandi.
- ✓ **Miserable** - mayus, xafa
He looked cold and miserable. – U sovuq qotgan va mayus ko'rinardi.
- ✓ **Naughty** - beodob
Sally was often naughty and got into trouble at school. – Sali maktab davrida ko'pincha beodob edi va muammoga ko'p uchrardi.
- ✓ **Noisy** - shovqinli
We have really noisy neighbours. – Juda ko'p shovqin qiladigan qo'shnilarimiz bor.
- ✓ **Polite** - odobli, xushmuomala
It's not polite to talk with your mouth full of food. – Og'izda to'la ovqat bilan gapirish odobdan emas.
- ✓ **React** - ga javoban harakat qilmoq
I wasn't sure how you would react. – Siz qanday javob qaytarishingiz haqida ishonchim komil emasdi.
- ✓ **Regret** - afsuslanmoq
We regret any problems because of the delay. – Kechikish tufayli kelib chiqqan har qanday muammodan afsusdamiz.
- ✓ **Regret** - afsus-nadomat, pushaymonlik
Do you have any regrets about what you did? – Qilgan ishingizdan pushaymonmisiz?
- ✓ **Ridiculous** - be'mani, kulgili
She looks absolutely ridiculous in that hat. – U bu shlyapada juda ham kulgili ko'rinadi.
- ✓ **Romantic** - romantik
We had a romantic dinner in an expensive restaurant. – Biz qimmat restoranda romantik kechki ovqat qildik.
- ✓ **Rude** - qo'pol
I don't want to seem rude, but I'd rather be alone. – Qo'pol ko'rinishni istamayman, lekin yolg'iz qolishni afzal ko'rardim.
- ✓ **Sense of humour** - yumor hisi: hazilni tushuna olish va kulish qobiliyati
Kev has got a great sense of humour and he makes me laugh all the time. – Kev ajoyib yumor hisiga ega va u har doim meni kuldiradi.
- ✓ **Shy** - uyalchang
I'd love to meet her, but I'm too shy to introduce myself. – Men u bilan uchrashishni istardim, lekin o'zimni tanishtirishga juda uyalaman.
- ✓ **Stress** - stress, tushkunlik
Carol's been under a lot of stress lately. – Kerel so'nggi paytlarda juda ko'p stress ostida.
- ✓ **Tell a joke** - hangoma aytmoq
The kids were telling jokes. – Bolalar hangoma aytishayotgandi.
- ✓ **Upset** - xafa qilmoq

I'm sorry, I didn't mean to upset you. – Kechiring, sizni xafa qilmoqchi emasdim.

✓ **Upset** - xafa

It's nothing to be upset about. – Bu xafa bo'lishga arzigulik narsa emas.

Phrasal verbs

✓ **Calm down** - tinchlan(tir)moq

The woman finally calmed down and explained what had happened. – Ayol va nihoyat tinchlanib oldi va nima sodir bo'lganini tushuntirdi.

✓ **Cheer up** - ko'ngli ko'tarilmoq

I started to cheer up when the sun came out. – Quyosh chiqqach, ko'nglim ko'tarila boshladi.

✓ **Come on** - tezlashmoq

Come on, or we'll be late! – Tezlashing, aks holda kech qolamiz!

✓ **Go on** - davom ettirmoq

Please go on with your work while I speak to the head teacher. – Men direktor bilan gaplashayotgan vaqtimda, ishingizda davom eting, iltimos.

✓ **Hang on** - kutmoq

Just hang on—I'll be ready in a minute. – Kutib turing–bir daqiqada tayyor bo'laman.

✓ **Run away (from)** - (dan) qochmoq

The thief ran away from the police officers. – O'g'ri politsiya ofitserlaridan qochib ketdi.

✓ **Shut up** - gapirishni to'xtatmoq, og'zini yummoq

Just shut up a minute and let me tell you what happened! – Shunchaki bir daqiqaga og'zingizni yuming va nima bo'lganini sizga aytib berishimga qo'yib bering!

✓ **Speak up** - balandroq ovozda gapirmoq

You have to speak up a bit because my gran's a bit deaf. – Biroz balandroq gapirishingizga to'g'ri keladi negaki buvimning qulog'i og'irroq.

Prepositional phrases

✓ **At first** - boshida, dastavval

I didn't like Mary at first, but then we became friends. – Boshida men Merini yoqtirmas edim, biroq keyin biz do'stlarga aylandik.

✓ **At least** - hech bo'lmaganda

It's cold, but at least it's not raining. – Havo sovuq, lekin hech bo'lmaganda yomg'ir yog'mayaptiku.

✓ **At times** - ba'zan

I like studying French, but it can be hard work at times. – Men fransuz tilini o'rganishni yoqtiraman, biroq ba'zan u qiyin ishga aylanishi mumkin.

✓ **In secret** - yashirincha, hech kimga sezdirmay

We planned a birthday party for Julie in secret. – Biz yashirincha Juli uchun tug'ilgan kun bazmini rejalashtirdik.

✓ **In spite of** - ga qaramay

Tina seems to be happy, in spite of her recent problems. – Yaqin oradagi muammolariga qaramay, Tina xursand ko'rinadi.

- ✓ **In tears** - yig'layotgan

When I found Fiona, she was in tears. – Fionani topganimda, u yig'layotgan edi.

Word formation

- ✓ **Bore** - zeriktirmoq

Has he been boring you with his stories about his trip? – U sayohati haqidagi hikoyalari bilan sizni zeriktirayotganmidi?

- ✓ **Boring** - zerikarli

This game is really boring. Let's do something else. – Bu o'yin juda ham zerikarli. Keling, boshqa biror narsa qilamiz.

- ✓ **Bored** - zerikkan

The start of the film was okay, but I soon got bored. – Filmning boshlanishi yaxshi edi, lekin ko'p o'tmay men zerikib qoldim.

- ✓ **Comedy** - komediya

They spent hours watching comedy on television. – Ular televizorda komediya tomosha qilib soatlab vaqt o'tkazishdi.

- ✓ **Comedian** - komediyachi, qiziqchi

My favourite comedian is Jim Carrey. – Mening sevimli komediyachim - Jim Kerri.

- ✓ **Emotion** - his-tuyg'u

Fear is a normal human emotion. – Qo'rquv bu odatiy insoniy his-tuyg'u.

- ✓ **Emotional** - hissiyotlarga beriluvchan

Nigel is quite an emotional person and gets upset very easily. – Nayjel hissiyotlarga juda beriluvchan odam va u tezda xafa bo'lib qoladi.

- ✓ **Energy** - energiya, quvvat, g'ayrat

She's always full of energy. – U har doim energiyaga boy.

- ✓ **Energetic** - energiyaga boy, serg'ayrat, harakatchan

Jack is really energetic. I can't keep up with him! –Jek juda serg'ayrat. Men unga yetolmayman!

- ✓ **Excite** - hayajonlantirmoq, quvontirmoq

The prospect of a year in India greatly excited her. – Hindistonda bir yil o'tkazish istiqboli uni juda hayajonlantirdi.

- ✓ **Excitement** - xursandchilik

Come to Adventure World for fun and excitement! – O'yin-kulgi va xursandchilik uchun Sarguzashtlar Dunyosiga keling!

- ✓ **Exciting** - hayajonli, ajoyib

Swimming with dolphins must be really exciting. – Delfinlar bilan suzish juda ajoyib bo'lsa kerega.

- ✓ **Excited** - hayajonlangan, xursand

I'm so excited about Georgia's party! – Men Jorjaning bazmidan juda hayajondaman!

- ✓ **Feel** - his qilmoq

I feel great this morning. – Bu tongda o'zimni ajoyib his qilyapman.

- ✓ **Felt** - feel fe'lining past simple va past participle shakllari
I've never felt so happy in my whole life. – Butun hayotim davomida o'zimni bu qadar xursand his qilmaganman.
- ✓ **Feeling** - ko'ngil sezishi
I have a feeling that I've been here before. – Bu yerda avval bo'lganman, ko'nglim sezyapti.
- ✓ **Feelings** - his-tuyg'u
You really hurt my feelings last night. – Kecha tunda siz chindan ham mening hissiyotlarimni og'ritdingiz.
- ✓ **Happy** - xursand
For the first time in her life, she felt truly happy. – U hayotida birinchi marta haqiqatdan xursand his qildi o'zini.
- ✓ **Unhappy** - xafa
You seem a little unhappy. Can I help? – Biroz xafa ko'rinasiz. Yordam bera olamanmi?
- ✓ **Happiness** - quvonch, baxt
I don't think that money brings you happiness. – Pul sizga quvonch olib keladi deb o'ylamayman.
- ✓ **Unhappiness** - qayg'u, baxtsizlik
There's a lot of unhappiness in the world. – Dunyoda juda ko'p baxtsizlik mavjud.
- ✓ **Hate** - yomon ko'rmoq
I absolutely hate cooking. – Men ovqat pishirishni juda yomon ko'raman.
- ✓ **Hatred** - nafrat
Why is there so much hatred between people from these two countries? – Nima uchun bu ikki mamlakat odamlari orasida shuncha nafrat mavjud?
- ✓ **Noise** - shovqin
There were strange noises coming from the kitchen. – Oshxonadan g'alati shovqinlar kelayotgandi.
- ✓ **Noisy** - shovqinli
It's very noisy in here! I can't hear what you're saying. – Bu yet juda shoviqnli! Nima deyayotganingizni eshitolmayapman.
- ✓ **Noisily** - shovqin bilan
Larry came in at four in the morning and noisily took his boots off. – Lari ertalab soat to'rtida kirib keldi va shovqin-suron bilan etiklarini yechdi.
- ✓ **Sympathy** - hamdardlik, dardini tushunish, achinish
I have no sympathy for Jan—it's all her own fault. – Men Jenga hamdard emasman—bularning bari uning o'zining aybi.
- ✓ **Sympathise** - hamdard bo'lmoq, dalda bermoq
I can sympathise with you because I've been through the same problems. – Men sizga hamdard bo'lishim mumkin, chunki men ham xuddi shunday muammolarni boshdan kechirganman.
- ✓ **Sympathetic** - hamdard, dilcash
Jody was very sympathetic when I told her about my bad luck. – Men unga omadsizligim haqida gapirib berganimda, Jodi juda hamdard edi.

Word patterns

adjectives

- ✓ **Ashamed of** - dan uyalgan
Aren't you ashamed of what you did? – Qilgan ishingizdan uyalmaysizmi?
- ✓ **Embarrassed about** - dan xijolatda, noqulay holatga tushib qolgan
I'm a bit embarrassed about what I did at the party last night. – Kecha tunda bazmda qilgan ishimdan biroz xijolatdaman.
- ✓ **Frightened of** - dan qo'rqqan
Are you frightened of flying? – Uchishdan qo'rqasizmi?
- ✓ **Happy about/with** - dan xursand
David seemed to be happy about/with his exam results, anyway. – Devid imtihon natijalaridan xursand bo'lib tuyuldi.
- ✓ **Nervous about** - dan asabiylashgan
I'm really nervous about appearing in the school play. – Men maktab spektaklida ishtirok etishdan juda asabiyman.
- ✓ **Scared of** - dan qo'rqqan
Hold my hand–there's nothing to be scared of. – Qo'limni ushlab oling–qo'rqadigan hech narsa yo'q.
- ✓ **Sorry about/for** - uchun afsusda
I'm sorry about/for what I said to Susie. – Suziga aytgan gapimdan afsusdaman.
- ✓ **Surprised at/by** - dan hayratlangan
We were all surprised at/by Tom's decision to give up football. – Biz barchamiz Tomning futbolni tashlash haqidagi qaroridan hayratda edik.
- ✓ **Tired of** - dan charchagan
I'm tired of helping people and not even getting a 'thank you' for it. – Men odamlarga yordam berishdan va hatto buning uchun "rahmat" ham olmaslikdan charchadim.

verbs

- ✓ **Congratulate sb on** - bilan tabriklamoq
The coach congratulated us on winning the final. – Murabbiy bizni finalda g'alaba qozonganimiz bilan tabrikladi.
- ✓ **Laugh at** - ga kulmoq
Your problems will seem less serious if you can laugh at them. – Agarda siz muammolaringizga kulib qo'yishga qodir bo'lsangiz, ular uncha jiddiy ko'rinmaydi.

nouns

- ✓ **A joke about** - haqida hangoma
Trisha told us a joke about two penguins. – Trisha bizga ikki pingvin haqida hangoma aytib berdi.

UNIT 42. PROBLEMS AND SOLUTIONS

Topic vocabulary

- ✓ **Accident** - tasodif

I didn't do it on purpose—it was an accident! – Men buni ataylab qilganim yo'q–u tasodif edi!

- ✓ **Assume** - tahmin qilmoq, deb o'ylamoq, faraz qilmoq
I assume everyone here has an e-mail address. – O'ylashimcha, bu yerda hamma o'z elektron pochta manziliga ega.
- ✓ **Cause** - sabab bo'lmoq, keltirib chiqarmoq
Bad weather continues to cause problems for travellers. – Yomon ob-havo sayyohlar uchun qiyinchiliklar keltirib chiqarishni davom ettiryapti.
- ✓ **Cause** - sababchi bo'lgan omil
We had to write an essay on the causes of the First World War. – Biz Birinchi Jahon Urishiga sabab bolgan omillar haqida insho yozishimiz kerak edi.
- ✓ **Claim** - deb da'vo qilmoq, deb aytmoq
He claims he is innocent. – U aybsiz ekanligini aytyapti.
- ✓ **Complain** - shikoyat qilmoq
She complained that it was too hot. – U haddan ortiq issiq ekanligini aytib shikoyat bildirdi.
- ✓ **Convince** - ishontirmoq
He failed to convince the judge that he was innocent. – U sudyani aybsiz ekanligiga ishontira olmadi.
- ✓ **Criticise** - tanqid qilmoq
Why are you always criticising me? – Nima uchun siz meni har doim tanqid qilaverasiz?
- ✓ **Deny** - rad etmoq: biron bir ishni men qilmaganman deyish
He still denies stealing the money. – U haligacha pulni o'g'irlaganini rad etyapti.
- ✓ **Discussion** - suhbat, gaplashib olish
We need to have a discussion about your schoolwork. – Maktabdan berilgan topshirig'ingiz to'g'risida gaplashib olishimiz kerak.
- ✓ **Doubt** - shubha qilmoq
'Do you think they'll win?' 'I doubt it.' – 'Ular g'alaba qozonadi deb o'ylaysizmi?' 'Shubham bor.'
- ✓ **Doubt** - shubha
There's no doubt about it—we're in trouble. – Bunga hech qanday shubha yo'q–biz muammo ichidamiz.
- ✓ **Encourage** - qo'llamoq, ruhlantirmoq
Mum always encouraged us when we took part in competitions. – Biz musobaqalarda ishtirok etganimizda, onam doim bizni qo'llab quvvatlaganlar.
- ✓ **Get rid of** - qutulmoq
We're moving, so we have to get rid of a lot of our furniture. – Biz yangi uyga ko'chypmiz, shuning uchun juda ko'p mebellarimizdan qutulishimiz kerak.
- ✓ **Gossip** - g'iybat qilmoq
You shouldn't gossip about people. – Odamlarni g'iybat qilishingiz kerak emas.
- ✓ **Gossip** - g'iybat
Here's an interesting piece of gossip for you! – Mana sizga bir qiziqarli g'iybat!
- ✓ **Ideal** - eng zo'r, ideal
Upgrading your computer seems the ideal solution. – Kompyuterizgizni yangilash ideal yechim ko'rinadi.

- ✓ **Insult** - haqorat qilmoq
You'll insult the cook if you don't at least taste the meal. – Agarda hech bo'lmasa ovqatni tatib ham ko'rmasangiz, oshpazni haqorat qilgan bo'lasiz.
- ✓ **Insult** - haqorat
I've never heard such a dreadful insult. – Men hech qachon bu qadar yomon haqoratni eshitmaganman.
- ✓ **Investigate** - tekshirib chiqmoq
We sent a reporter to investigate the rumour. – Mish-mishni tekshirish uchun muxbir jo'natdik.
- ✓ **Negative** - salbiy
Does TV have a negative effect on children? – Televizorning bolalarga salbiy ta'siri bormi?
- ✓ **Positive** - ijobiy
School was a totally positive experience for me. – Maktab men uchun butunlay ijobiy tajriba bo'lgan.
- ✓ **Praise** - maqtamoq
If you never praise your kids, how can they know when they're doing something right? – Agar hech qachon bolalaringizni maqtamasangiz, ular to'g'ri ish qilayotganlarini qanday qilib bilishadi?
- ✓ **Praise** - maqtov
I never got much praise as a child. – Men bolalik paytimda hech qachon uncha maqtov eshitmaganman.
- ✓ **Pretend** - mug'ombirlik qilmoq, o'zini qandaydir tutmoq
She closed her eyes and pretended to be asleep. – U ko'zlarini yumdi va o'zini uxlayotgandek tutdi.
- ✓ **Purpose** - maqsad
The purpose of this dictionary is to help students of English. – Bu lug'atning maqsadi ingliz tili o'quvchilariga yodam berish.
- ✓ **Refuse** - biron ishni qilishdan bosh tortmoq
I asked him to apologise, but he refused. – Men undan uzr so'rashini so'radim, ammo u bosh tortdi.
- ✓ **Result** - sabab bo'lmoq
The fight resulted in three people being hurt. – Janjal uch kishining jarohatlanishiga olib keldi.
- ✓ **Result** - natija
He said the argument was the result of a misunderstanding. – U aytdiki tortishuv tushunmovchilikning natijasi ekan.
- ✓ **Rumour** - mish-mish
A student had been spreading rumours about the teachers. – Bir o'quvchi o'qituvchilar to'g'risida mish-mishlar tarqatib yurgan ekan.
- ✓ **Sensible** - mulohazali, aql bilan qilingan, oqilona
This seems to be a sensible way of dealing with the problem. – Bu muammoni hal qilishning oqilona yo'lliga o'xshaydi.
- ✓ **Serious** - jiddiy
It's not a serious problem. – Bu jiddiy muammo emas.

- ✓ **Spare** - bo'sh, qo'shimcha
Bring a towel and some spare clothes. – Sochiq va qo'shimcha kiyim keltiring.
- ✓ **Theory** - fikr, qarash, ishonish
I have my own theory about why he left. – Nima uchun ketib qolganini borasida o'zining fikrim bor.
- ✓ **Thought** - o'y-fikr
I've just had an interesting thought. – Menga hozirgina qiziq bir fikr keldi.
- ✓ **Warn** - ogohlantirmoq
Police are warning everyone in the area to take extra care when going out alone. – Politsiya hududdagi barchani ko'chaga yolg'iz chiqayotganda ehtiyotkor bo'lish haqida ogohlantirmoqda.

Phrasal verbs

- ✓ **Hang up** - shkafga ilib qo'ymoq (kiyimlarni)
The women hung up their coats and sat down. – Ayollar paltolarini ilib qo'yishdi va o'tirishdi.
- ✓ **Pick up** - (yerdan, stol ustidan,...) olmoq
Please pick those toys up and put them away. – Iltimos, mana bu o'yinchoqlarni yerdan oling va joyiga qo'ying.
- ✓ **Put back** - joyiga qaytarib qo'ymoq
Can you put the book back when you've finished with it? – Kitobni tugallaganingizda uni joyiga qaytarib qo'ya olasizmi?
- ✓ **Run out (of)** - tugamoq
Many hospitals are running out of money. – Ko'plab shifoxonalarning puli tugayapti.
- ✓ **Share out** - bo'lishmoq, taqsimlamoq
The money will be shared out between 30 different environmental organizations. – Pul 30 ta turli xil ekologik tashkilotlar o'rtasida taqsimlanadi.
- ✓ **Sort out** - muammoni hal qilmoq
Investigators are still trying to sort out why the accident happened. – Tergovchilar noxush hodisa nima uchun ro'y berganini hal qilishga urinishmoqda.
- ✓ **Watch out** - ehtiyot bo'lmoq, e'tiborli bo'lmoq
Watch out-you're going to hit that car! – Ehtiyot bo'ling-anovi mashinani urib yuborasiz!
- ✓ **Work out** - muammoga yechim topmoq
We can't work out how to get the Internet connection going. – Internet aloqasi qanday qilib ishga tushirishni bilolmayapman.

Prepositional phrases

- ✓ **By accident/mistake** - tasodifan/yanglishib
I meant to call Helen, but I called Roger by accident/mistake. – Men Helenga qo'ng'iroq qilmoqchi edim, ammo tasodifan/yanglishib Rojerga qo'ng'iroq qilibman.
- ✓ **In a mess** - tartibsiz ahvolda
Your room is in a mess. Go and tidy it! – Xonangiz tartibsiz ahvolda. Borib yig'ishtiring!
- ✓ **In danger (of)** - (ning) xavfida

That house is in danger of falling down. – Bu uy qulab tushish xavfida.

- ✓ **In my view** - mening fikrimcha
In my view, we shouldn't go to school on Saturdays. – Mening fikrimcha, shanba kunlari maktabga borishimiz kerak emas.
- ✓ **In trouble** - muammoda
We'll be in trouble if the teacher catches us. – Agar o'qituvchi bizni tutib olsa, muammoda qolamiz.
- ✓ **Under pressure** - bosim ostida
My dad is under a lot of pressure at work at the moment. – Dadam ayni damda ishda katta bosim ostida.

Word formation

- ✓ **Advice** - maslahat
Follow your doctor's advice. – Shifokoringizning maslahatiga amal qiling.
- ✓ **Advise** - maslahat bermoq
I would advise you not to get that MP3 player. – Bu MP3 pleyerni olmasligingizni maslahat bergan bo'lardim.
- ✓ **Adviser** - maslahatchi
Phil works as a housing adviser for the local council. – Fil mahalliy kengashda uy-joy masalalari bo'yicha maslahatchi bo'lib ishlaydi.
- ✓ **Confuse** - chalkashtirmoq, adashtirmoq
People often confuse me and my twin sister. – Odamlar ko'pincha men bilan egizak singlimni chalkashtirishadi.
- ✓ **Confused** - chalkashib ketgan, tushunmay turgan
I'm still confused about what happened. – Nima sodir bo'lganiga hali ham tushunmay turibman.
- ✓ **Confusion** - tushunmovchilik, yanglishish
There was a lot of confusion when the fire alarm went off. – Yong'in signalizatsiyasi ishga tushib ketganda, juda ko'p tushunmovchilik bo'ldi.
- ✓ **Except** - dan tashqari
We work every day except Sunday. – Biz shanbadan tashqari har kuni ishlaymiz.
- ✓ **Exception** - istisno
Everyone, with the exception of James, passed the test. – Jeymsni hisobga olmaganda hamma imtihondan o'tdi (= Jeyms o'tolmadi --> istisno).
- ✓ **Help** - yordam bermoq/yordam
*He always helps with the housework. – U har doim uy ishlariga yordamlashadi.
She recovered with the help of her family and friends. – U oilasi va do'stlarining yordami bilan sog'ayib ketdi.*
- ✓ **Helpful** - foydali, nafi tegadigan
Thank you, you've been very helpful. – Rahmat, juda nafingiz tegdi.
- ✓ **Unhelpful** - foydasiz, nafi tegmaydigan
That shop assistant was really unhelpful. – Do'kon sotuvchisi juda nafi tegmaydigan ekan.

- ✓ **Helpless** - noiloj, ojiz, yordamga muhtoj
I felt helpless and didn't know what to do. – Men ojiz his qildim va nima qilishni bilmay qoldim.
- ✓ **Luck** - omad
She wears a red bracelet to bring her luck. – U omad keltirishi uchun qizil bilaguzuk taqib yuradi.
- ✓ **Lucky** - omadli
Do you think you're a lucky person generally? – Umuman olganda o'zingizni omadli inson deb o'ylaysizmi?
- ✓ **Unlucky** - omadsiz
We were unlucky to lose the match. – O'yinni boy berib omadsiz bo'ldik.
- ✓ **Luckily** - yaxshiyamki
Luckily, I won the game. – Yaxshiyamki, o'yinda men yutdim.
- ✓ **Unluckily** - baxtga qarshi
Unluckily, our car broke down. – Baxtga qarshi, mashinamiz buzilib qoldi.
- ✓ **Prefer** - afzal ko'rmoq, istamoq
Would you prefer me to stay? – Meni qolishimni istaysizmi?
- ✓ **Preference** - afzallik, xohish
I'd like pizza, but that's just my personal preference. – Men pitsa istardim, lekin bu shunchaki mening shaxsiy xohishim.
- ✓ **Preferable** - afzalroq
I think flying is preferable to going there by train. – Menimcha, u yerga poyezdda borishdan ko'ra uchish afzalroq.
- ✓ **Recommend** - tavsiya qilmoq
Can you recommend a good hotel? – Yaxshi bir mehmonxonani tavsiya qila olasizmi?
- ✓ **Recommendation** - tavsiya
We made a number of recommendations to the manager. – Biz ish boshqaruvchiga bir nechta tavsiyalar berdik.
- ✓ **Refuse** - inkor qilmoq, norozi bo'lmoq
We invited her to the wedding but she refused. – Biz uni to'yga taklif etdik, ammo u inkor qildi.
- ✓ **Refusal** - norozilik
We were all surprised by Danny's refusal to apologise. – Dennining uzr so'rashdan bosh tortishidan hammamiz hayratga tushdik.
- ✓ **Solve** - hal qilmoq
Money isn't going to solve the problem. – Pul bu muammoni hal qilolmaydi.
- ✓ **Solution** - yechim
I hope we can find a solution to this problem soon. – Umid qilamanki, bu muammoga tez orada yechim topishga erishamiz.
- ✓ **Suggest** - taklif bermoq
I suggested going in my car. – Mening mashinamda borish taklifini berdim.
- ✓ **Suggestion** - taklif
Can I make a suggestion? – Taklif kiritsam maylimi?

Word patterns

adjectives

- ✓ **Sure about/of** - ga ishonchi komil
I'm not sure about/of the answer. – Javob haqida ishonchim komil emas (=javobni bilmayman).

verbs

- ✓ **Advise against** - qilmaslikni maslahat bermoq
I would advise against studying all night. – Tuni bo'yi o'qimaslikni maslahat bergan bo'lardim.
- ✓ **Agree (with sb) about** - biron narsa to'g'risida kimningdir fikriga qo'shilmoq
I don't agree with you about that. – Bu borada sizning fikringizga qo'shilmayman.
- ✓ **Approve of** - biror narsani ma'qullamoq
I don't approve of kids lying to their parents. – Bolalarni ota-onasiga yolg'on gapirishini ma'qullamayman.
- ✓ **Believe in** - ga ishonmoq
Do you believe in UFOs (=Unidentified Flying Objects)? – Noma'lum uchar jismlarga ishonasizmi?
- ✓ **Deal with** - bilan shug'ullanmoq, chora ko'rmoq, hal qilmoq
I'll deal with that problem tomorrow. – Bu muammo bilan ertaga shug'ullanaman.
- ✓ **Happen to** - biron kimga nimadir sodir bo'lmoq
What happened to you? – Sizga nima bo'ldi?
- ✓ **Hide sth from sb** - biron kimdan biron narsa berkitmoq
You can't hide anything from me! – Mendan hech nima berkita olmaysiz!
- ✓ **Insist on** - da qat'iyan turib olmoq, bir fikrda qolmoq
My dad insists on my being home by ten o'clock. – Dadam meni soat 10 gacha uyda bo'lishim kerak deb turib olgan.
- ✓ **Rely on** - ga suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq
You can always rely on Andrew. – Siz doimo Endryuga suyanishingiz mumkin.

nouns

- ✓ **An advantage of** - ning foydali jihati, yaxshi jihati
One advantage of MP3 players is that they're very small. – MP3 pleyerlarning bir foydali jihati shundaki ular juda kichkina.
- ✓ **A solution to** - ga yechim
I hope we can find a solution to that problem soon. – Umid qilamanki, bu muammoga tez orada yechim topishga erishamiz.

Sizning Fikringiz Biz Uchun Muhim!

Agarda siz ushbu kitobdan foydalanish jarayonida, qandaydir kamchilik yoxud xatoga duch kelsangiz, quyidagi manzil orqali muallif bilan bog'lanishingizni va xato haqida muallifga xabar berishingizni so'raymiz. Bundan tashqari, kitob haqidagi boshqa har qanday (tanqidiy va ijobiy) fikrlaringizni ham ushbu manzilga yuborishingiz mumkin. Sizning fikrlaringizni eshitishdan mamnun bo'lamiz va aynan sizning fikrlaringizga asoslangan holda kitob takomillashtirib boriladi.

Telegram: @Zoir_Akramov

E-mail: akramov2002zoir@gmail.com

Muallifning Boshqa Rejalari

Til o'rganuvchilari uchun mo'ljallangan boshqa Destination seriyalari ham mavjud, xususan "Destination A1", "Destination A2", "Destination B2" hamda "Destination C1&C2". Til o'rganuvchilariga yordam berish hamda boshlagan ishimni yakunlab qo'yish maqsadida, ushbu kitoblarning ham Vocabulary qismlaridagi so'zlarni ishonchli tarzda tarjima qilishni oldinga maqsad qilganman. Bundan tashqari, ko'rish qobiliyati jihatdan imkoniyati cheklangan do'stlarimiz uchun ushbu so'zlarning to'g'ri talaffuzlarini ham audio kitob tarzida ishlab chiqish; Destination kitoblarining har bir grammatik mavzusiga video darslar tayyorlash kabi ulkan maqsadlarim ham bor. Albatta, bularning bari vaqt talab etadi, ammo bir kun kelib siz-u men kabi ingliz tili o'rganuvchilariga sezilarli darajada foydasi tegadigan material tayyor bo'ladi.

Agar bu borada, muallifga o'z yashirin yordamingizni berishni hamda jarayonni tezlashtirishni istasangiz, quyidagi plastik kartasiga ko'nglingizdan chiqarib istalgan summadagi yordam pulini o'tkazishingiz mumkin. Sizning behad ulkan ko'magingizdan boshimiz ko'kka yetadi va siz uchun xizmat qilishdan to'xtamaymiz!

Plastik kartasi raqami: 9860170105664412 (Akramova Ozoda nomida)

Muallifning Onlayn Ingliz Tili Kurslari

Muallif onlayn tarzda ingliz tilini o'rgatishga o'zini bag'ishlagan va ingliz tilini o'rganishning har qanday darajasi uchun o'z kursi mavjud: Beginner, Elementary, Pre-intermediate, Intermediate, Upper-intermediate hamda IELTS kurslari. Shunday ekan, siz qulaygina uyingizni tark etmay, o'quv markaziga borish va kelish uchun hech qanday qimmatbaho vaqtingizni sarflagamagan holda, ingliz tilini o'zingizga mos darajada, IELTS natijasi 8.0 bo'lgan o'qituvchidan o'rganishingiz mumkin (kelajakda natija ko'tariladi). Har oyning boshida yangi kurslar ochiladi va birinchi 3 dars sinov tariqasida o'tkaziladi, ya'ni birinchi hafta haq to'lamay dastlabki 3 darsni ko'rishingiz mumkin. Ushbu muddat davomida, siz kurs qay tartibda tuzilgani, nimalarga e'tibor berilishi, kurs darajasi sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Har bir kursda grammar, vocabulary, pronunciation, reading, listening, writing va speakingga birdek e'tibor qaratiladi.

Darslar sifatini baholash uchun hamda kursda ishtirok etish uchun, quyidagi telegram manzil orqali murojaat qilishingiz mumkin: @Zoir_Akramov